

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D Y E M I YA

A.A. Matchanov, L.F. Is’hakova, U.A. Qodirov

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARINI
HIMOYA QILISH VA YURIDIK TA’MINLASH
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

MA’RUZALAR KURSI

TOSHKENT – 2017

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlik hay’atida ma’qullangan.*

Mas’ul muharrir

yuridik fanlar doktori, professor **A. X. Saidov**

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta’minlash boshqarmasi yuridik byuro boshlig‘i, yuridik fanlari nomzodi,
dotsent **SH.N. Berdiyarov;**

Jinoyat protsessi kafedrası boshlig‘i, yuridik fanlar nomzodi,
dotsent **B.N. Rashidov**

I–72 Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta’minlash faoliyatini tashkil etish: Ma’ruzalar kursi / A.A. Matchanov, L.F. Is’hakova, U.A. Qodirov.; Mas’ul muharrir yurid. fan. d-ri, prof. A.X. Saidov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 136 b.

Mazkur ma’ruzalar kursida ichki ishlar organlarining inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta’minlash faoliyati kursining predmeti, metodi, vazifalari, ichki ishlar organlari faoliyatida inson huquqlarini himoya qilish faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarga amal qilish, jinoyat ishlari bo‘yicha o‘zaro xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatish va hamkorlik masalalari tahlil qilingan.

Shuningdek, inson huquqlari nazariyasining asosiy tushunchalari, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatida inson huquqlarini himoya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

IIV Akademiyasi Oliy akademik kurslari tinglovchilariga mo‘ljallangan.

BBK67.91ya73

KIRISH

Inson huquqlari hayotning to'laqonligini belgilab, millatlar madaniyatlarining ajralmas qismi, insoniyat ma'naviy-huquqiy mezonlarining yuqori ko'rinishi sifatida xizmat qiladi. Shu bois hozirgi zamonning ma'naviy qadriyatlari orasida umum e'tirof etilgan inson huquqlari eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. BMT Ustavi va xalqaro konvensiyalarda, dunyoning turli mamlakatlari konstitutsiyalarida mustahkamlangan inson huquqlari fundamental va ajralmas huquqlar sifatida ongimizga singib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «...inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur eng avvalo huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak»¹.

Huquqiy davlatda shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish, bartaraf etish va tergov qilish qonuniylik asosida olib borilishi lozim. Davlatning barcha hokimiyat ijro etuvchi tuzilmalari, ayniqsa, ichki ishlar organlari (o'z vakolatlari doirasida) fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlab berishi, ularni himoya qilish funksiyasini amalga oshirishi darkor. Mazkur huquqlarni himoya qilish zimmasiga yuklatilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar orasida ichki ishlar organlari alohida o'rin egallaydi.

Ichki ishlar organlari oldida turgan asosiy vazifalarga quyidagilar kiradi: fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash; jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarni o'z vaqtida oldini olish va bartaraf etish; jinoyatlarni tezda va to'liq ochish; jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash; mulkni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilish; o'zining qonuniy huquq va manfaatlarini amalga oshirishda fuqarolarga, mansabdor shaxslarga hamda boshqa subyektlarga huquqiy va tashkiliy yordam ko'rsatish va boshqalar.

¹ *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси / Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б. 96–97.

Ichki ishlar organlari tuzilmaviy bo'g'inlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan huquqlarga tahdid solayotgan turli huquqbuzarliklarga qarshi kurash olib borishdan iborat.

Ko'rsatib o'tilgan faoliyatning turlari mazmun va xususiyatiga ko'ra har xil bo'lishiga qaramay, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha vazifalarga taalluqli asosiy prinsiplar, shakl va usullar bir xil hisoblanib, faqat tafsilotlarda farqlanadi, xolos. Ichki ishlar organlarining hokimiyat vakolatiga ega faoliyati qonunda ular uchun belgilab qo'yilgan huquqiy shakllar doirasida amalga oshiriladi. Bunga turli mazmunga ega bo'lishiga qaramay, bir-biri bilan yaqindan bog'langan va o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy va yuridik shakllar kiradi. Bundan tashqari, ularning har biri o'zida boshqasiga taalluqli bo'lgan elementni ham olgan bo'lib, ayrim hollarda, ularni farqlash juda qiyin kechadi.

Mazkur ma'ruzalar kursi umum e'tirof etilgan inson huquqlarining murakkab muammolarini tushuntirishga yordam berishga qaratilgandir. U shaxsning axloqiy va fuqarolik pozitsiyalarining o'zaro aloqalariga bog'liq ravishda milliy hamda xalqaro darajada inson huquqlarining yuridik jihatlarini tahlil qilishga imkon beruvchi turli fikrlar integratsiyasiga qurilgan. Yetakchi g'oyalar – gumanizm, insonning sha'ni va qadr-qimmatiga hurmat, erkinlik va mas'uliyatdir. O'quv materialini tanlashda inson huquqlari bo'yicha xalqaro deklaratsiyalar va konvensiyalardan, shuningdek bu sohadagi xorijiy huquqiy tajribadan keng foydalanildi.

Mualliflar ma'ruzalar kursida bayon qilinayotgan materialning oddiyligini o'zaro bog'lashga, siyosiy va axloqiy tushunchalarga huquqning aniqligini berishga, fuqarolarga o'z huquqlarini himoya qilishning tinch va ma'rifiy huquqiy shakllarini ko'rsatishga harakat qilishgan. Bu esa har bir shaxsning o'z huquqlarini, ularning mohiyatini anglagan holda mas'uliyat bilan yondashib ulardan oqilona foydalanishi, huquqiy-axloqiy va inson huquqlari borasida qo'l kelishi tabiiy.

Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish ma'ruzalar kursini tayyorlashda quyidagi mualliflar jamoasi ishtirok etdi: A.A. Matchanov – yu.f.n., dotsent (1,3,4,5,6-mavzular), L.F. Is'hakova – yu.f.n. (2-mavzu), U.A. Qodirov – yu.f.n. (7-mavzu).

1-Mavzu. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA YURIDIK TA'MINLASH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH O'QUV KURSINING PREDMETI, METODI, VAZIFALARI VA TUZILISHI

1.1. Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursining predmeti va vazifalari

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurilishining muhim shartlaridan biri shaxsning asosiy huquq va erkinliklari himoyasini va jamiyatdagi har bir inson huquqlarining amaliy kafolatlari tizimini yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «biz o'z oldimizga qo'ygan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadidan voz kechmaymiz, muqaddas zaminimizda yashayotgan har bir inson uchun erkin, hech kim va hech nimadan kam bo'lmagan farovon hayot barpo etish yo'lidan qaytmaymiz»¹.

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi va ichki siyosatida BMTning 1993-yil Inson huquqlari bo'yicha Ikkinchi umumjahon konferensiyasida tasdiqlangan «inson huquqlari shak-shubhasiz universal xususiyatga ega, ularning himoyasi esa tegishli davlatlarning qonuniy ehtiyojidir» degan prinsipga asoslanadi².

Yurtimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida maqsadli ishlar olib borilmoqda. Qonun hujjatlarining butun bir tizimi ishlab chiqilib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar muvaffaqiyatli ishlab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qo'shilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» edi. Bu O'zbekistonning inson huquqlarini rivojlantirish, himoya etish va kafolatlash borasidagi haqiqiy maqsadlarini bildiradi. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklariga oid 70 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatni ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklariga oid asosiy hujjatlarga qo'shilishi bilan, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari bosqichma-bosqich milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilib borilmoqda.

¹ *Каримов И. А. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари.* Т.18. – Т., 2010. – Б. 10.

² *Инсон ҳуқуқлари ва сен: қўлланма.* – Варшава., 2000. – Б.150–152.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlar implementatsiyasida BMT konvensiyaviy hujjatlari bo'yicha hisobotlar mexanizmi muhim o'ringa ega. 2011- yilning boshida O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan BMTning asosiy hujjatlari bo'yicha Tashkilotning tegishli qo'mitalariga milliy hisobotlar taqdim etilgan va ko'rib chiqilgan. Xususan, quyidagi hujjatlar bo'yicha hisobotlar topshirilgan:

– Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya;

– Irtiqiy kamsitishning barcha turlariga barham berish to'g'risidagi konvensiya;

– Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya;

– Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya;

– Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt;

– Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.

Shuni ta'kidlash joizki, xalqaro huquqiy standartlarni O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish jarayoni barqaror, tizimli va ortga qaytmas xususiyat kasb etmoqda. Buning natijasida bir qator qonun va qonunosti hujjatlarining xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalari talablariga mosligi qayta ko'rib chiqilmoqda.

Tabiiyki, u yoki bu sohada rejalarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi emas, balki strategik ustuvorlikni aniqlab olish va qo'yilgan vazifalarning to'liq hal etilishi muammoning yechimidir.

Xalqaro hamjamiyat rivojlanishga bo'lgan huquqqa alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu huquq xalqlar va inson uchun uzviy bo'lib, inson asosiy huquqlarining bir qismi hisoblanadi. Ushbu huquq yakuniy ravishda 1986-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Rivojlanishga bo'lgan huquq to'g'risidagi deklaratsiyada qayd etilgan.

Ushbu deklaratsiyada ta'kidlanishicha, rivojlanish har tomonlama iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot bo'lib, unda ishtirok etgan barcha shaxslar farovonlikdan teng ravishda adolatli foydalanishi va unda faol ishtirok etishiga yo'naltirilgandir. Ta'kidlanganidek, inson rivojlanish jarayonining asosiy subyekti bo'lib, rivojlanishga bo'lgan huquqning faol ishtirokchisi bo'lishi zarur.

Ko'pchilik demokratik davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, milliy darajada inson huquqlar va ayniqsa, «birinchi avlod» huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoyalashning samarali mexanizmini yaratmay turib, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni tashkil etish mumkin emas¹.

¹ Биринчи авлод инсон ҳуқуқларига шахсий (фуқаролик) ва сиёсий ҳуқуқлар киреди.

Shaxsiy huquq va erkinliklarni amalda ta'min etish har bir davlatning barqaror va izchil rivojlanishining asosidir.

«Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursi»ning o'rganishga kirishishdan avval ushbu fanning predmeti, maqsad va vazifalariga aniqlik kiritish lozim.

O'quv kursining predmeti – ushbu kurs o'rganadigan masalalar doirasidir. Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursi ham boshqa fan sohalarini takrorlamaydigan o'z predmetiga ega. Unda inson huquq va erkinliklari, ularning tarixiy rivojlanishi, implementatsiyasi, universal kafolatlari mexanizmi, shuningdek iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va inson boshqa huquqlariga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

Ushbu o'quv kursining predmeti inson sivilizatsiyasining eng oliy qadriyatlaridan biri, individual va ijtimoiy borliqning turli qirralarini qamrab oluvchi – inson huquqlari tizimidir.

Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursining predmeti uch blokdan iborat bilimlarni qamrab oladi:

birinchidan, inson huquqlari bo'yicha tarixiy va nazariy konsepsiyalar;

ikkinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar;

uchinchidan, inson huquqlarini ta'minlash va himoyalash bo'yicha milliy qonunchilik va davlatning ichki mexanizmlari.

Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursining maqsadi – inson huquq va erkinliklarini har tomonlama o'rganishdir.

Barcha murakkab davlat-huquqiy masalalar inson huquqlarida o'z aksini topadi hamda davlat va huquqiy hayotning asosiy halqasi bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning huquq va erkinliklari ustuvorligi demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatining asosiy prinsipidir.

Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish oliy o'quv yurtlarida o'quv kursi sifatida kiritilgan bo'lib, bu O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldidagi majburiyatlariga mos keladi, chunki 1995–2004-yillar «Inson huquqlarini o'rganish o'n yilligi» deb e'lon qilingan. Aynan shu yillarda O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida «Inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti» kafedrasini tashkil etilgan bo'lib, IIV tizimidagi ta'lim muassasalarida inson huquqlarini o'qitish boshlangan.

Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursini o'qitishdan maqsad:

birinchidan, tinglovchilarning huquqiy madaniyati va inson huquqlari madaniyatini oshirish;

ikkinchidan, ularda insoniy dunyoqarashni shakllantirish;

uchinchidan, yoshlarga demokratik qadriyatlar malakasini singdirish, inson qadr-qimmatini tushunchasini yuksaltirish, fuqarolik mas'uliyati, nafaqat o'z huquqlarini, balki o'zgalarning huquqlarini, shuningdek jamiyat manfaat-lari va davlatning o'z fuqarolari oldidagi majburiyatlarini ham chuqur tushunishni o'rgatishdan iborat.

Ushbu kursning o'qitilishi kelajakda xodimlarda ichki ishlar organlari faoliyatida shaxs huquqlarini ta'minlash va himoyalashning professional malakasini shakllantirishga ko'maklashadi.

O'quv kursning asosiy vazifalari:

– tinglovchilarning inson huquqlari borasidagi bilimlarga ega bo'lish-lar ko'maklashish;

– tinglovchilarga inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan yonda-shishni o'rgatish, ularda inson huquqlari, sha'ni va erkinliklariga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish;

– inson huquq va erkinliklarini professional himoya qilish malakasini hosil qilish;

– inson huquqlari madaniyatini shakllantirishdan iborat.

O'quv kursni o'qitish jarayonida umum e'tirof etilgan inson huquq-larining ahamiyati hisobga olinib, ularni himoya qilish jarayonlari va mexanizmiga e'tibor qaratish zarur:

1) bunday himoyaning konstitutsiyaviy, sudlov, jinoyat-huquqiy, jinoyat-protsessual, ma'muriy-huquqiy choralari ochib berish;

2) inson huquqlari ta'minlanishi va himoyasining xalqaro huquqiy tizimini va bu sohada rivojlanishning keyingi tendensiyalarini o'rganish;

3) tinglovchilarda inson huquqlari ozodlik va tenglikning muhim sharti ekanligi haqida to'g'ri tasavvur uyg'otish;

4) inson huquqlari madaniyati va huquqiy jamiyat shakllanishi uchun sharoitlar yaratish.

Umum e'tirof etilgan inson huquqlari – murakkab, serqirra hodisa bo'lib, insoniyatning uzoq huquqiy tarixi natijasi, eng oliy ijtimoiy qadriyat ekan-ligini ushbu o'quv kursi yoritib beradi. Inson huquqlari shaxsning ehtiyoji va imkoniyatlari, uning erkinligi va mas'uliyat me'yorini aks ettiradi.

Mavzularning o'rganilishi tarix, etika, falsafa, siyosatshunoslik, davlat va huquq nazariyasi va boshqa ijtimoiy fanlardan olingan bilimlarga asos-lanadi. Ta'lim jarayonida konstitutsiyaviy huquq, davlat va huquq nazariyasi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, oila huquqi, ekologiya huquqi, ma'muriy

huquq, jinoyat huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi, jinoyat-protsessual huquqi, xalqaro huquq va boshqa fanlar bo'yicha bilimlar shakllanadi.

1. 2. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari rahbar xodimlari uchun ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursini o'rganishning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining hozirgi rivojlanish bosqichlari inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilish tizimining doimiy ravishda takomillashtirib borishini taqozo etadi.

Mustaqillik yillari inson huquqlari g'oyasi jamoatchilik ongidan mustahkam o'rin oldi. Bu yillar mamlakatda amalga oshirilgan umumiy demokratik jarayonlar bilan qonuniy bog'langan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida insonparvarlik sohasida jahon hamjamiyatining asosiy standartlari (andozalari)ni qabul qildi. Inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish bo'yicha ko'plab majburiyatlarni oldi. Bu huquqlarning tabiiy va ajralmas ekanligi, insonga tug'ilganidan mansubligi-yu, barchaga, avvalo, davlat hokimiyatiga birdek amal qilishi, ularning hech bir to'sqinliksiz amalga oshirilishining kafolatlanishi shartligiga amal qildi. O'zbekiston huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshira turib, inson huquq va erkinliklarini xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari, prinsiplariga muvofiq milliy tizimda bosqichma-bosqich shakllantirdi.

O'zbekiston ichki va tashqi siyosat sohasida yangilanish va taraqqiyotning o'z mustaqil yo'lini tanladi. Mamlakat universal xalqaro tashkilotlarga, shuningdek yetakchi mintaqaviy xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi va ular faoliyatida faol qatnashdi. Ular ichida BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari asosiy hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston inson huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. Mustaqillik davrida O'zbekiston siyosatida inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi asosiy prinsiplar shakllandi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, milliy manfaatlardan kelib chiqib, inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

ikkinchidan, inson huquqlarini himoya qilishda milliy manfaatlarning ustuvorligi;

uchinchidan, demokratik islohotlarni amalga oshirishning tadrijiyligi va bosqichma-bosqichligi;

to'rtinchidan, o'z xalqaro majburiyatlari bilan umum e'tirof etilgan demokratiya va inson huquqlari prinsiplariga sodiqlik.

Ushbu prinsiplarga asoslanib, mamlakatda xalqaro standartlarni inson huquq va erkinliklariga joriy etish amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish tizimi va mexanizmlarini rivojlantirish asosiy masala – inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga og'ishmay rioya qilish va demokratik huquqiy davlat qurish maqsadida amalga oshiriladi.

Mustaqillik yillari mamlakat parlamenti tomonidan inson huquqlarini himoya qilish sohasiga taalluqli 16 ta kodeks va 800 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Asosiy qonunchilik hujjatlaridan quyidagilarni alohida qayd etish mumkin: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»; «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»; «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»; «Siyosiy partiyalar to'g'risida»; «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»; «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»; «Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida»; «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»; «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»; «Ayollarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida»; «Huquq va erkinliklarni buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»; «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»; «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»; «Advokatura to'g'risida»; «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda inson huquqlariga oid qonunchilikning amaliy tizimi mavjud. Ularga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi qonunlar kiradi.

Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilikning negizi – mamlakati-mizda inson va fuqaro huquq va erkinliklarining yuridik kafolati bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar ijrosi yuzasidan o'z vaqtida hisobot beradi. O'zbekiston 1998-yildan boshlab, BMTning tegishli qo'mitasiga muntazam ravishda milliy ma'ruzalar jo'natib turadi. Mustaqillik yillarida konvensiya va paktlarning bajarilishi to'g'risida 20 dan ortiq milliy ma'ruzalar tayyorlab, jo'natildi.

Mamlakatda qonunchilik asoslari yaratilishi bilan, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini institutsional rasmiylashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda davlat asosiy tashabbuskor bo'ldi. BMTning inson huquqlari bo'yicha Ikkinchi jahon konferensiyasining (Vena, 1993-y.) har bir mamlakatda inson huquqlari institutini tashkil qilish bo'yicha chaqirig'iga javoban, O'zbekistonda quyidagi demokratik institutlar tashkil etildi:

- Konstitutsiyaviy sud;
- Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman);
- O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoringi instituti;
- Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bo'yicha qo'mitasi.

O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning davlat tizimidan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi nodavlat tashkilotlarning rivojlanishiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, Sudyalar assotsiatsiyasi va Advokatlar palatasi, Mustaqil nomzodlarni qo'llab-quvvatlash markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi va boshq. Mamlakatimizda hammasi bo'lib 7000 dan ortiq nodavlat tashkilotlar ro'yxatga olingan.

O'zbekistondagi milliy institutlar va nodavlat tashkilotlar turli xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan uzviy hamkorlikda axborot-ma'rifiy faoliyat bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdalar. O'zbekistonda har yili inson huquqlari sohasidagi dolzarb muammolar va ushbu sohadagi asosiy xalqaro standartlar bo'yicha 50 dan ortiq seminar-treninglar, o'quv kurslari, konferensiyalar, davra suhbatlari tashkil qilib kelinmoqda.

Mamlakatimizning barcha maktablari va oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti kafedrasini tomonidan Inson huquqlari umumiy nazariyasi fani o'qitilib kelinmoqda. Ushbu kafedra qoshida 2011-yilda Inson huquqlari bo'yicha resurs markazi ochildi va bu yerda tinglovchilar, kursantlar va xodimlar o'rtasida inson huquqlariga oid bilimlarni targ'ib qilish borasida keng miqyosdagi ishlar olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi saytida Resurs markaziga bag'ishlangan alohida sahifa ajratilgan.

Bundan tashqari, davlat institutlari axborot-ma'rifiy sohada ilmiy-noshirlik ishlarini amalga oshiradilar. O'zbekistonning inson huquqlari muammolari bilan shug'ullanuvchi barcha vazirlik va idoralari o'z xususiy bosma nashrlariga ega bo'lib, ularning sahifalarida bu masalaga ustuvor ahamiyat beradilar. Hammasi bo'lib 20 dan ortiq ixtisoslashgan yuridik gazeta va 5 ta jurnalda inson huquqlari bo'yicha muammolar yoritib boriladi. Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz tomonidan o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladigan «Demokratlashtirish va inson huquqlari», «Ijtimoiy fikr». «Inson huquqlari» jurnallari yetakchi nashrlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillar davomida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ayollar va bolalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, 1997-yilning O‘zbekiston Respublikasida «Inson manfaatlarini yili»; 1998 – «Oila yili»; 1999 – «Ayollar yili»; 2000 – «Sog‘lom avlod yili»; 2001 – «Onalar va bolalar yili»; 2002 – «Qariyalarni qadrlash yili»; 2003 – «Obod mahalla yili»; 2004 – «Mehr-muruvvat yili»; 2005 – «Sihat-salomatlik yili»; 2006 – «Homiylar va shifokorlar yili»; 2007 – «Ijtimoiy himoya yili»; 2008 – «Yoshlar yili»; 2009 – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili»; 2010 – «Barkamol avlod yili»; 2011 – «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik»; 2012 – «Oila yili»; 2013 – «Obod turmush yili»; 2014 – «Sog‘lom bola yil»; 2015 – «Keksalarni e‘zozlash yili»; 2016 – «Sog‘lom ona va bola yili» va 2017 – «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» deb atalishi ham shundan dalolat beradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikamizning nodavlat tashkilotlari faoliyatida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatda ro‘yxatga olingan nodavlat tashkilotlarning yarmidan ortig‘i xotin-qizlarga tegishli yoki ayollar tomonidan boshqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlarni o‘rganish va amalga qo‘llash borasida davlat faoliyatining yo‘nalishlari va shakllarini to‘g‘ri belgilab olgan. Xalqaro konvensiyalar bir qancha zarur vazifalarni bajarib, davlat tomonidan inson huquq va erkinliklari qanday asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha kafolatlanganligini aniqlaydi. Ularga quyidagilar kiradi: maslahat funksiyasi – inson huquqlarini ta‘minlash qoida va standartlari; tuzatish kiritish funksiyasi – inson huquqlarini amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish; preventiv funktsiya – inson huquqlari buzilishining oldini olish; nazorat funksiyasi – davlatning inson huquqlariga rioya qilishga doir ma‘ruza va hisobotlarini, inson huquqlarining buzilishiga oid murojaatlarni ko‘rib chiqish; davlatga yordam ko‘rsatish funksiyasi – moddiy, huquqiy, metodik, texnik va boshq.

O‘zbekiston Respublikasi uchun inson huquqlari bo‘yicha majburiy asosiy xalqaro hujjatlarning ahamiyatiga oid masalaning tahlili inson huquqlarini himoya qilishning samarali tizimini yaratishga yordam berganligini ko‘rsatdi:

birinchidan, xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga bosqichma-bosqich implementatsiya qilishning o‘ziga xos modeli yaratildi¹;

¹ Масалан, ўлим жазосини бекор қилиш тўғрисида халқаро стандартлар ва 2008 йили «Хабмас корпус» институти киритилгач, жамият, суд-ҳуқуқ тизими, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва бутун аҳоли бу ўзгаришларга уч йил тайёргарлик кўрди.

ikkinchidan, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi, parlament monitoringi hamda huquq va erkinliklarga daxldor ijro hokimiyati organlari ustidan nazoratni ham o‘z ichiga olgan xalqaro norma va prinsiplarning bajarilish monitoringining milliy tizimi shakllantirildi;

uchinchidan, xalqaro standartlar va talablarga asoslangan holda, qonunchilik, ijroiya hokimiyat va sud organlari tomonidan inson huquq va erkinliklariga rioya qilishga ko‘maklashadigan qo‘shimcha milliy institutlar tashkil qilindi;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturada o‘zining hududiy tarkibiy bo‘linmalariga ega inson huquqlari bo‘yicha maxsus boshqarmalar ishlab turibdi;

beshinchidan, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim o‘quv muassasalarining talabalari, tegishli institutlar, markazlar, malaka oshirish kurslarida inson huquqlari sohasida o‘z bilim darajasini oshirayotgan davlat xizmatchilari, huquqni muhofaza qilish va sud tizimi xodimlari, pedagogika, tibbiyot va ijtimoiy soha xodimlarini qamrab olgan ta‘lim tizimi shakllantirildi;

oltinchidan, O‘zbekistonda 1997-yildan boshlab, har yili inson huquqlarining muhim siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlarini hal qilishga bag‘ishlangan amaliyot kiritildi. Masalan, agar 1997-yili inson huquq va manfaatlariga bag‘ishlangan bo‘lsa, 1999-yil ayollar huquqlariga, onalik va bolalikni muhofaza qilishga, 2005-yil sog‘liqni saqlash, 2006-yil xayriya va tibbiyot xodimlariga, 2007-yil aholini ijtimoiy himoya qilishga, 2010-yil barkamol avlodni himoya qilishga va 2011-yil kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlandi;

yettinchidan, O‘zbekistonning BMT oldida turli toifadagi fuqarolarning huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarganligi to‘g‘risidagi milliy ma‘ruza tayyorlashi va jo‘natishida ifodalanadigan xalqaro talablarga javob beradigan hisobot berish tizimi shakllandi.

O‘zbekiston umum e‘tirof etilgan xalqaro hujjatlarning qoidalarini bajarish bilan o‘zining siyosiy, iqtisodiy va sud-huquq tizimini yanada rivojlantirishi, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashga har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratishi lozim.

Shunday qilib, O‘zbekistonning inson huquqlari to‘g‘risidagi ko‘plab xalqaro hujjatlarga qo‘shilishi shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan normalarida mustahkamlangan inson huquqlarini hurmat qilish, ularga rioya etish va himoya qilishga intilish, shuningdek insoniyatning ushbu sohada to‘plagan tajribalaridan foydalanish, inson huquqlarini ta‘minlashning optimal

mexanizmlarini yaratish borasidagi muammolarga jiddiy munosabatidan darak beradi.

Inson huquqlari hozirgi sivilizatsiyaning hal qiluvchi qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Unga yagona ta'rif berish qiyin, chunki u nafaqat huquqiy, balki falsafiy, siyosiy va axloqiy tushunchadir.

Inson huquqlarining muhim ahamiyati, avvalo, uning individga xos xislatligida ko'rinib, jamiyat va davlatda uning salohiyati va erkinligining mezonidir hamda o'rnatiladigan ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan belgilanadi. **Inson huquqlari** – asosiy moddiy va ma'naviy ne'matlarga erishish, o'z qobiliyat va iqtidorini ro'yobga chiqarish vositasidir.

Inson huquqlarida eng muhim umumbashariy qadriyatlar o'z aksini topgan. Ulardan har bir inson kimligi va qayerda yashashi (jinsi, irqi, millati va boshqa hokazo)dan qat'i nazar, foydalanishi lozim. Ushbu tushuncha huquq ustuvorligi, qonunning samaradorligi, adolat, bag'rikenglik, plyuralizm kabi umuminsoniy qadriyatlarni o'z ichiga olgan.

Inson huquqlari umumbashariy bo'lib, har bir insonga tegishli hisoblanadi (xalqaro hamjamiyat barcha insonlarni teng huquqli deb tan oladi), ular bo'linmas, o'zaro bog'liq va o'xshashdir. Ularning kuchi nafaqat huquqiy normalarda aks etishida, balki universal axloqiy norma va qonunchilikning axloqiy asosi ekanligidadir.

Umuman olganda, fuqarolarining shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlari inson va jamiyat, individ va davlat o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. O'z mohiyatiga ko'ra, ular fuqaro va davlat munosabatida milliy va xalqaro huquqiy tizimlar prinsiplari hamda normalari bilan qayd etiladigan munosabatlarni o'rnatuvchi shartnoma munosabatlarining asosidir. Bundan tashqari, ular davlatda fuqaro (shaxs)ning maqomini belgilab, individga o'z irodasiga muvofiq harakat qilish imkonini yaratishni, muayyan manfaatlarga ega bo'lishni yoki xalqaro tashkilotlar va davlat tomonidan himoya etilishini belgilab beradi.

Insoniyat umumbashariy deya anglagan barcha qadriyatlar orasida inson huquq va erkinliklari eng oldinda turadi. Taraqqiyot jarayonida ikki yarim ming yil davomida anglangan, shakllantirilgan inson huquqlari hozirgi tushuncha va shaklga ega bo'ldi. Bu tushunchalar bugungi sivilizatsiyaning asosiy qadriyatlari sifatida kelajakda ham xalqaro munosabatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib qolaveradi.

Inson huquqlarining falsafiy tushuncha sifatidagi ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u asosiy omili inson bo'lgan gumanizm prinsiplariga asoslangan dunyo qurilishi, dunyoqarash haqida tasavvur hosil qiladi. Demakki, uning huquq va erkinliklari insonning jamiyatdagi o'rni va roli haqidagi

falsafiy qarashlardan kelib chiqadi. Inson huquqlarini jamiyatdagi munosabatlarning asosi bo'lgan insoniy qadriyatlar tizimi deb qarash ham adolatli. Shuningdek, inson huquqlariga ijtimoiy regulatorlar tizimi, deb qarash ham to'g'ridir. «Inson huquqlari» – huquqiy tushuncha bo'lib, shaxsning davlat hokimiyati bilan o'zaro munosabatlardagi o'rnini huquqiy norma-larga asoslanib belgilab beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari davlat vakili sifatida o'z xizmat vazifasini bajarish chog'ida, ya'ni jamoat tartibini saqlashda ba'zan inson huquqlarini cheklashga majbur bo'ladilar. Shu munosabat bilan, ichki ishlar organlari xodimlari uchun «ozodlik» va «inson huquq va erkinlik-lari» tushunchalarini farqlay olish juda muhimdir. Birinchi holatda «ozodlik» keng falsafiy ma'noda tushunilib, insonga xos, o'z xohish-irodasiga muvofiq harakat qilish imkoni sifatida tushuniladi. Ozodlik shaxs va jamiyatning shakllanishi va rivojlanishining eng muhim sharti hisoblanadi. Ozodlik insonga o'z imkoniyatlarini amalga oshirish, jamiyat muvaffa-qiyatlariga o'z hissasini qo'shish imkonini beradi.

«Inson erkinligi» – sof konstitutsiyaviy-huquqiy tushuncha bo'lib, muayyan individning qonun doirasida obyektiv va subyektiv huquqlariga teng kuchlidir.

Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari xodimlari inson huquqlari orasida o'rnatilgan xalqaro standartlar, milliy qonunchilikda nazarda tutilgan me'yorlar doirasida ish tutishlari, qonunga rioya etishlari lozim. Shu bilan bog'liq inson huquqlarining ichki ishlar organlari xodim-lari uchun ahamiyatini belgilab beruvchi omillar to'g'risidagi bilimga ega bo'lishi zarurati paydo bo'ladi.

Inson huquqlarini ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan o'rga-nish zarurati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

birinchidan, inson huquqlari madaniyati IIO xodimlari kasb mahoratining tarkibiy qismi hisoblanadi;

ikkinchidan, BMT hujjatlariga ko'ra, IIO xodimlari inson huquqlarini o'rganishi majburiy bo'lgan davlat xizmatchilari sirasiga kiradi;

uchinchidan, IIO xodimlari tomonidan huquqni amalda qo'llash faoliyati ularning huquqiy ongini doimo oshirib borishni talab qiladi, inson huquqlari haqidagi bilimlar bu jarayonning tarkibiy qismidir;

to'rtinchidan, IIO xodimlarining barcha faoliyat turlari (jinoyatchi-likka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash, tezkor qidiruv faoliyati) inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga rioya qilishni talab qiladi;

beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi bajarilishi davlat uchun majburiy bo'lgan inson huquqlari borasidagi barcha asosiy shartnomalarni ratifikatsiya qilgan;

oltinchidan, inson huquqlari bo'yicha barcha xalqaro shartnomalarning qoidalari IIO xodimlari kasbiy faoliyatiga bevosita bog'liqdir.

1.3. Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursining metodlari, tizimi va boshqa fanlar bilan aloqasi

Zamonaviy dunyoning taraqqiyoti inson huquqlari muammolarining yechimini o'zida uyg'un ravishda mujassam etadi. Ularning yuksak qadriyatini tan olish va ularga amal qilish davlatlarning ichki ishlari demokratizmining ramziga aylanib qoldi va bu, o'z navbatida, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning zamonaviyligini anglatadi. Bu hol qonuniy va tushunarlidir. Inson huquqlari o'zida sayyoramizning global muammolarini, ya'ni yadroviy xavf va ekologik yo'q bo'lib ketish kabilarni ham aks ettiradi. Bu tushunchalar umumbashariy «ezgulik», «odillik», «ozodlik», «tenglik», «demokratizm», «mehrbonlik» tushunchalarini aks ettirib, shaxsning davlat bilan munosabatlarida ustuvor o'rinni egallaydi.

Huquqiy davlat – inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar bo'yicha yashovchi, tegishli qonunlar, samarali davlat tizimi hamda inson huquq va erkinliklari haqida aniq ma'lumotga, eng muhimi, shu huquqlarga ehtiyoj sezadigan fuqarolarga ega davlatdir. Davlat, unda inson huquqlari qanchalik darajada tan olinishi, amal qilinishi va himoya etilishiga qarab, shunchalik huquqiy deb baholanishi mumkin.

Bu jihatdan inson huquqlari sohasidagi bilimlar katta ahamiyatga ega. Ushbu kursni o'qitish fanning ilmiy metodlariga asoslangan bo'lishi kerak. Shu sababdan asoslarni bilish va obyektiv bilim olishning sharti bo'lgan metodlarni to'g'ri qo'llash muhimdir. O'z navbatida, umumiy va xususiy metodlar ajratiladi. Umumiy metodlar asosida tabiat, fikrlash va jamiyatning umumiy rivojlanishiga doir qonuniyatlar yotadi. Inson huquq va erkinliklari masalalarini o'rganishda esa xususiy metodlar ham qo'llaniladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *tizimli metod*, bunda inson huquq va erkinliklari masalalarini o'rganish bir-biriga bog'liq shaxsiy huquq va erkinliklardan iborat butun bir tizim sifatida quriladi;

2) *tarixiy metod*, bunda inson huquqlari tarixiy rivojlanish orqali o'rganib chiqiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tarixiylik bu doimiy rivojlanishda bo'lgan hodisaga baho berishdir;

3) *qiyosiy metod*, tushuncha va hodisalarning umumiy va farqli jihatlari aniqlashdir;

4) *sotsiologik metod*, bu ma'lumot to'plash va tahlil qilish metodidir. Bunday metodda turli so'rovnoma (ommaviy so'rovnoma, intervyu,

ekspert so'rovnomasi va boshq.) o'tkaziladi. Olingan ma'lumotni tahlil qilish statistik guruhlardan foydalanish, indekslash va boshqalar;

5) *mantiqiy metod* – inson huquq va erkinliklari masalasini mantiqiy tahlil qilishga qaratilgandir. Ular fanning har qanday sohasi uchun zarur bo'lgan shakllarda bayon etiladi va inson huquqlarini o'rganishga ham taalluqlidir.

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, boshqa metodlardan ham foydalaniladi. Ko'rsatilgan metodlar aynan inson huquq va erkinliklari nazariyasini o'rganishda keng qo'llanadi.

Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish kursning predmet va vazifalariga, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari uchun inson huquqlarining ahamiyatini belgilab beruvchi omillar, kursning metodlari, tizimi va ahamiyati kabi masalalar kiradi. Unda inson huquqlari nazariyasining rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqishga qaratilgan hozirgi zamon inson huquqlari konsepsiyasining tarixiy ildizlari, inson huquqlari va shaxsning huquqiy holati va mazmuni, inson huquqlari sohasidagi standartlar va ularning tizimi O'zbekiston qonunchiligida o'z aksini qanday topganligi keng o'rin olgan.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, ularning tasnifi, tushunchasi va o'ziga xos jihatlari, shuningdek O'zbekistonda yaratilgan inson huquqlari kafolatlarining mexanizmiga e'tibor qaratilgan. Buning mantiqiy davomi sifatida inson huquqlarining xalqaro himoya kafolatlari mexanizmi, jumladan, BMT va boshqa xalqaro mintaqaviy tashkilotlarning inson huquqlari himoyasi tizimi o'rganiladi.

O'rganilayotgan kursda inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarda huquqni himoya qiluvchi organlarga ajratilgan o'rin alohida ahamiyatga egadir. Huquqni himoya qiluvchi organlar faoliyatiga doir umumiy xalqaro hujjatlar, jamoat tartibini saqlashda mansabdor shaxslarga yuklatilgan yuridik qoidalarning kuchi, O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorligi, Qiynoqqa qarshi konvensiyaning ichki ishlar xodimlari faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga doir masalalar ham batafsil qo'rib chiqiladi.

Inson huquqlari ko'p qirrali masala sifatida ijtimoiy fanlar tomonidan o'rganiladi. Chunki inson o'z faoliyatining turli qirralari bo'yicha ijtimoiy fanlarning tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursi ijtimoiy fanlar orasida alohida o'ringa ega va o'z mohiyatiga ko'ra yuridik fan hisoblanadi, chunki

u individning davlat va turli tashkilotlar, jumladan xalqaro tashkilotlar bilan huquqiy munosabatini o'rganadi. U inson huquqlariga tegishli turli huquq sohalari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Bundan tashqari, bu fan falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, iqtisod va boshqa fanlar tizimiga ham kiradi.

Inson huquqlari va yuridik fanlar. Huquqshunoslik inson huquqlarini amalga oshirishning yuridik jihatlarini tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, yuridik fanlar insonni u davlat-huquqiy munosabatlarga, turli ijtimoiy aloqalarga kirishganda o'rganadi. Ularga moddiy va protsessual huquqlarni kiritish mumkin.

Inson huquqlari va falsafa. Falsafa – tabiat, ong va jamiyatning umumiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fandır. U ong va borliqning umumiy prinsiplari haqidagi bilimlar tizimidir. Ijtimoiy hodisalar tizimida inson huquqlarining mohiyati, qo'llanishi, tabiatini o'rganish, shubhasiz, falsafiy asoslarga ham ega.

Inson huquqlari va siyosatshunoslik. Siyosatshunoslik siyosiy jarayonlar, siyosiy birlashmalar, siyosiy va davlat hokimiyatiga erishishning yo'llari, shaxs, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Siyosatshunoslik inson huquq va erkinliklari masalasini siyosiy munosabatlar orqali o'rganadi.

Inson huquqlari va sotsiologiya. Sotsiologiya – global (butun jamiyat) va xususiy ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi, ish yuritishiga doir qonuniyatlarni o'rganuvchi fandır. Sotsiologiya turli ijtimoiy hodisalarning o'zaro bog'liqligi va insonlar ijtimoiy xatti-harakatining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Inson huquq va erkinliklari ham sotsiologiyaning obyekti hisoblanadi.

Inson huquqlari va iqtisodiy fanlar. Iqtisodiy fanlar ishlab chiqarish munosabatlari, xo'jalik hayotini tashkil etish, xo'jalik sohalari, mehnat muammolari, moliya va boshqalarni o'rganadi. Iqtisod va inson huquqlari to'g'risidagi fanning yaqin munosabati inson huquqlari va iqtisod o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.

Inson huquqlari muammosi boshqa fan sohalari tomonidan ham o'rganiladi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, «inson huquqlari» universal fan bo'lib, «umum e'tirof etilgan inson huquqlari» nafaqat axloqiy, balki siyosiy va yuridik tushunchadir.

2-Mavzu. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO BILL

2.1. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro Billning yuridik mazmuni va huquqiy tavsifi

Hozirgi zamonda inson huquqlari muhim o‘rin tutadi. Har qanday rivojlangan demokratik jamiyat qurishda ularning qimmati juda yuqori. Huquqiy davlat qurilishidagi asosiy shartlardan biri bu jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish hamda himoya qilish hisoblanadi.

1948-yilning 10-dekabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan tarixiy ahamiyatga ega muhim hujjat – «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» e‘lon qilindi. Uning matni insoniyat oilasining hamma a‘zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligidan iborat insonparvarona iboralar bilan boshlanadi.

Deklaratsiya rasman yuridik majburiy hujjat hisoblanmasa-da, ammo aksariyat ko‘pchilik davlatlar tomonidan umum e‘tirof etilganligi bois, u hozirgi kunda tom ma‘noda shunday hujjatga aylandi. Keyinchalik BMT boshchiligida inson huquqlariga bag‘ishlangan o‘nlab hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt» (unga tegishli 1966-yildagi fakultativ protokolni ham qo‘shib) hamda «Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt» alohida ahamiyatiga ko‘ra ajralib turadi. Shartnomalar sifatidagi bu xalqaro hujjatlar ishtirokchi tomonlar uchun majburiy yuridik kuchga ega bo‘lib, ularning har biri rasmiy ravishda mazkur hujjatlarning qoidalariga rioya qilishga rozi bo‘ladi.

Yuqorida zikr etilgan deklaratsiya va paktlar bir nom bilan Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro Bill deb ataladi. U ijtimoiy turmushning barcha sohalarida individning eng muhim huquq va erkinliklari ro‘yxatini o‘zida aks ettiradi va davlatlarning shaxsning huquqiy maqomini qonuniy mustahkamlashiga yo‘naltirilgan umumiy demokratik andoza sifatida xizmat qiladi.

Unda yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, qiynoq hamda boshqa shafqatsiz muomala va jazo turlaridan ozod bo‘lish, sud orqali himoyalani sh, erkin harakatlanish va yashash joyini tanlash erkinligi, turar joy daxlsizligi, so‘z erkinligi, vijdon va din erkinligi, tinch yig‘ilishlar erkinligi, mulkka egalik qilish huquqi, mehnat, dam olish, ijtimoiy ta‘minot, bilim olish va boshqa shu kabi huquqlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Aytish joizki, «inson huquqlari» va «inson erkinligi» tushunchalarining qo‘llanishi ular o‘rtasida qat’iy farq borligini bildirmaydi. Insonning shaxsiy va siyosiy turmush sohasidagi ayrim qonuniy huquqlari davlatning asossiz aralashuvidan himoyalani sh maqsadida tarixan erkinlik sifatida shakllangan.

Endilikda dunyodagi aksariyat mamlakatlarning konstitutsiyaviy qonunchiligida inson huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro hujjatlarga moslangan insonning asosiy huquq va erkinliklari ro'yxati joy olgan. Ular davlatlar tomonidan yuridik mustahkamlangan boshqa huquqlar bilan birgalikda u yoki bu mamlakat inson va fuqarolarining huquq va erkinliklari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunda muayyan tarixiy va milliy xususiyatlar, iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tuzilish, axloqiy an'ana kabilar hisobga olinadi. Bunda «inson huquqlari» va «fuqaro huquqlari» tushunchalarining asoslantirilgan mutanosibliyi yotadi.

«Inson huquqlari» va «fuqaro huquqlari» hozirgi tushunchada u yoki bu mamlakatning qonunlarida mustahkamlanganligi, shaxsning fuqaroligidan qat'i nazar, umumijtimoiy, falsafiy, axloqiy, tabiiy ravishda vujudga keluvchi va ajralmas qat'iy yuridik mezon sifatida e'tirof etiladi. Fuqaro huquqlari faqat muayyan davlatning normativ hujjatlari asosida o'rnatiladi va bir vaqtning o'zida uning muayyan fuqarolik majburiyatlari ham belgilab qo'yiladi.

Yaqin o'tmishda inson huquqlari faqat ichki davlat organlari doirasida tartibga solingan. Har bir davlat o'z yurisdiksiyasida bo'lgan fuqaro va shaxslarning huquq va erkinliklari hajmini faqat o'zi hal qilish huquqiga ega deb hisoblar edi. Hattoki, BMT tashkil qilingan ilk kunlarda ham davlat ichki organlari bu sohada asosiy manbalar hisoblanar edi.

Huquqni, ayniqsa, inson huquqlarini u yoki bu jamiyatda hukmronlik qilayotgan mafkura, siyosat va axloqiy madaniyatdan ajratib o'rganish mumkin emas. Shuning uchun har bir davlat inson huquqlari masalasini mazkur sohada yuqorida keltirilgan asosda tartibga solgan hamda xalqaro organlar, jumladan, BMTning inson huquqlari sohasidagi umumiy standartlarni ishlab chiqish bo'yicha barcha urinishlarini o'z ichki ishiga aralashish deb hisoblagan.

Bir qator mamlakatlar o'zlarining rasmiy bayonotlarida BMT Ustaviga asosan, muayyan inson huquqlariga irqiy, jinsiy, til va diniy kamsitishlarsiz rioya qilinishini ta'minlashda davlat yurisdiksiyasini rad qildilar.

Boshqa bir guruh davlatlar esa, BMT Ustavining yuridik majburiyatini tan olgan holda, «davlat suvereniteti» tushunchasini mutlaqlashtirib, inson huquqlari sohasi davlatning butunlay ichki vakolati deb hisoblashlarini bildirishgandi¹.

Xalqaro huquqshunoslarning aksariyati o'z davlatlari mafkurasini aks ettirgan holda, inson huquqlari va erkinliklarini tartibga solish xalqaro hamjamiyatning ishi emas, balki davlatning mutlaq ichki ishi, deb hisoblar edi.

¹ Масалан, собиқ Совет иттифоқи мазкур масалада мақбул бўлмаган позицияда турган, бу эса 1948 йили БМТ Бош Ассамблеясида «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси»ни қабул қилишда бетараф бўлишининг асосий сабабларидан бири эди.

Bo‘lib o‘tgan jahon urushi, o‘nlab mintaqaviy va mahalliy urushlar, yadro urushi xavfi, atrof-muhit muammosi va boshqa global muammolarning yechimlarini topish davlatlar sa’y-harakatlarini birlashtirish uchun katta-kichik urinishlarning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Natijada esa, inson huquqlari ham ichki huquq ham xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan bo‘ldi. Buning dalili sifatida inson huquqlari va erkinliklarini tartibga soluvchi asosiy xalqaro prinsiplar aniqlashtirildi va rivojlantirildi. Mazkur sohada davlatlar o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan nazorat mexanizmlari tashkil qilingandi.

Inson huquqlari sohasida xalqaro huquq rolining oshishiga asosiy sabablardan biri «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlar va mazkur sohada boshqa xalqaro konvensiyalarning qabul qilinishidir.

Xalqaro huquqshunoslarning aksariyat ko‘pchiligi «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ni fuqarolarning asosiy fuqarolik va siyosiy huquqlarini e‘lon qiluvchi oddiy hujjat deb hisoblab, uning roli va ahamiyati haqida uzoq bahslashdilar. «Hayot» deklaratsiyaning qabul qilinishi quruq ishora, shama emas, balki unda belgilangan huquqlar xalqaro hamjamiyatning inson huquqlari sohasida muhim xalqaro bitimlarni qabul qilishda mustahkam xalqaro huquqiy negizi, xatti-harakat kodeksi bo‘lib xizmat qilganligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotlardan birida ta’kidlanganidek, «1948-yildan so‘ng qabul qilingan 90 dan ortiq milliy konstitutsiyalar o‘zida deklaratsiya qoidalarini aks ettiradi va mazkur qoidalar uning ta’siri ostida kiritilgan»¹.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» inson huquqlari bo‘yicha boshqa kelishuvlarning qabul qilinishiga keng yo‘l ochib berdi. Ushbu kelishuvlar ichida markaziy o‘rinni inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlar egallaydi. Ularning qabul qilinishi natijasida inson huquqlari sohasida prinsip va qoidalarni ishlab chiqish va qabul qilish yanada sifatli bosqichga ko‘tarildi. Insoniyat tarixida birinchi marta deyarli bir paytda paktlarni imzolagan barcha davlatlar uchun majburiy bo‘lgan inson fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlarini ulkan miqyosida tartibga soluvchi ikkita xalqaro hujjat qabul qilindi.

Mustaqilligini da’vo qilayotgan xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi ushbu paktlar bilan tan olingandan so‘ng, bu hujjatlar ruhan ezilgan xalqlarning mustaqillik uchun kurashdagi kuchli quroliga aylandi. Milliy ozodlik harakatlari ta’sirida xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi

¹Қаранг: *Jayawic Kazama N. Hong Kong and the international protection of human Rights//Human Rights in Hong Kong, 1992. – P. 160.*

to'g'risidagi moddaning kiritilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan eski xalqaro huquqda fundamental o'zgarish yasash, jahon xalqlari va millatlari o'rtasidagi munosabatlarning teng ta'minlanishiga asos bo'ldi. Bugungi kunda yashash huquqi, adolatli sudga bo'lgan huquq, mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi va boshqa qator asosiy huquqlar ko'pgina davlatlarning konstitutsiyalarida mustahkam aksini topgan.

Inson huquqlariga oid paktlarda birinchi bor individning bevosita xalqaro organlar nazorati ostida huquqlarini himoya qilish imkonini beruvchi xalqaro huquq va majburiyatlar sohibi ekanligi belgilandi.

Inson huquqlari bo'yicha paktlar ta'sirida davlatlarning shu qoidalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarining bajarilishini nazorat qiluvchi muassasalarning tashkil qilinishi muhim yutuqlardan biri bo'ldi. «Uning tashkil qilinishi va faoliyat olib borishi mazkur asrning ikkinchi yarmida inson huquqlarini xalqaro miqyosda tartibga solishda sezilarli yutuqlardan biridir»¹. Xalqaro huquqda nazorat instituti yangi hodisa bo'lib, uning tashkil topish jarayoni bir qator davlatlar tomonidan kuchli qarshilikka uchradi. Muammo shunda ediki, «nazorat» tushunchasi, ushbu nazorat obyekti hisoblanuvchi u yoki bu majburiyatning bajarilish jarayonidagi elementlarning ta'sirini o'z ichiga olardi. Boshqacha aytganda, nazorat ijro jarayonida o'zining u yoki bu darajadagi aralashuvini keltirib chiqaradi. Davlatlar xalqaro munosabatlarga kirishar ekan, o'zlarining ichki ishlaridagi suverenitetini saqlaydi, xalqaro organlarning nazorati esa ularning ichki ishiga aralashuvi, deb hisoblanardi. Biroq xalqaro munosabatlarning o'ziga xosligi va inson huquqlarining katta ahamiyati xalqaro hamjamiyatning ushbu masalada muvozanatga kelishishiga va davlatlarning mazkur sohada majburiyatlarni o'z irodasi bilan zimmasiga olishiga, xalqaro nazorat organlari esa faqat inson huquqlari sohasida davlatlarga tegishli ko'maklarni berib, maslahat berishini ta'minladi. Hozirgi sharoitda xalqaro nazorat organlarining roli oshib bormoqda. Borgan sari BMT va boshqa xalqaro konvensiyaviy organlar nazorat tashkilotlarining faoliyatidagi vakolat va vazifalarga ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, zarur paytda xalqaro munosabatlarda xalqaro huquqning prinsip va normalarini amalga oshiruvchi davlat tizimi ustidan nazorat qiluvchi organ yo'q. Shuning uchun davlatlar xalqaro nazorat mexanizmini yaratish yo'llarini nazarda tutganlar. Bunday zarurat esa insoniyat taqdiriga jiddiy xavf tug'ilganda xalqaro huquq ijodkorligini kengaytirish, xalqaro aloqalarni takomillashtirish, global muammolarning paydo bo'lishidan vujudga keladi.

¹ Қаранг: *Карташкин В. А.* Права человека в международном и внутреннем праве. – М., 1995. – С.8.

2.2. «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning huquqiy mazmuni va ahamiyati

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng, tinchlik, xavfsizlik va davlatlararo hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilgan edi. Bu tashkilot inson huquq va erkinliklarini himoya qilish uning faoliyatida muhim yo'nalish hisoblanadi.

BMTning dastlabki erishgan muhim yutuqlaridan biri Bosh Assambleya tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» bo'ldi.

Assambleya deklaratsiyani «barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim» ekanini e'lon qildi. U butun dunyodagi a'zo davlatlarni deklaratsiyada mustahkamlangan huquq va erkinliklarni hurmat qilish va ta'minlashga chaqirdi. Har yili 10-dekabr butun dunyoda deklaratsiya qabul qilingan kun munosabati bilan «Inson huquqlari kuni», deb bayram qilinadi. Deklaratsiyaning tarixiy ahamiyati shundaki, u butun dunyoda tan olingan va umumiy bo'lgan huquq va erkinliklar ro'yxatini o'zida mujassamlashtirgan birinchi xalqaro hujjatdir.

Deklaratsiyada quyidagi umum e'tirof etilgan inson huquqlarining to'liq ro'yxati keltirib o'tilgan:

Shaxsiy huquq va erkinliklar:

- yashashga bo'lgan huquq, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi (3-m.);
- qullikning taqiqlanishi (4-m.);
- qiynoqlarning taqiqlanishi, inson qadr-qimmatini kamsituvchi yoki noinsoniy muomala va jazolashlarning taqiqlanishi (5-m.);
- har bir insonning huquqiy subyekt bo'la olishining tan olinishi (6-m.);
- asosiy huquqlarning buzilishiga sabab bo'ladigan harakatlarga qarshi sud himoyasiga bo'lgan huquq (7-m.);
- huquqlarning sud tomonidan samarali tiklanishiga bo'lgan huquq (8-modda);
- o'zboshimchalik bilan qamoqqa olish, ushlab turish yoki surgun qilishdan himoya qilish kafolati (9-m.);
- mustaqil va betaraf sudga bo'lgan huquq (10-m.);
- aybsizlik prezumpsiyasi, qonunning orqaga qaytish kuchining yo'qligi (11-m.).

Insonning uni o'rab turgan guruh va tashqi dunyo bilan munosabatlari doirasidagi huquqlari:

- shaxsiy hayotga bo'lgan huquq (12-m.);
- erkin ko'chib yurishga va yashash joyini erkin tanlashga bo'lgan huquq (13-modda);

- boshpanaga huquqi (14-m.);
- fuqarolik huquqi (15-m.);
- nikoh munosabatlarida erkak va ayolning teng huquqliligi. Oilaning jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishiga bo‘lgan huquq (16-m.); .).
- mulkka individual va o‘zaro egalik qilish huquqi (17-m)

Diniy erkinliklar, fuqarolik va siyosiy huquqlar:

- fikr, vijdon va din erkinligi (18-m.);
- e’tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash. Ma’lumotlarga erkin ega bo‘lish (19-m.);
- tinch yig‘ilishlar va assotsiatsiyalar tuzish erkinligi (20-m.);
- o‘z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqi; muayyan muddatlarda o‘tkaziladigan saylovlarda ishtirok etish huquqi (21-m.).

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqlar:

- ijtimoiy ta’minotga va munosib hayot darajasiga bo‘lgan huquq (22-m.);
- mehnat qilish huquqi; ish tanlash erkinligi; teng mehnat uchun teng haq olish;
- kasaba uyushmalariga nisbatan erkinlik (23-m.);
- dam olish va bo‘sh vaqtga bo‘lgan huquq (24-m.);
- farovonlikka va sog‘liqni saqlashga bo‘lgan huquq (ozuq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, tibbiy muolaja, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish);
- onalik va bolalikni ijtimoiy himoyalash huquqi (25-m.);
- ta’lim olishga bo‘lgan huquq (26-m.);
- madaniy va ilmiy hayotda ishtirok etish, shuningdek, mualliflarning ma’naviy va moddiy manfaatlarini himoyalashga bo‘lgan huquqi (27-m.).

Shuni ta’kidlash joizki, deklaratsiyaning uchta moddasi BMT prinsiplari va shaxsning jamiyatga nisbatan majburiyatlariga bag‘ishlangan:

- har bir shaxsning ijtimoiy va xalqaro tartibga bo‘lgan huquqi. Bunda deklaratsiyada mustahkamlangan huquq va erkinliklar to‘liq amalga oshirilishi mumkin (28-m.);
- jamiyat oldidagi majburiyatlar; boshqalarning huquq va erkinliklarini tan olish. Bu huquq va manfaatlarni BMT maqsadlariga muvofiq amalga oshirish (29-m.);
- deklaratsiyada mustahkamlangan huquq va erkinliklarni yo‘q qilishga qaratilgan xatti-harakatlarni oqlash uchun sharhlanishi mumkin emas.

Deklaratsiya 29-moddasining 1-bandida shaxsning majburiyatlari «Har bir shaxs jamiyat oldida majburiyatlarga ega» deb aniq o‘rnatilgan. Aynan, ushbu bandeda shaxs faqat jamiyatdagina erkin va to‘liq rivojlana olishi to‘g‘risidagi qoida asoslantirilgan. Deklaratsiyaning bu qoidasi ma’naviy mohiyat kasb etadi. Chunki, unga ko‘ra, shaxs yashayotgan jamiyatda

umumiy yurish-turish qoidalarini o‘rnatadi. Deklaratsiya 29-moddasining 1-bandi murosa mazmuniga egaligi sababli, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda bir ovozdan qabul qilingan.

Ta’kidlash o‘rinliki, «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da shaxsning davlatga nisbatan majburiyatlari va burchlari batafsil ko‘rsatilmagan. Shunga ko‘ra, davlatni shaxsdan qat’iy qo‘riqlash zarurati mavjud emas.

Shaxsning jamiyat oldidagi majburiyatlarini belgilovchi xalqaro normalar «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 29 va 30-moddalarida mustahkamlangan. Darhaqiqat, ushbu ikkita modda qoidalari *birinchidan* «inson huquqlari va asosiy erkinliklari», *ikkinchidan*, «inson majburiyatlari» tushunchalariga aniqlik kiritadi. Agar 29-modda 1-bandida «shaxs huquqlari» tushunchasi berilgan bo‘lsa, 30-moddada uni sharhlashni belgilovchi universal qo‘llaniladigan norma mavjud. Shunday qilib, shaxsning barcha majburiyatlari va undan kelib chiquvchi muammolar ushbu ikki moddada umumlashtirib mustahkamlangan.

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» BMT Bosh Assambleyasi tomonidan barcha davlatlar va millatlar uchun umumiy xalqaro standart sifatida e’lon qilingan. Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi erkinlik, tenglik va birodarlik kabi fundamental prinsiplarga asoslanadi. Ularga deklaratsiyaning «Muqaddima»si, shuningdek 1 va 2-moddalari bag‘ishlangan. «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ni tavsiflar ekanmiz, unda inson huquqlarini ta’minlash va amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari belgilanmaganligiga e’tibor qaratish zarur. Bu ko‘proq «har qaysi xalq va barcha davlatlar bajarishga harakat qilishi lozim bo‘lgan vazifa sifatida» ma’naviy imperativlikdir.

Har kimning yashash huquqining dahshatli va ommaviy ravishda buzilishiga olib kelgan Ikkinchi jahon urushi mazkur sohada inson huquqlari, borasida davlatlar va xalqlarning o‘zaro keng hamkorlik o‘rnatishiga sabab bo‘lib, inson huquqlarining baynalmilallashuvida keskin burilish yasadi. 1945-yil Birlashgan Millatlar Tashkilotini tuzishdan asosiy maqsad inson huquqlari va asosiy erkinliklari uning irqi, jinsi, tili va e’tiqodidan qat’i nazar, hamma uchun bir xilda hurmat qilinishini rag‘batlantirish va rivojlantirish ekanligi edi (BMT Ustavining 1-m.).

Har qanday davlat tabiiy huquqlarni tan olmay, ularni amalga oshirishga to‘sqinlik qilib, obyektiv asoslangan cheklash, taqiqlash kiritishga intilib, ularni huquqiy me’yorlasa, u noqonuniy harakat qilgan bo‘ladi. Agar inson huquqlari hatto umuman milliy qonunchilikda mustahkamlanmagan bo‘lsa ham, ular yuridik kuchidan, yuksak ma’naviy salohiyatidan mahrum bo‘lmaydi. Xalqaro huquqda e’tirof etilganidek, ularsiz individ umuman

mukammal hayot kechira olmaydi. Inson huquqlari sohasidagi cheklash haqida «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 29-moddasida umumiy tartibda quyidagilar keltirilgan:

1) har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to‘liq kamol topishi mumkin;

2) har bir inson o‘z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o‘zgalar huquq va erkinliklarining demokratik jamiyatda yetarli darajada bo‘lishini hamda hurmat qilinishini ta‘minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak;

3) ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga aslo zid bo‘lmasligi kerak.

Shu tarzda xulosa qilinsa, barcha huquq sohalariga qaraganda inson huquqlari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki unda butun insoniyatning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, shaxsiy mustaqilligi kabi asosiy qadriyatlar alohida to‘liq mujassamlashadi. Ushbu qadriyatlar inson huquqlarida o‘zining normativ mustahkamlangan aksini topib, huquqiy vositalar va institutlar ko‘magida amalga oshirilishi kafolatlanadi. Ammo inson huquqlari konsepsiyasining mazmuni va maqsadi faqat qonuniy tartibga solishning tor doirasi bilan cheklanib qolmaydi. Sivilizatsiyalashgan jamiyatda inson huquqlarini ta‘minlashning huquqiy usullari standartlar va umumiy hayot normasidagi muammolarning muhim qismi hisoblanadi. Inson huquqlari sohasidagi boshqa qo‘shimcha huquqiy kafolatlar boshqa me‘yoriy qadriyatlar tizimlarida va eng avvalo, axloqiy tizimda aks etadi.

Ayni paytda, deklaratsiya inson asosiy huquqlarini qamrab olgan BMT Ustavini talqin qilishdagi eng muhim aktdir. «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» – xalqaro shartnomadir. Rasmiy yuridik nuqtai nazardan u majburiy kuchga ega emas, chunki BMT Ustavining 10 va 11-moddalariga muvofiq, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari faqat tavsiyaviy xususiyat kasb etadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, deklaratsiya davlatlarning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarining asosiy manbalaridan biriga aylandi. BMT Ustavini sharhlashda muhim vosita sifatida qaraladigan deklaratsiya normalarining katta qismi hozirgi zamon dunyo mamlakatlari bog‘lab turuvchi xalqaro odat huquqining muhim mezonidir.

2.3. Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro Paktlar

1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt va uning Fakultativ protokoli bir ovozdan qabul qilingan. Bu hujjatlar «Inson huquqlari umumjahon dekla-

ratsiyasi» va 1989-yilda qabul qilingan Ikkinchi Fakultativ protokol bilan birgalikda, «Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro Bill» deb nomlanadi.

Paktlar «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ga asoslansa-da, ularda mustahkamlangan huquqlar bir xil emas. Ikkala paktga ham mustahkamlangan, deklaratsiyaga kiritilmagan eng muhim huquq – tabiiy boyliklar va resurslardan erkin foydalanish huquqi bilan bog‘liq o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidir.

«Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt» 1976-yil 3- yanvarda kuchga kirgan.

Pakt quyidagi huquqlarni himoya qilish va amalga oshirishda ko‘maklashishni nazarda tutadi:

- erkaklar va ayollarga teng huquqlar;
- adolatli va qulay sharoitlarda mehnat qilish huquqi;
- ijtimoiy himoya, hayot kechirish uchun yetarli sharoitlar va mumkin qadar yuqori darajadagi jismoniy va aqliy sog‘lomlik sharoitlariga bo‘lgan huquq;
- ta‘lim olish hamda madaniy erkinlik va ilmiy taraqqiyot ne‘matlaridan foydalanish huquqi;
- kasaba uyushmalari tashkil qilish va ularda ishtirok etish huquqi;
- oilani qo‘riqlash va oilaga ko‘maklashish;
- madaniy hayotda qatnashish va ilmiy taraqqiyot natijalaridan foydalanish huquqi;
- yetarli hayot darajasiga bo‘lgan huquq;
- ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy sug‘urtaga bo‘lgan huquq.

Pakt ushbu huquqlarning hech qanday kamsitishlarsiz amalga oshirilishini nazarda tutadi. Pakt qatnashchilari – davlatlar Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS)ga davriy hisobotlar taqdim qiladilar. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mita 18 ta mustaqil ekspertdan iborat. U Paktga amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida Kengash tomonidan tashkil qilingan organ bo‘lib, hisobotlarni o‘rganadi va manfaatdor hukumatlar vakillari bilan muhokama qiladi. Uning izohlari paktga aloqador masalalar orasida unda mustahkamlangan huquqlarni hayotga tatbiq etishda ishtirokchi davlatlarga yordam berish, hisobotdagi kamchiliklar va hisobot tayyorlash jarayoniga e‘tiborni kuchaytirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, Qo‘mita alohida hisobotlar, natijalar yuzasidan Kengashga tavsiyalar berishi mumkin.

«Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt»ning quyidagi asosiy jihatlari muhimligini ajratib ko‘rsatish mumkin:

birinchidan, davlatlar uchun majburiy bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning aniq ro‘yxati berilgan;

ikkinchidan, xalqaro standartdagi huquqlarning har biri davlatlarning tegishli qonunchiligida o'z aksini topishi zarurligi shakllantirilgani;

uchinchidan, davlatlarning e'lon qilingan huquqlarni tan olishi va ta'minlash majburiyati o'rnatilgani;

to'rtinchidan, paktga e'lon qilingan huquqlarni amalga oshirishning mexanizmlarining mustahkamlangani.

«Fuqarolikning va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» va uning birinchi Fakultativ protokoli 1976-yil 23-martda kuchga kirgan. Mazkur Paktning qabul qilinishi unda ko'rsatilgan huquqlarning tabiiy xususiyat kasb etishi, hayot, sha'n, inson qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizlik, e'tiqod erkinligi va shaxsiy hayot kabi yuksak qadriyatlarga aloqadorligi bilan asoslanadi. Inson huquqlari nazariyasida bu huquqlar birinchi avlod huquqlari hisoblanadi va «negativ huquqlar» deb nomlanadi, chunki, u aynan davlat hokimiyati tomonidagi tajovuzlardan alohida himoyaga muhtojdir. Ushbu paktga birlashish erkinligi, so'z erkinligi, davlat boshqaruvida qatnashish huquqi, saylov huquqi kabi birinchi avlod huquqlari va xalqaro huquq nuqtai nazaridan inson shaxsi rivojlanishi, uning davlat bilan o'zaro munosabatiga bog'liqligi sababli o'ta muhim sanaladigan siyosiy huquqlar kiritilgan.

«*Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt*» yuridik tarkibining o'ziga xosligi shundaki, uning moddalarida belgilab berilgan har bir huquq mazkur huquqni amalga oshirishning aniq mexanizmini qamrab olgan. Qonunchilikda bu huquqlarni amalga oshirish uchun ma'muriy va boshqa choralarni ko'rish har bir davlatning majburiyati hisoblanadi.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» kuchga kirishi bilan xalqaro inson huquqlari taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Xalqaro huquq tarixida birinchi marta individ o'z huquqlarining himoyasi uchun BMT xalqaro organlariga murojaat qilish huquqiga ega bo'ldi. «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»ga asoslanuvchi bunday organ Inson huquqlari bo'yicha qo'mita bo'lib, u nafaqat individual murojaatlar, balki milliy hisobotlar asosida ham Paktga amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Paktning bu xususiyatlari uni nafaqat inson huquqlari sohasida, balki butun xalqaro huquq sohasida ham muhim ahamiyat kasb etuvchi hujjatga aylantiradi.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» muqaddima va olti qismdan iborat. I qism xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga bag'ishlangan bitta moddadan iborat.

II qism 2–5-moddalarini qamrab oladi. Bu moddalar davlatlarga paktga ko'rsatilgan huquqlarni hurmat qilish va hech qanday kamsitishsiz ta'minlash majburiyatini yuklaydi. 2-moddaning 3-qismi bevosita davlat-

larga vakolatli sud, ma'muriy yoki qonunchilik hokimiyati tomonidan sud himoyasi imkoniyatlarini kengaytirib, huquqiy himoya vositalarini o'rnatish majburiyatini yuklaydi. Bundan tashqari, 3-modda davlatlarga erkak va ayollarga teng fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanishni ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Ushbu qism favqulodda vaziyatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash va bunday vaziyatlarda inson huquqlari cheklanishlarini tartibga soluvchi norma kiritilgan.

III qism 22 ta modda (6–27-m.)dan iborat, u paktning eng katta qismi hisoblanadi. Unda bevosita shaxsiy va siyosiy huquqlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan. 6-modda shaxsning ajralmas huquqi sifatida yashash huquqini mustahkamlaydi. Modda oltitta bandedan iborat bo'lib, mamlakatda o'lim jazosi mavjud bo'lsa, uni eng og'ir jinoyatlar uchun qo'llashni, o'lim jazosi belgilanganda afv etishni so'rash yoki hukmni yengillashtirishni so'rash huquqini, o'lim jazosini 18 yoshga to'lmagan shaxs va homilador ayollarga nisbatan qo'llamaslikni nazarda tutadi. Pakt o'lim jazosini to'liq bekor qilishni nazarda tutmaganligi bois «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»ga Ikkinchi Fakultativ protokol qabul qilingan bo'lib, ushbu protokol ishtirokchi davlatlarga o'lim jazosidan voz kechish majburiyatini yuklaydi.

Paktning bu qismi qiynoqlar (7-m.), qullik, qullar savdosi va majburiy mehnatni (8-m.) butunlay taqiqlashni nazarda tutadi.

Paktda ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi hamda ular bilan muomalada bo'lish, o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum qilish yoki ushlab turishni taqiqlash, ozodlikdan mahrum qilish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi (9,10-m.)ga alohida e'tibor qaratiladi.

Pakt bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurish erkinligi va erkin yashash joyini tanlash huquqini ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, bu huquqni tartibga soluvchi 12-modda davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi sog'lig'i va axloq qoidalari, boshqa shaxslar huquq va erkinliklarini muhofaza qilish maqsadida qonunda nazarda tutilgan hollarda, bu huquq cheklanishi mumkinligini mustahkamlaydi. Bu turdagi cheklovlar namoyishlar o'tkazish, erkin fikr bildirish, erkin fikrlash, din va e'tiqod erkinligi, tinch yig'ilishlarga bo'lgan huquqlarga ham tatbiq qilinadi.

Paktning 14, 15 va 26-moddalari aybsizlik prezumpsiyasi, adolatli sudlov, jinoyat protsessining barcha bosqichlarida ayblanuvchining huquqlarini ta'minlashga oid qonun va sud oldida tenglikni ta'minlashni nazarda tutadi.

Alohida modda bilan har bir shaxs huquq subyektliligining tan olinishiga bo'lgan huquqi mustahkamlangan (16-m.).

Pakt shaxsiy va oilaviy hayotga o'zboshimchalik bilan hamda noqonuniy aralashuvlarni taqiqlaydi. Uy-joy daxlsizligi va yozishmalar sirini muhofaza etadi (17-m.).

Paktning 18–19-moddalarida fikr erkinligi, din va e'tiqod erkinligi, shuningdek to'sqinliklarsiz o'z fikrini qo'llab-quvvatlash huquqi mustahkamlangan. Shu bilan birga, har qanday urushni targ'ib qilish, milliy, irqiy yoki diniy adovatni qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Paktida tinch yig'ilishlar o'tkazish huquqi va birlashish erkinligi to'g'risidagi modda mavjud (21–22-m.).

Paktida jamiyat va davlat tomonidan oilani himoya qilish, bola huquqlariga oid alohida moddalar nazarda tutilgan (23–24-m.). Ta'kidlash joizki, aynan Paktning ushbu qoidalari keyinchalik «Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya», «Ayollarga nisbatan barcha turdagi kamsitishni yo'q qilish to'g'risidagi konvensiyada» aksini topgan.

Paktning 25-moddasi davlat ishlarini olib borishda ishtirok etish huquqi, ovoz berish va saylanish, shuningdek teng asoslarda davlat xizmatiga yollanish kabi siyosiy huquqlarni amalga oshirishga bag'ishlangan.

Paktida, etnik va diniy ozchiliklarning boshqa a'zolar bilan birga o'zining madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish hamda ona tilidan foydalanish huquqi mustahkamlangan.

Paktning IV qismi (28–45-m.)da Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaning tarkibi, funksiyalari va vakolatlari, bu organga ishtirokchi davlatlarning hisobot topshirish majburiyatlari, davlatlararo xabarlarni taqdim qilish va ularni ko'rib chiqish tartibi belgilab berilgan.

Paktning V va VI qismlari yakuniy qoidalar hamda mazkur pakti imzolash, ratifikatsiya qilish va amal qilishi to'g'risidadir.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»ga Ikkinchi Fakultativ protokol o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida bo'lib, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 15-dekabrda qabul qilingan. 2010-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, 26 ta mamlakat Ikkinchi Protokolda belgilangan majburiyatlarni olishga rozilik bildirgan. Bu majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazoratni Inson huquqlari bo'yicha qo'mita amalga oshiradi.

Shunday qilib, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» keng ahamiyatli hujjat bo'lib, unda fuqarolik va siyosiy huquqlarning barcha turlari bo'yicha xalqaro standartlar batafsil mustahkamlangan. Shunga qaramasdan, ushbu qoidalarning ko'pchiligi keyinchalik takomillashtirilib va aniqlik kiritilib, «Ayollarga nisbatan barcha turdagi kamsitishni yo'q qilish to'g'risidagi konvensiya», «Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya», «Qiynoqlarga qarshi konvensiya» kabi inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan.

3-Mavzu. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO STANDARTLARNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY QONUNCHILIGI VA AMALIYOTIGA IMPLEMENTATSIYA QILINISHI

3.1. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar tushunchasi

Inson huquqlari sohasidagi standart tushunchasi xalqaro hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan majburiy talablar va normalarni anglatadi. «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» yuridik majburiy hujjat hisoblanmaydi, biroq unda mustahkamlab qo‘yilgan inson huquqlari standartlarining yorqin misolidir. «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»dagi standartlar inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq hamda milliy tizimni yaratish uchun asosdir.

Inson huquqlari bo‘yicha hujjatlar qaysi xalqaro tashkilot miqyosida qabul qilinganligiga qarab, universal tashkilotlar – BMT miqyosida qabul qilingan universal standartlarga va mintaqaviy standartlarga (masalan, Yevropa Kengashi miqyosida qabul qilingan – Yevropa Kengashi standartlariga) bo‘linadi. Universal va mintaqaviy standartlar o‘rtasida tafovutlar yo‘q. Mintaqaviy standartlar inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro shartnomalardagi inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni hamda ularni himoya qilishni yanada mustahkamlashga ko‘maklashishi lozim. Mintaqaviy standartlar mahalliy bo‘lib, mintaqadagi mamlakatlarning tarixiy an‘analari, madaniyati, rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, universal standartlarga nisbatan yanada aniqroq va yuksakroq normalarni o‘rnatadi.

Milliy qonunchilikning inson huquqlari orasidagi xalqaro standartlarga muvofiq kelishi inson huquqlari bo‘yicha shartnoma ishtirokchilari uchun eng qattiq talablardan biridir.

Inson huquqlarining xalqaro huquqi¹ (inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar) barcha davlatlar, ularning mansabdor shaxslari – huquqni muhofaza qiluvchi organlarni ham qamrab oluvchi ushbu davlatlarning vakillari uchun yuridik majburiy hisoblanadi.

Inson huquqlari xalqaro huquqning institutlaridan biri bo‘lib, u inson huquqlari sohasida asosiy, umum e’tirof etilgan standartlarni belgilab beradi.

Ma’lumki, xalqaro hamjamiyat o‘z tarixiga, huquqiy an‘analariga va madaniy qadriyatlariga ega turli xil davlatlardan tashkil topgan bo‘lib,

¹ Қаранг: Саидов А. Х. Международное право по правам человека / Отв.ред Б. Н. Топорнин. – М., – 2004.

inson huquqlari va unga bo'lgan qarashlar ko'proq yuqoridagi omillarga bog'liq.

Shuning uchun ham inson huquqlari sohasida xalqaro standartlarni o'rnatish hozirgi zamon sharoitida shaxsning huquq va erkinliklarini haqiqiy ta'minlab berishdek o'ta muhim vazifalardandir. Inson huquqlari bo'yicha umum e'tirof etilgan standartlar doktrinasini inson huquqlari hamma joyda bir xil bo'lishi, ya'ni, *birinchidan*, bu huquqlar mustahkamlab qo'yilgan moddiy huquq normalari, *ikkinchidan*, bu normalarni qo'llash bir xilda bo'lishi lozimligiga asoslanadi.

Inson huquqlari to'g'risidagi qoidalar faqat g'arb sivilizatsiyasi mahsuli emas, balki u butun insoniyatga tegishlidir. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni tushuntirishda *inson huquqlarining universalligi* (universality of human rights) va *inson huquqlari sohasidagi universalizm* (universalism in human rights)ni farqlash zarur.

Inson huquqlarining universalligi deganda, inson huquqlari g'oyasi-ning haryoqlamaligi, hammabopligini e'tirof etish tushuniladi. Inson huquqlari sohasidagi universalizm esa, inson huquqlari g'oyalarini sharhlash va qo'llashga taalluqlidir. Bugungi kunda inson huquqlarining universalligiga «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» qabul qilinganidan bir necha yildan so'ng erishilgan bo'lsa-da, birorta ham davlat uni inkor etmayotganligi ayni haqiqat. Inson huquqlari g'oyasi barcha davlatlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi universalizmga esa, bugungi kunda erishilgani yo'q. Universalizm inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqni sharhlash va uni qo'llashga nisbatan yalpi rozilikni nazarda tutadi. Bunday yalpi rozilikning yo'qligi BMT doirasida inson huquqlariga doir masalalarni ko'rib chiqishda universalizm muhokama predmeti sifatida davom etayotganligi bilan izohlanadi¹.

Shu bilan bog'liq 1993-yilgi Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturidagi mavjud qoidaga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Unda ta'kidlanishicha, «barcha inson huquqlari universal, bo'linmas, o'zaro bog'liq va o'zaro aloqada, biroq milliy va diniy xususiyatlar hamda turli tarixiy, madaniy va diniy o'ziga xosliklarning ahamiyatini e'tiborga olish kerak bo'lsa-da, davlat o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimi qanday bo'lishidan qat'i nazar, barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish va ularni himoya qilish majburiyatini zimmasiga oladi».

¹ Қарағ: *Baderin M. A. International Human Rights and Islamic Law.* – Oxford: Oxford University Press, 2003. – P. 23–24.

Mazkur holatda inson huquqlarining universalligi to'g'risida (universalizm to'g'risida emas) gap bormoqda. Boshqacha aytganda, inson huquqlarida mustahkamlab qo'yilgan huquqiy normalar universal bo'lishi lozim, biroq bu barcha holatlarda ham ular mutlaq bir xil sharhlanishi zarur, degani emas. Aks holda, 1993- yilgi Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturiga milliy mintaqaviy xususiyatni va turli tarixiy, madaniy va diniy o'ziga xosliklarni hisobga olishning zarurati to'g'risidagi qoidani kiritishning ma'nosi bo'lmas edi.

Turli tarixiy, madaniy va diniy o'ziga xosliklarni hisobga olib, inson huquqlarining universalligini talqin qilish maqsadida, xalqaro shartnomalarning u yoki bu qoidalarini jamiyatning axloqiy qadriyatlari bilan bog'liq ravishda tushuntirishgacha bo'lgan darajada davlatning harakat qila olish erkinligini nazarda tutuvchi o'z ixtiyoriga ko'ra ish tuta olish erkinligining chegarasigacha bo'lgan doktrinadan foydalanishi mumkin bo'lar edi. Xalqaro shartnomalardagi ko'plab qoidalar juda mavhum shakllantirilganligi ularni mahalliy axloqiy va madaniy standartlar nuqtai nazardan tushuntirish imkonini beradi.

Xalqaro va milliy (davlatning ichki) huquqning nisbati va o'zaro ta'siri muammosi yurisprudensiyaning bugungi eng muhim va murakkab muammolaridan biridir. Uning amaliy ahamiyati davlat organlari, har bir inson uchun ham oshib bormoqda. Inson asosiy huquqlari xalqaro huquq normalari bilan belgilanishining o'zi yetarlidir.

Xalqaro huquqning rivojlanishi, uning milliy huquq bilan o'zaro ta'sirining chuqurlashib borishi ijtimoiy hayotning baynalmilallashuvi bilan ham belgilanmoqda. Dunyoning o'zaro bog'liqligi va yagonaligi milliy siyosiy-huquqiy tizimlar yagona global tizimning qismlari sifatida bir-biri bilan, shuningdek butun xalqaro munosabatlar tizimi bilan ham o'zaro aloqadorligini anglatadi. Ichki vazifalarni hal etish o'sib borayotgan tashqi muhitning ta'siriga bog'liq.

Har bir davlat davlatlarning suveren tengligi prinsipiga muvofiq, o'zining huquqiy tizimini o'zi erkin tanlashi va o'z huquqiy tizimining xalqaro huquq bilan o'zaro ta'sir qilish tartibini belgilashi mumkin. Shu bilan bir qatorda, suveren tenglik prinsipi har bir davlatning o'z xalqaro majburiyatlarini to'liq va vijdonan bajarish majburiyatini ham belgilab beradi.

Mazkur qoidalarda e'tirof etilgan qoida ham o'z aksini topgan. Unga ko'ra, xalqaro huquq davlatga majburiyat yuklaydi, ularni mamlakat ichida ro'yobga chiqarish tartibi esa, agar xalqaro huquqiy normalarda boshqacha kelishilmagan bo'lsa, milliy huquq bilan belgilanadi.

Milliy darajada amalga oshiriladigan normalar sonining oshib borishi bilan birga, yangi holatlar ham paydo bo'lmoqda. Masalan, inson huquqlari

to'g'risidagi, jinoyatlarning ayrim turlari to'g'risidagi xalqaro normalarni tegishli qonunlarni qabul qilmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Natijada davlat bunday normalarga qo'shilar ekan, tegishli qonunlarni qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Umuman olganda, davlat o'z huquqiy tizimini o'zi yaratishi va xalqaro majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashi lozim. Davlatda inson huquqlari va qonun hukmronligiga hurmatga asoslangan demokratik boshqaruv o'rnatiladigan sharoitdagina tinchlik va xalqaro huquqiy tartibot ishonchli ravishda ta'minlanishi mumkin. Xalqaro hayotdagi demokratiya va qonuniylikka davlat ichidagi demokratiya va qonuniylik erishib bo'lmaydi.

Shunday qilib, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar xalqaro shartnomalarda mustahkamlab qo'yilgan, yuridik kuchga kirgan va davlatning oliy qonunchilik organi tomonidan ratifikatsiya qilinib, unga muvofiq milliy qonunchilikda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan qoidalar hisoblanadi.

3.2. Adolatli sudlovni amalga oshirish sohasidagi xalqaro standartlar tushunchasi

XX va XXI asrlarda xalqaro huquqni u yoki bu darajada tartibga soluvchi masalalar ko'lamining muntazam kengayib borayotganligini kuzatish mumkin. Professor I. I. Lukashukning qayd etishicha, «xalqaro va ichki qonunchilikning birligi haqiqatga aylanmoqda». An'anaga ko'ra ichki huquqiy normalarga istisnosiz bo'ysungan, ammo hozirgi kunda xalqaro standartlarga muvofiq ravishda tartibga solish omillari qatoriga adolatli sudlovni amalga oshirish prinsiplari va normalari ham kiradi. Shu munosabat bilan, avvalo, adolatli sudlovni amalga oshirish sohasidagi xalqaro standartlarning nimaligiga oydinlik kiritib olish zarur.

Huquqiy tartibotning u yoki bu sohasiga, xususan, adolatli sudlovni amalga oshirish sohasiga tegishli umum e'tirof etilgan xalqaro huquq prinsiplari va normalari **xalqaro standartlar** deb ataladi. Xalqaro huquq prinsiplari xalqaro munosabat qatnashchilari xulq-atvorining eng umumiy qoidalari sifatida xulq-atvorning yanada aniqroq qoidalarini aks ettiruvchi xalqaro huquqiy normalarni o'rnatishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. U yoki bu prinsip xulq-atvor qoidalarining yanada aniqroq paydo bo'lishini oldindan belgilab beribgina qolmay, o'z navbatida, ularni o'ziga bo'ysundiradi va bu xulq-atvor qoidalarining o'zaro muvofiqlashishida va ayni paytda, ularning umumiyroq xulq-atvor qoidasi prinsipiga mos kelishida namoyon bo'ladi.

Xalqaro huquq normalari nafaqat prinsiplarni, balki muayyan xulq-atvor qoidalarini ham mustahkamlamaydi. Huquq prinsiplarini normalardan

ajratib bo'lmaydi, normalarni esa, prinsiplardan tashqarida ko'rib chiqish mumkin emas. Bunda muayyan xulq-atvor qoidalari doim xalqaro huquqiy aktlar va odatlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Har qaysi prinsip esa, u yoki bu xalqaro aktda biror-bir norma ko'rinishida ifodalanishi mumkin, biroq u o'zining aniq ta'rifini topmasdan, normalar yig'indisi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ularning muayyan prinsipga muvofiq kelishi to'g'risida fikr yuritishga yaxlit holda o'rganish imkon beradi. Aynan shuning uchun ham prinsiplarning bevosita normalarda aks etishi yoki normalarning u yoki bu prinsipdan kelib chiqadigan qoidalarga bo'ysunishiga qaramasdan, xalqaro huquq normalari va prinsiplari farqlanadi.

Xalqaro huquqning majburiy kuchga kirishi uchun davlatlarning xalqaro muloqotning ma'lum tarixiy davri xalqlarining huquqiy ongiga mos keluvchi qoidalarini o'rnatish yoki tan olish to'g'risidagi ixtiyoriy, aniq ifodalangan yoki so'zsiz qabul qilingan umumiy yoki alohida shartnomasi asos bo'ladi. Davlatlarning ushbu kelishuvi biror-bir rasman belgilangan yozma yoki og'zaki shartnoma ishlab chiqiladimi yoki bir xil ko'rinishdagi amaliyotdan kelib chiqadigan huquqiy odat paydo bo'ladimi, bundan qat'i nazar, ular o'rtasidagi kelishuv hisoblanadi. Bu kabi kelishuvga zarurat uning tomonidan o'rnatilgan muayyan normalarga rioya etish zarurati kabi ijtimoiy taraqqiyotning turli xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish talabidan kelib chiqadigan obyektiv qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Shuning uchun xalqaro huquqiy aktlardagi holatlarning ijrosi davlatlarning ularni qo'llashga ixtiyoriy ravishda rozilik bildirishlariga asoslanadi. Bunda nafaqat majburiy, balki tavsiyaviy xalqaro huquqiy hujjatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bajarilishi shart normalar ikki va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalardan (ular shartnoma, bitim, pakt, konvensiya kabi turli nomlar bilan atalishi mumkin) va xalqaro huquqiy odatga aylanadi. Xalqaro shartnomalar asosida tuziladigan muayyan organlar, shu jumladan, ba'zi xalqaro tashkilotlarning alohida organlari tomonidan chiqarilgan aktlarda bayon etilgan ko'rsatmalarning bajarilishi ham majburiy bo'lishi mumkin (masalan, BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasi).

Tavsiyaviy aktlar turli xalqaro konferensiyalar va boshqa forumlarda, xalqaro tashkilotlar negizida tuziladigan organlar, shu jumladan, xalqaro tashkilotlarning organlari tomonidan qabul qilinadi. Masalan, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari tavsiyaviy xususiyatga ega. Tavsiyaviy aktlar fuqaroviy va siyosiy huquqlar hamda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi paktlar, irqiy kamsitishning barcha shakllarini yo'q qilish, bola huquqlari to'g'risidagi va ba'zi bir boshqa ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarga muvofiq ravishda tashkil etiladigan BMT shartnoma qo'mitalari tomonidan ham qabul qilinishi mumkin.

Xalqaro tavsiyaviy aktlarning rasman majburiy yuridik kuchga ega emasligiga qaramay, davlatlar ularda aks ettirilgan holatlarni butkul rad eta olmaydilar. Chunki ularning o'zlari ushbu hujjatlarni ishlab chiqishda va biror bir xalqaro konferensiya yoki boshqa turdagi forumda qabul qilishda bevosita qatnashadilar yoxud u yoki bu masala bo'yicha tavsiyaviy qarorlarni qabul qilishga layoqatli organlarni tuzishni nazarda tutuvchi xalqaro shartnomadagi tomonlar bo'ladilar.

Turli davlatlarning sudlari xalqaro huquqiy hujjatlarning tavsiyaviy qoidalarini o'z qarorlarini asoslash uchun qo'shimcha manba sifatida qo'lgan vaqtlar ham bo'lgan. Agar davlat ancha uzoq muddat davomida u yoki bu tavsiyaviy qarorlardagi qoidalariga amal qilib kelsa, bunday qoidalar xalqaro huquqiy odat normalariga aylanib ketishi hech gap emas.

Davlatlarning muayyan xulq-atvor standartlarini aks ettiruvchi xalqaro huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishda u yoki bu darajada ishtirok etishlari e'tiborga olinsa, ularni qandaydir tashqaridan zo'rlab kiritilgan standartlar deb baholash mumkin emas. Bunday xalqaro standartlarning aynan turli davlatlar nuqtai nazarlarini muvofiqlashtirish natijasida ishlab chiqilishi sababli mazkur standartlar ularni ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etgan mamlakatlar tomonidan rioya etilishiga rozilik bildirilgan xulq-atvor qoidalarining yig'indisidan iborat bo'ladi.

Tarixiy taraqqiyot natijasida huquqiy ong nuqtai nazaridan bir-biriga yaqin bo'lib qolgan davlatlar uchun bir xil va batafsil bayon etilgan xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqish, tabiiyki, qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning uchun universal standartlar, ya'ni turli qit'alarda joylashgan davlatlar qo'shilgan va qolgan boshqa davlatlar ham qo'shilishi mumkin bo'lgan hujjatlarda qayd etilgan standartlar, odatda, hududiy xalqaro standartlar, ya'ni u yoki bu geografik hudud, masalan, Yevropa, Amerika yoki Afrika chegarasida joylashgan davlatlar qo'shilgan hujjatlarda aks ettirilgan standartlarga qaraganda, umumiyroq tabiatga ega bo'ladi.

Ba'zi xalqaro standartlarning barcha davlatlar tomonidan qo'llanishi mumkin bo'lsa, boshqalarini ayrim davlatlar o'z milliy huquqiy tizimlari amaliyotiga qo'llash arafasida turibdilar. Aksariyat standartlar esa, muayyan davlatlar uchun bosib o'tilgan bosqich hisoblanadi va ular o'z umummilliy darajalarida yanada yuqoriroq andozalarga amal qiladilar. Masalan, ayrim institutlar tarixan paydo bo'lgach, boshqa mamlakatlarga yoyilib, xalqaro tan olingan standartlarga aylangunga qadar ma'lum muddat cheklangan miqdordagi davlatlar doirasida faoliyat ko'rsatgan. Shu munosabat bilan, albatta xalqaro standartlarni har bir alohida davlatda amal qiluvchi har qanday qoidadan beqiyos ustun turuvchi deb qabul qilish mumkin emas.

Shu bilan bir qatorda, xalqaro standartlar mamlakat ichidagi turli institutlarning, xususan, adolatli sudlovni amalga oshirishning huquqiy tartibotini rivojlantirishning yoʻnalishlarini belgilashda mayoq vazifasini bajaradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Muqaddima»sida umum eʼtirof etilgan xalqaro huquq normalarining milliy qonunlardan ustunligi qayd etilgan. Ushbu konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqib, Oʻzbekistonning amaldagi barcha kodekslari va qonunlarida, agar Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasida tegishli qonunda nazarda tutilgan qoidalardan oʻzga qoidalar oʻrnatilgan boʻlsa, xalqaro shartnoma qoidalarining qoʻllanishi koʻrsatib oʻtilgan.

3.3. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar implementatsiyasi

Implementatsiya (ingl. «implementation») – xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunlarga va qonunosti hujjatlariga transformatsiya qilish yoʻli bilan xalqaro majburiyatlarni davlat ichida amalga oshirish. Ayrim davlatlarda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar avtomatik tarzda milliy qonunchilikning qismiga aylanadi.

Agar xalqaro shartnomada qonunda nazarda tutilganidan boshqa qoida oʻrnatilgan boʻlsa, unda xalqaro shartnoma qoidasi qoʻllaniladi. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi «Muqaddima»sida umum eʼtirof etilgan xalqaro huquq normalarining ustuvorligi koʻrsatib oʻtilgan. Konstitutsiyaning 17-moddasida taʼkidlanishicha, «Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning toʻla huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum eʼtirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi».

Milliy huquq xalqaro huquq bilan oʻzaro taʼsir masalalariga yanada koʻproq eʼtibor qaratib kelmoqda. Shuningdek, u xalqaro majburiyatlarni milliy darajada roʻyobga chiqarish usullarini aniq qilib olish davlatning vakolatiga kiradi, degan tushunchaga tayanadi.

Xalqaro hamkorlik qilishning asosi konstitutsiyaviy huquq bilan belgilanadi. Mazkur huquq hamda uni qoʻllash amaliyotini tahlil qilish shuni tasdiqlamoqdaki, xalqaro huquq davlat ichki munosabatlarni tartibga solishga yaramaganidek, milliy huquqning harakat mexanizmi ham xalqaro munosabatlarni tartibga solish uchun yaramaydi.

Shuning uchun ham «xalqaro huquq normalarining bevosita amal qilishi» degan tushuncha shartli xususiyat kasb etadi va bu normalarga milliy

huquq bilan tegishli yuridik kuch berilganidan keyin bevosita qo‘llanishini bildiradi.

Ayrim mamlakatlarning konstitutsiyalari, masalan, Fransiya konstitutsiyasida xalqaro huquqning ustuvorligi va xalqaro huquqning bevosita ta’sir ko‘rsatishi e’tirof etiladi, degan fikrlar bildiriladi. Konstitutsiyalar mavjud xalqaro huquqni e’tirof etmagan holda, ularni o‘zi o‘rnatgan. Boshqacha aytganda, mazkur masalani hal qilish – milliy huquqning vakolatidir.

Xalqaro huquq, hattoki, inson huquqlari sohasida faqat davlatlararo munosabatlarni tartibga solishni BMTning Ustavi ham tasdiqlaydi. Unda inson huquqlarini rag‘batlantirishda xalqaro hamkorlik to‘g‘risida so‘z boradi (1-modda, 3-qism). Bosh Assambleya inson huquqlarini amalga oshirishga «xalqaro hamkorlikka ko‘maklashish» maqsadida tavsiyalar qilishi mumkin (13-modda, 1.a qism).

Shunday qilib, jismoniy va yuridik shaxslar ishtiroki bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga layoqatli bo‘lish uchun xalqaro huquqdagi mavjud qoidada belgilangan tartibda mamlakatning huquqiy tizimiga kirishish lozim. Odatda, bu jarayon *transformatsiya* deb nomlanib, unda xalqaro huquq normalarining milliy huquq normalariga aylanishi nazarda tutiladi. Haqiqatda esa, xalqaro huquq normasi o‘zgarmagan holda o‘z maqomini saqlab qoladi. Uning mazmuni, qoidasiga esa milliy huquq normasi maqomi beriladi. Aslida ham, gap xalqaro huquq normalarining milliy huquq yordamidagi implementatsiyasi to‘g‘risida bormoqda.

Shartnomani ratifikatsiya qilish – xalqaro shartnomaning mazkur davlat uchun majburiy ekanligini tasdiqlab beradigan, uning ichki huquqiga muvofiq qabul qilinuvchi davlat oliy hokimiyatining hujjatidir. Ratifikatsiya yoki davlat boshlig‘ining o‘zi tomonidan yoki davlatning oliy qonun chiqaruvchi organi (parlament yoki boshqa uning o‘rnini bosuvchi organ) tomonidan birgalikda amalga oshiriladi. Shartnomani qabul qilish, tasdiqlash yoki unga qo‘shilish hujjatlari tuzilib bo‘lingan bo‘lib, bunday harakatlarni amalga oshirish orqali ularda ishtirok etishga ruxsat beruvchi shartnomalarga taalluqlidir. Ular asosida ratifikatsiya hujjati mavjud bo‘lib, tegishli hujjatlar almashilgandan yoki ularni depozitariyada saqlash uchun topshirilgandan so‘ng, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek nomlanadi.

2012-yilning boshiga kelib, O‘zbekiston Respublikasi 5000 dan ortiq ko‘p va ikki tomonlama shartnomalar va kelishuvlarni tuzgan, 200 ga yaqin muhim xalqaro konvensiyalar va shartnomalarga, shu jumladan, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida 70 dan ortiq shartnomalarga qo‘shilgan.

Milliy qonunchilikning xalqaro huquqni milliy huquqda mustahkamlash va amalga oshirish sohasidagi tahlili respublikaning sohaviy qonunchiligi

asosan xalqaro shartnoma, normalarining milliy qonunlarga nisbatan ustuvorligini e'tirof etishi nuqtai nazaridan kelib chiqayotganligini ko'rsatmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 1-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi Konstitutsiya va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari hamda mazkur Kodeksdan iboratdir.

Imperativ shaklda Jinoyat-ijroiya kodeksining 4-moddasi quyidagicha bayon etilgan: «Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari xalqaro huquqning jazoni ijro etish va mahkumlar bilan muomalada bo'lishga taalluqli prinsiplari va normalarini inobatga oladi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining normalari mahkumlarni qiynoqqa solish va boshqa insoniylikka zid yoki kamsituvchi muomala turlaridan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro hujjatlarga zid bo'lishi mumkin emas.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaning qoidalari qo'llaniladi».

Ko'pincha xalqaro huquq normalariga butunlay havola etuvchi tahrir ishlatiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 9-moddasi varianti ko'proq uchraydi: «Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining oila to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi».

Bu yerda faqat qo'llashning ustuvorligi to'g'risida gap ketmoqda, ya'ni shartnoma qonun-qoidasi butun harakatga ta'sir etmasdan, faqat aniq bir holatga nisbatan «boshqacha qoida»ni o'rnatmoqda, aniq bir holat uchun istisno qilmoqda. Bu holatda shartnoma qonun ustidan ustuvorlikka ega emas, balki ustuvorlikni aniq bir holatga qo'llash to'g'risidagina gap bormoqda. Bu esa, qonun qoidasini bekor qilishi yoki o'zgartishi mumkin bo'lgan «boshqacha qoida» borligini nazarda tutishga asos borligini anglatmoqda, ammo aniq bir holat uchun istisno qilmayapti.

Mehnat, Yer kodeksda muayyan holatlar uchun xalqaro shartnomalarni qo'llashning ustuvorligi aniq mustahkamlab qo'yilgan. 1995-yil 25-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonunga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda O'zbekiston Respublikasi tomonidan so'zsiz va majburiy amal qilinadi».

O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy tizimida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va prinsiplarining milliy qonunchilikdan ustuvorligi e'tirof etiladi. Shu bilan birga, xalqaro shartnoma uning ijro etilishi uchun milliy qonunchilik tomonidan implementatsiya qilinishi

lozim, ya'ni ichki normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi kerak. Xalqaro standart implementatsiya qilinganidan so'ng ichki qonunchilikning qismiga aylanadi va majburiy bajarilishi lozim bo'ladi. U yoki bu xalqaro shartnomaga to'g'ridan-to'g'ri havola etish amaliyotidan foydalanish esa O'zbekistonning sudlov organlari uchun xos emas va juda ham kam hollardagina qo'llaniladi.

3.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklari xalqaro standartlarining mustahkamlanishi

O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati suverenitetini mustahkamlash va qonun ustunligining tasdiqlanishi huquqiy davlatchilikning o'zaro aloqadorligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda o'z davlat mustaqilligini e'lon qilar ekan, davlat hokimiyati vakolatlarining qonunchilik, ijroiya va sud tarmoqlariga bo'linishi prinsipi asosida asosiy davlat institutlarini shakllantirishga kirishdi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy munosabatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish maqsadida inson huquqlari va erkinliklari bo'yicha milliy tizimni xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga muvofiqlashtirishning zarurati vujudga keldi. Bunga quyidagi omillar yordam berdi:

birinchidan, O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati sohasida o'zining yangilanish va taraqqiyot yo'lini tanlab olishi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlariga o'xshash universal xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishi, shuningdek, yetakchi mintaqaviy xalqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etishi;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi asosiy hujjatlarga, avval, BMTning oltita asosiy xalqaro shartnomalariga qo'shilishi.

Qayd etish kerakki, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha tizimlar va mexanizmlarni rivojlantirish biror-bir davlat yoki xalqaro tashkilotga yoqish uchun amalga oshirilgani yo'q. Mustaqil O'zbekistonning bosh vazifasi inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarga so'zsiz amal qilish va demokratik huquqiy davlat qurishdir.

Bugungi kunda inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik tizimi shakllangan bo'lib, unga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi qonunlar kiradi.

Inson huquqlari bo'yicha qonunchilikning yadrosi va asosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir.

O'zbek parlamenti O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng, «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ni birinchi xalqaro shartnoma sifatida ratifikatsiya qildi va shu bilan o'zining ichki va tashqi siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida inson huquqlari va erkinliklarining xalqaro katalogini mustahkamlab qo'ydi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan birinchi Konstitutsiyasi mamlakatimizda inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy kafolati hisoblanadi.

Suveren, demokratik, huquqiy va dunyoviy davlat, inson huquqlari bo'yicha umum e'tirof etilgan xalqaro prinsiplar va normalarga sodiq davlat sifatida O'zbekiston Respublikasi birinchi navbatda o'z Konstitutsiyasi normalarining uchdan bir qismidan ko'pini inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash masalalariga bag'ishlab, inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligini konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi va avvalgi tuzumda shakllangan inson huquqlari ustidan davlat manfaatlarini ustunligini bartaraf etdi.

O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Biz uchun Konstitutsiya jinsi, irqi, millati, dini, siyosiy va diniy e'tiqodi, mulkiy va mansab mavqei, yashash joyi, jamoat birlashmalariga a'zligi va boshqa shaxsiy yoki ijtimoiy shart-sharoitlari va holatlaridan qat'i nazar, barchaning qonun va sud oldidagi, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarda tengligini kafolatlashi eng muhimdir.

Xususiy mulkning konstitutsiyaviy mustahkamlab qo'yilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Avval inkor etib kelingan xususiy mulk, endi O'zbekiston Respublikasida insonning ajralmas huquqi, uning farovonligi, ishbilarmonligi va ijodiy faolligining tabiiy manbai sifatida e'tirof etiladi va kafolatlanadi, uning iqtisodiy va shaxsiy daxlsizligining kafolati hisoblandi. Mulk daxlsizdir va hech kim o'zboshimchalik bilan o'z mulkidan mahrum qilinishi mumkin emas, mulk faqat qonunda nazarda tutilgan hol-lardagina (huquqbuzarlik quroli va vositasi sifatida) musodara qilinishi mumkin. O'zbekiston Konstitutsiyasi xususiy mulkni e'tirof etish va uni davlat mulki shakli bilan bir qatorda teng ravishda himoya qilish to'g'ri-sidagi prinsipial yangi va muhim huquqiy normani o'rnatdi. Har kim mulkka ega bo'lishi, mulkiga o'z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi mumkinligi huquqi mustahkamlab qo'yildi.

Mehnat erkinligiga bo'lgan huquqni tasdiqlab, Konstitutsiya fuqarolarni majburiy mehnatga jalb etishni taqiqlab qo'ydi, har kim erkin kasb tanlash huquqiga ega.

Ayollarning siyosatda ishtirok etishga bo'lgan huquqi to'g'risidagi zamonaviy qonunchilik bazasi ularning mavqeini erkaklar bilan teng qo'yadi. Bugungi kunda parlament ham hokimlar, vazirliklarda yuqori lavozimlarda xotin-qizlar bor, 200 dan ortiq ayollar nodavlat tashkilotlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning davlat siyosati millatchilikni, irqchilikni, genotsidni, xalqlarni zo'rlik bilan haydab chiqarish yoki ko'chirishni, boshqa xalqlarni kamsitishni va assimilatsiya qiluvchi siyosatni to'la inkor etadi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy va zaruriy qonunchilik asoslari yaratilgan. Konstitutsiya qoidalari asosida O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va buzilgan huquqlarini tiklashning quyidagi usullari rivojlanib bormoqda:

birinchidan, tegishli davlat organlariga shikoyat bilan murojaat qilish, fuqaro shikoyatini o'rnatilgan tartibda qabul qilish, ko'rib chiqish va murojaat qiluvchining dalillarini tekshirish hamda murojaat qiluvchining huquqlarini tiklash uchun unga tekshirish yo'li bilan qabul qilingan chora-tadbirlar to'g'risida yozma javob yo'llash orqali amalga oshiriladi;

ikkinchidan, davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari va qarorlari yuzasidan sudga ariza bilan murojaat qilish (sud himoyasi);

uchinchidan, agar fuqaro tomonidan o'z huquqlarini himoya qilishning yuqorida ko'rsatilgan vosita va usullaridan foydalanib bo'lingan taqdirda, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ga fuqaroning buzilgan huquq va erkinliklari yuzasidan shikoyat bilan murojaat qilish (suddan tashqari himoya). Ombudsman O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va uning hududidagi chet el fuqarolaridan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan kelib tushadigan shikoyatlarni ko'rib chiqish va shikoyat bo'yicha o'z tekshiruvlarini o'tkazishga haqlidir. Ombudsman sudning vakolatiga kiruvchi masalalarni ko'rib chiqmaydi. Murojaat qiluvchining vajlarini tekshirib bo'lgandan so'ng, Ombudsman murojaat qiluvchining buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha tavsiyalarini o'z ichiga olgan xulosasini tegishli davlat organiga jo'natadi;

to'rtinchidan, vazirliklar va idoralar, muassasalar va tashkilotlar, hokimlarning qonunlarni ijro etishi ustidan nazorat qiluvchi, shuningdek jinoyatni dastlabki tergov qilish, jazoni ijro etish joylarida ozodlikdan mahrum etilganlarni saqlash ustidan nazorat qiluvchi prokuratura organlariga murojaat qilish. Prokuratura organlari fuqarolarning arizalari va shikoyatlarini ko'rib chiqadi va ularning buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha choralar ko'radi;

beshinchidan, fuqarolarning buzilgan konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini xolisona va har tomonlama o'rganib chiqib, ular orasida qonunchilikka muvofiq chora-tadbirlar ko'rish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlab berishga vakolatli bo'lgan adliya organlariga murojaat qilish;

oltinchidan, advokatning mustaqilligi, professional etikaga qat'iy amal qilishi, advokatlik siri prinsiplari asosida, qonunchilik bilan taqiqlanmagan himoya usullari va vositalarini qo'llab, jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatadigan advokatura organlariga murojaat qilish;

yettinchidan, Nizomlariga mos ravishda o'z a'zolari (ishtirokchilari)ning huquqlarini himoya qilishga haqli nodavlat tashkilotlarga murojaat qilish. Masalan, Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining vazifalariga NNTlarga har tomonlama ko'maklashish va ularning Nizom faoliyatiga, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning rolini oshirishga ko'maklashish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy davlatchilik qurilishida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash ustuvor, deb hisoblangan o'zining milliy qonunchiligini yuksaltirmoqda.

4-Mavzu. INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING MILLIY VA XALQARO MEXANIZMLARI

4.1. Inson huquqlarini himoya qilish kafolatlari

Fuqarolarning huquq va erkinliklari qonunda mustahkamlangan bo'lishi kerak. Uni samarali amalga oshirish uchun davlat tomonidan milliy va xalqaro kafolatlar ta'minlanishi zarur. Konstitutsiyada «kafolat» atamasini qo'llab, buning ta'minoti haqida so'z yuritsa-da, huquqlarning haqiqiy amalga joriy etilishi uchun davlat organlari va fuqarolarning o'zlari ham anchagina ter to'kishlari talab etiladi. Eng avvalo, bunday ta'minotning choralari ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Bu adabiyotlarda, odatda, kafolatlar deb yuritiladi. **Kafolat** – kafillik, ta'min etish, garovga javob berish. Inson va fuqaro huquqlari kafolatlari – Konstitutsiya va boshqa qonunlar bilan o'rnatilgan huquqlardan foydalanish imkonini yaratuvchi chora va shart-sharoitdir.

Inson huquqlari kafolatlari mexanizmi inson huquqlarini amalga oshirishning bir-biri bilan bog'liq shartlari tizimidan iboratdir.

Inson huquqlari ta'minotining milliy mexanizmi quyidagi kafolat turlaridan iborat:

- iqtisodiy;
- ijtimoiy;
- mafkuraviy;
- siyosiy;
- huquqiy;
- moddiy kafolatlar.

Huquqiy kafolatlar – fuqarolarga berilgan huquq va erkinliklarni amalga oshirishning huquqiy chora-tadbirlaridir.

Kafolatlarning bir nechta turlari ajratiladi. Ko'p hollarda siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va huquqiy kafolatlar tilga olinadi. Iqtisodiy kafolat turlariga ta'minotning moddiy choralari ham taalluqli bo'ladi (himoya vositalari, maxsus kiyimlar va boshq.).

Kafolatlardan maqsad, *avvalo*, huquqlarni amalga oshirishda to'siqlar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va agarda bunday to'siqlar paydo bo'lsa, ularni bartaraf etish, *ikkinchidan*, bu huquqlar bilan bog'liq majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash.

Ushbu tamoyilga asosan insonga tegishli huquq va erkinliklar qonunchilikda mustahkamlab qo'yilishidan qat'i nazar, inson o'z huquqlarini qonunda taqiqlanmagan boshqa choralari bilan ham himoya qilishi mumkinligini anglatadi. Bevosita inson huquq va erkinliklarini tan olish, ular buzilgan taqdirda, ularning qo'llanishiga imkon beradi.

Ma'lumki, huquq faqat davlat yoki boshqa shaxs (organ) uni ta'minlash majburiyatini olsagina amalga oshishi mumkin. Kafolatlar huquq va erkinliklarning hayotga to'liq joriy etilishi uchun zarurdir. Ular shunday sharoitni yaratishi lozimki, bunda Konstitutsiya va boshqa qonunlarda qayd etilgan shaxsning huquqiy maqomi, huquq va erkinliklari to'g'risidagi qoidalar amalda har bir kishiga tegishli bo'lishi lozim.

Keng ma'noda inson huquq va erkinliklari kafolatlari tushunchasi fuqarolar huquq va erkinliklarining to'liq amalga oshirilishi va himoyasiga qaratilgan barcha obyektiv va subyektiv omillarni qamrab oladi.

Huquqiy kafolatlar deganda, inson huquq va erkinliklari, majburiyatlarining huquq normasida qayd etilishi, davlat va xalqaro hamjamiyat institutlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati orqali ularning ta'minlanishi, saqlanishi va himoyasini tushunish mumkin. Qonunda shularni ta'minlashga qaratilgan choralar huquqiy kafolatdir.

Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining rivojlanishi u yoki bu huquqlarning kafolatlarini mustahkamlagan bir qator qonun hujjatlarining ishlab chiqilishi bilan bog'liq.

«Tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida», «Nodavlat, notijorat tashkilotlar faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi, «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida», «Jurnalistlik faoliyati kafolatlari to'g'risida», «Fuqarolarning saylov huquqlari to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi sudda ish yuritishning demokratik tamoyillarini, sud tartibida qonuniy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga nisbatan insoniy munosabatni kafolatlaydi. Huquqiy kafolatlar fuqaro va inson huquqlarining amalga oshirilishini ta'minlab beruvchi, amaldagi qonunchilikda o'z aksini topadigan, ko'rsatilgan huquq va erkinliklarni aniqlashtirib beradigan barcha choralarni qamrab oladi. Huquqiy kafolatlarning boshqa kafolat turlaridan farqi shundaki, agar iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy kafolatlar fuqaro va inson huquqlarini amalga oshirishda ilk qadam bo'lsa, huquqiy kafolatlar shaxs huquqlarini aniq amalga oshirish va bu huquqlarni tajovuzlardan himoya etishga qaratilgandir.

Inson huquqlariga nisbatan huquq va erkinliklar ta'minotining huquqiy choralari katta qiziqish uyg'otadi. Ba'zi mualliflar huquqiy kafolatlar deganda, keng institutlar, moddiy va protsessual moddalar tizimini tushunadilar. Ular subyektiv huquqlarni ta'minlash tizimi faqat huquq o'rnatuvchi va huquqni taqiqlovchi normalardan iborat huquqiy kafolatlar orqaligina ishlashi mumkin, deb hisoblaydilar.

Aynan davlat huquq majmui qismlarining birgalikda xizmat qilishi orqali huquqiy kafolatlarning alohida qismlari, tuzilmalari o'zining himoyaviy vazifasini amalda bajarishi mumkin.

Ma'muriy va sud tartibida mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibi mavjud bo'lib, bu tartib va u bilan bog'liq jarayonlar qonunlarda mustahkamlangan. Bundan tashqari, institutsional darajada ushbu mexanizmning ishlashini ta'minlovchi organlar va muassasalar ham bor. Fuqaro o'z huquqlarini himoya qilish uchun yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxs yoki sudga murojaat qilishi mumkin.

Barcha normalar inson huquq va erkinliklarining kafolatlari hisoblanmaydi, faqat o'zida huquqlarni himoya qilish va ular buzilgan taqdirda tiklash chora-tadbirlarini nazarda tutuvchi normalargina huquqiy kafolatlardir. Qonunchilik fuqarolar huquqlarini himoya qilish mexanizmining turg'un elementlarini kafolatlar tizimi bilan o'z normalarida aks ettiradi. Ushbu mexanizmning samarali faoliyati davlat hokimiyati organlarining mashaqqatli ishlashi, amaldorlarning o'z mansab vazifalarini bajarish chog'ida noqonuniy harakati (harakatsizligi) uchun javobgarlikni oshirish, shuningdek fuqarolarning huquqiy madaniyati yuksalishiga bog'liqdir.

Inson va fuqaro huquq, erkinliklarining davlat kafolatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, konstitutsiya va qonunning ustuvorligi, hokimiyatlarning bo'linishi va konstitutsiyaviy tuzilmaga ega demokratik huquqiy davlatchilik institutlari tizimini shakllantirish;

ikkinchidan, inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining bevosita, to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilishi prinsipining izchil joriy etilishi;

uchinchidan, inson va fuqaro huquq va erkinliklarining huquqiy asosini yaratish, ya'ni inson va fuqaro huquqlari to'g'risidagi qonunchilik tizimini tashkil etuvchi qonun hujjatlarini qabul qilish;

to'rtinchidan, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimini tashkil etish (Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili, O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari milliy markazi);

beshinchidan, inson huquqlari bo'yicha maqsadli va ko'p darajali ta'lim tizimini yaratish hamda keng aholi o'rtasida inson huquqlari madaniyatini shakllantirish;

oltinchidan, mamlakatda fuqarolik institutlari (nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari), huquqni himoya qilish harakatini rivojlantirish;

yettinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarga qo'shilish va ular bo'yicha majburiyatlarni bajarish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jahon konstitutsiyaviy tajribasidan kelib chiqib, quyidagilar belgilangan:

– inson va fuqaro huquq va erkinliklarining keng doirasi belgilangan;

- bu asosiy huquq va erkinliklar boshqa hamma konstitutsiyaviy institutlar bilan uygʻunlashtirilgan, ularning xoʻjalik yuritish, davlat boshqaruvi, konstitutsiyaviy tuzilma bilan oʻzaro bogʻliqligiga erishilgan;
- insonning konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirilishi uchun zarur boʻlgan mexanizmlar, jarayonlar, tuzilmalarning huquqiy asoslari yaratilgan.

4.2. Oʻzbekistonda inson huquqlari milliy mexanizmining shakllanishi

Oʻzbekiston Respublikasida inson huquqlarini taʼminlash va himoya qilish borasida rejali ishlar olib borilmoqda. Xususan, bir qator qonunchilik hujjatlari tizimi ishlab chiqilib qabul qilingan. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish milliy institutlari tashkil etilgan boʻlib, ular samarali faoliyat koʻrsatmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qoʻshma majlisida qilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» nomli maʼruzasida: «... biz oʻz oldimizga qoʻygan uzoq muddatli strategik maqsadlar, yaʼni zamonaviy rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror oʻsishini taʼminlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib oʻrin egallash borasidagi saʼy-harakatlarimizga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir»¹ deb taʼkidlagan edi.

Buyuk yoʻlboshchimiz inson huquqlarini ragʻbatlantirish va ularni himoya qilish, jamiyatni barqaror demokratik rivojlantirishga qaratilgan strategik yoʻnalishlarni qayd etib, mamlakatda inson huquqlari kafolatining amaliy xizmat qiluvchi mexanizmini yaratish asosiy vazifalardan biri ekanligiga bir necha bor toʻxtalgan edilar. Bu borada jamoat va nodavlat tashkilotlarning roli va ahamiyatini esa vaqtning oʻzi koʻrsatib, hayotning oʻzi talab etmoqda. Mahalliy va markaziy davlat hokimiyati organlari mazkur jarayonga toʻsqinlik qilmasligi, aksincha insonlarni yanada koʻproq ijtimoiy-siyosiy hayotda hamda fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirok etishlari uchun yangi demokratik va jamoatchilik tuzilmalarning shakllanishiga har tomonlama koʻmak berishlari va ragʻbatlantirishi lozim. Shundagina inson huquqlari haqiqatan kafolatlangan boʻladi va mazkur huquq, erkinliklarni taʼminlash mexanizmi samarali ishlay boshlaydi.

¹ *Каримов И. А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011. – Б.35.*

O‘zbekistonda inson huquqlari kafolatlarining huquqiy mexanizmlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari demokratik institutlarni takomillashtirish, barchani demokratik jamiyat qurishga jalb etish, shu orqali ularning o‘z taqdiri, kelajagining to‘la huquqli xo‘jayiniga aylanishida ko‘rinadi. Kafolatlarni tasniflash bo‘lsa konstitutsiyaviy kafolatlarni yaxshiroq va chuqurroq anglash orqali, ularning mazmunini ochish, qimmatini va kamchiligini ko‘rsatib berish, tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Huquq fanida umumiy va maxsus (huquqiy) kafolatlarni farqlash qabul qilingan. Umumiy kafolatlar – huquqni ro‘yobga chiqaruvchi iqtisodiy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlarning yig‘indisi hisoblanadi. Umumiy kafolatlariga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy (ma‘naviy) kafolatlar, maxsus kafolatlar esa, qonunlar va boshqa me‘yoriy manbalardan mustahkamlangan huquqiy (yuridik) kafolatlar kiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar huquq va erkinliklardan foydalanishni ta‘minlab beruvchi (ijtimoiy barqarorlik, rivojlanayotgan iqtisodiyot, tegishli ishlab chiqarishning kuchi) maxsus muhitni va moddiy asosni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatga qonuniy iqtisodiy faoliyat hamda raqobatni qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlab berishni, monopollashtirish va g‘irrom raqobatni taqiqlab, mulkchilikning barcha shakllari tengligi va ularni teng himoya qilishni e‘lon qilish majburiyatini yuklaydi.

Siyosiy kafolatlar: insonga maqbul hayot va erkin rivojlanishni ta‘minlab beruvchi sharoitlarni vujudga keltirishni; jamiyatdagi barqarorlikni buzishga yo‘l qo‘ymaydigan fuqaroviy totuvlikka erishish qobiliyatini bildiruvchi fuqarolar siyosiy madaniyatining kerakli darajasini ta‘minlab beruvchi siyosiy tuzilmalarning barqarorligiga erishishni; davlat apparatining byurokratligiga, unda poraxo‘rlikka qarshi kurash va boshqa siyosiy-tashkiliy omillarni ko‘zda tutuvchi davlatning tegishli ravishda, aniq yo‘naltirilgan siyosatini amalga oshirishni nazarda tutadi. *Siyosiy kafolatlar* – har tomonlama rivojlanish va jamiyatning siyosiy tizimini, nazariyada eng muhim hisoblangan o‘zini o‘zi boshqarish g‘oyasining asosini tashkil etuvchi demokratiyaning butun tizimini takomillashtirishdir.

Mafkuraviy kafolatlar – davlat va jamiyatning, shaxs dunyoqarashining erkinligini shakllantiradigan sharoitlarni yaratishga (qo‘llab-quvvatlashga), ma‘naviy va axloqiy yo‘nalishlarni tanlab olishga qaratilgan faoliyatdir.

Huquqiy kafolatlar inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan barcha huquqiy vositalarni o‘ziga qamrab olib, joriy qonunchilik normalarida aks etadi, ko‘rsatib o‘tilgan huquq va erkinliklarning mazmunini ochib beradi va aniqlashtiradi.

Ayrim mualliflar huquqiy kafolatlar deganda, moddiy va protsessual huquq institutlari va normalarining keng tarmog'ini tushunadilar. Subyektiv huquqlarni ta'minlash – shaxsning huquqiy maqomini belgilovchi huquq o'rnatuvchi va qayta tiklovchi normalardan iborat huquqiy kafolatlar orqaligina ishlaydi, deb fikrlaydilar.

Huquqiy kafolatlarni aslida inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini huquq normalari orqali mustahkamlab qo'yish, ularni davlatning butun huquqni muhofaza qilish faoliyati orqali himoya qilish deb tushunish lozim. Qonunda belgilangan vositalar bevosita inson huquqlarini jamiyatda huquqiy jihatdan to'g'ri amalga oshirish va ularni muhofaza qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu mazkur huquqlarning kafolatidir.

1. Insonning huquq va erkinliklarini buzish mumkin bo'lib, huquqiy normalarda belgilangan bunday harakatlarni taqiqlash va cheklashlar:

– irqiy va milliy kelib chiqishi alomatlariga qarab kamsitishni taqiqlash (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-m.);

– qamoqqa olish va ushlab turishning faqat sud qaroriga asosan amalga oshirilishi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-m.);

– fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga qarshi chiquvchi siyosiy partiyalar tashkil etishni va ularning faoliyatini taqiqlash (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-m.);

– majburiy mehnatni taqiqlash (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-m.);

– insonlarga qiynoq, zo'ravonlik yoki shafqatsiz muomalada bo'lishni taqiqlash.

2. Fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini to'sqinliklarsiz amalga oshirishlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari, mansabdor shaxslar va boshqa subyektlarning majburiyatlari (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 43- m.).

3. Fuqarolarning huquqiy maqomini amalga oshirish va himoya qilish uchun maxsus mo'ljallangan huquqlari mustahkamlangan normalar (shikoyat qilish huquqi, sudga murojaat qilish huquqi va boshq.)

4. Fuqaro huquqlarining buzilishi uchun yuridik javobgarlik.

5. Tegishli davlat va jamoat organlari, mansabdor shaxslarning fuqarolar huquqlarini ta'minlash va amalga oshirishga qaratilgan hamda huquqiy ahamiyatga ega faoliyati:

– qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish (prokuratura);

– inson huquqlarining buzilishi bilan bog'liq nizolarni hal qilish (sud).

Dunyoning turli mamlakatlarida inson huquqlarini himoya qilishning turli xil mexanizmlari mavjud. Hozirgi kunda dunyoda inson huquqlarini

ta'minlashning xalqaro tizimi shakllangan bo'lishiga qaramasdan, bunday himoyaning samaradorligi, avvalo, davlatning ichki mexanizmi qay tarzda qurilganligi va ishlashi bilan belgilanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha huquqiy kafolatlarning tashkiliy qismlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, fuqaroning huquqiy maqomini ta'minlashga qaratilgan yagona tizimni tashkil etadi. Har bir vositaning samaradorligi ma'lum darajada ularning o'zaro ta'siriga, inson huquq va erkinliklarini so'zsiz ta'minlash maqsadlarida faol ishlatilishiga bog'liqdir. Albatta, bu tizimda hammasi ham mukammal emas. Huquqiy negizni yanada takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar faoliyatining professionalizmini yanada oshirish lozim. Keyingi paytlarda O'zbekiston Respublikasida qonuniylikka va fuqarolar huquqlariga rioya etish ustidan nazoratni ta'minlab beruvchi davlat organlarining butun tizimi inson huquqlari bo'yicha milliy, davlatning ichki muassasalari bilan to'ldirildi.

4.3. O'zbekiston Respublikasidagi inson huquqlari bo'yicha milliy tashkilotlarning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida Vena deklaratsiyasi hamda Harakat dasturi asosida inson huquqlari bo'yicha quyidagi milliy institutlar tashkil etildi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquq huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) inson huquqlariga oid mavjud qonunchilik ustidan uning bajarilishi borasida nazorat funksiyalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi hamda o'ziga berilgan vakolatlar va vositalar asosida nafaqat buzilgan huquqlarni tiklaydi, balki shu sohadagi qonunchilikning takomillashtirishiga ham hissasini qo'shadi.

Ushbu organning ustuvor vazifasi inson huquqlari va erkinliklarini to'la himoyalash va samaradorligini oshirish, davlat organlari, sud, huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish, inson huquqlari va erkinliklari borasida yuzaga kelgan huquqbuzarliklarning oldini olish, buzilgan huquqlarni tiklash hisoblanadi.

Hozirgi davrda dunyodagi ko'plab mamlakatlarda 100 dan ortiq ombudsmanlar faoliyat olib bormoqda. Ba'zi mamlakatlarda Ombudsman, ayrimlarida vositachilar (mediatorlar), boshqalarida parlament qoshidagi vakil, O'zbekistonda esa inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) deb nomlanadi.

Xorijiy mamlakatlar tarixi va amaliyotida ombudsmanning ikki turi mavjud: parlament ombudsmani (Shvetsiya, Buyuk Britaniya) va ijroiya hokimiyat ombudsmani (AQSH, Fransiya, Kanada).

Ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy nochor aholi qatlamlarining huquqlarini himoya qilish bola huquqlari, harbiylar, kasallar masalasi bo'yicha ixtisoslashgan ombudsmanlar o'z faoliyatini olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshidagi Inson huquqlari bo'yicha vakolatga ega organ (ombudsman) inson huquqlari bo'yicha xolis yordam beruvchi ya'ni: norasmiy, tezkor, bepul harakat qila oladigan malakali organ sifatida faoliyat olib boruvchi mansabdor shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ombudsmanining asosiy vazifasi davlat organlari ma'muriyati faoliyatining to'g'ri va adolatli harakat qilishini ta'minlashdan iborat. Ombudsman fuqarolarning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqadi va ularning qonun hamda xalqaro huquq normalari asosida himoya qilinishi, tegishli davlat organlarida ko'rib chiqilishiga harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ombudsmanining faoliyati, vakolati va huquqiy maqomi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solingan.

1996-yil 31-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi xalqaro huquqning inson huquqlari va erkinliklari sohasida umum e'tirof etilgan prinsiplari va me'yorlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat siyosatini amalga oshirish borasida davlatga qarashli tahliliy, maslahat beruvchi, idoralararo muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi.

Ushbu Markaz inson huquqlarini himoya qilishga aloqador bo'lgan barcha davlat va nodavlat organlarining faoliyatini tartibga solish maqsadida tashkil etilgan.

Markaz inson huquqlarining milliy va xalqaro himoya qilinishi hamda ta'minlanishining turli nuqtai nazarlarini o'rganadi. BMTning konvensiyaviy organlariga inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarning bajarilishi haqida milliy ma'ruzalar tayyorlaydi. Ilmiy tashriflar, seminarlar, ma'ruzalarni tashkillashtiradi. Inson huquqlari bo'yicha o'quv dasturlari yaratilishida va uning amalga oshirilishida o'z hissasini qo'shadi. Inson huquqlari haqidagi ma'lumotlarni to'playdi va tarqatadi. Inson huquqlari sohasidagi tashkilotlar va xalqaro markazlar bilan texnik hamkorlik va axborot almashuvini rivojlantirishda ko'maklashadi. Inson huquqlarini himoya

qilish, ta'minlashda hamda jamiyatni demokratlashtirishda texnik masalalarga yordam beruvchi xalqaro agentliklarning faoliyatini tartibga soladi. Inson huquqlari buzilishi masalalari borasida aholidan murojaat va shikoyatlarni qabul qiladi va ko'rib chiqadi.

Markazning asosiy maqsadi – huquq va erkinliklarni himoya qilish ko'p tarmoqli tizimining kompleks tartibda birinchi darajali masalalarini hal etish – inson huquqlari sohasida Milliy dastur ishlab chiqish va tatbiq etishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti qonunchilik ustidan monitoring olib boruvchi, qabul qilinishi kerak bo'lgan qonunlarni ekspertizadan o'tkazuvchi ilmiy-ekspertiza hamda tadqiqot olib boradigan tizim hisoblanib, davlat rahbarining qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishga ko'maklashadi. Ushbu institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlar jarayonini, hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipining hayotga izchil tatbiq etilishini tizimli tahlil qilish, ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati tarmoqlarining mustaqilligi va erkinligini kuchaytirish, ularning kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini, ular o'rtasida muvozanatni ta'minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– hokimiyatning ijro etuvchi tarmog'ini isloh qilish va demokratlashtirish masalalarini kompleks o'rganish, ayrim hokimiyat vakolatlari va funksiyalarini markaziy davlat hokimiyati organlaridan, hukumatdan boshlab mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, siyosiy partiyalarning parlamentdagi fraksiyalari, joylardagi deputatlik guruhlarining qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini chuqur o'rganish, siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini shakllantirishdagi, ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan samarali parlament, deputatlik nazoratini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– jamiyatda demokratiya va adolatni ta'minlashning eng muhim omili sifatida sud hokimiyati mustaqilligi va erkinligini mustahkamlash jarayonlarini kompleks tahlil qilish, sudni inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini muhofaza va himoya etishga xizmat qiladigan davlatning tom ma'nodagi mustaqil institutiga aylantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini hayotga tatbiq etish, ularning samarali tarzda, kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta’minlash bo‘yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasini tizimli o‘rganish, ushbu tajribadan globallasuv sharoitida jahonda ro‘y berayotgan demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda davlat qurilishi tizimida foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yo‘lida ixtisoslashgan organdir. Boshqarmaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

inson huquqlari va unga amal qilish sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish;
inson huquqlari sohasidagi mavjud qonunchilikni mukammallashtirish;
Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilab qo‘yilgan inson huquqlari bo‘yicha qonunlarga amal qilishni ta’minlash.

Adliya vazirligining Inson huquqlarini himoya qilish Boshqarmasi inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi aholining huquqiy ongini oshirishda turli tadbirlarni ishlab chiqadi. Jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tashviqotlar olib boradi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda qatnashuvchi advokatlik tizimining rolini kuchaytirishga ko‘maklashadi hamda fuqarolik jamiyati institutlarini tuzishga va ularning huquqiy asosini kuchaytirishga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib boruvchi xalqaro va nodavlat tashkilotlar bilan birgalikda ish olib boradi.

2008-yilda esa Ichki ishlar vazirining buyrug‘i asosida Inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta’minlash boshqarmasi tashkil qilingan.

Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– inson huquqlarini himoya qilish va ushbu sohada xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
– ichki ishlar organlarida davlat huquqiy siyosatining amalga oshirilishini ta’minlash;
– ichki ishlar organlari faoliyatida qonunchilikni ta’minlash;
– normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish, hisobini yuritish;
– ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda Ichki ishlar vazirligi va tizimlarining inson huquqlari sohasidagi ijobiy faoliyatini ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka yetkazish.

O‘zbekistondagi ijtimoiy nochor bolalar masalasi bo‘yicha Bolalarni ijtimoiy himoya qilish markazi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil topgan bo‘lib, u bolalarning ijtimoiy himoya-

sini baholash va monitoring qilish, ijtimoiy nochor bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilish sohasida normativ hujjatlarni ishlab chiqish va tahlil etish bilan shugʻullanadi.

Mamlakatda davlat organlari bilan yaqin aloqada boʻlgan inson huquqlari va erkinliklarining alohida turlarini himoya qilish va ragʻbatlantirish boʻyicha bir qator nodavlat tashkilotlar oʻz faoliyatini olib bormoqda.

«Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini oʻrganish markazi nodavlat muassasa boʻlib, omma fikrini oʻrganish bilan birgalikda, ularning respublikaning siyosiy va madaniy rivojlanishi, fuqarolarning ijroiya, sud hokimiyati hamda Oʻzbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yoʻlida tuzilgan yangi tuzilmalarga nisbatan munosabatini oʻrganadi.

Koʻp millatli mamlakat hisoblangan Oʻzbekistonda 140 dan ortiq milliy madaniy markazlar oʻz faoliyatini olib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi 10-sonli qarori asosida Respublika baynalmilal madaniy markazi tashkil etildi. Markaz barcha madaniy markazlarga amaliy va metodik jihatdan yordam berish bilan birgalikda, mamlakatda istiqomat qiluvchi turli millat va elatlar vakillarining ehtiyojlarini qondirishda oʻz koʻmagini koʻrsatadi. Markazda 33 nafar xodim faoliyat olib bormoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshida vakolatga ega boʻlgan Inson huquqlari boʻyicha organ (Ombudsman), Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti, Inson huquqlari boʻyicha milliy markaz vazifalari va maqomidagi tafovutlarning tahlili bir-birining mustaqil, shu bilan birga, bir-birini toʻldirib boruvchi faoliyati ularning haqiqiy sherik ekanligini koʻrsatadi. Ularning barchasi keng maʼnoda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va taʼminlashda ishtirok etadi. Oʻz faoliyati bilan ular jamiyatdagi birdamlikni saqlab qolishga, davlatdagi barqarorlik va xavfsizlikni taʼminlashga yordam beradilar va shu bilan inson huquqlari madaniyatini rivojlantirishga hamda ularni himoya qilish orqali milliy taraqqiyotga oʻz hissasini qoʻshadi.

4.4. Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro mexanizmining umumiy tasnifi

Inson huquqlarini taʼminlash kafolatlarining xalqaro mexanizmi negizida, inson mazkur sohada davlatlararo tadbirlar munosabatlarini oʻz ichiga oladi. Ular inson huquqlarining buzilishi boʻyicha kelib tushgan xabar, murojaatlar va boshqa maʼlumotlarni koʻrib chiqish tartibi, usullari, tekshiruv oʻtkazish hamda qabul qilingan qarorlar toʻgʻrisida tavsiyalar berishdan iboratdir. Xalqaro mexanizm inson huquqlarini himoya qilish

jarayonini nazorat qiluvchi muayyan tashkiliy tuzilmalar (inson huquqlari bo'yicha xalqaro sudlar, qo'mitalar, komissiyalar, ishchi guruhlar, maxsus ma'ruzachilardan iborat xalqaro tashkilotlar)ni o'z ichiga oladi. Bir nazorat qiluvchi organ doirasida turli protseduralardan foydalanish mumkin. U yoki bu nazorat qiluvchi organ tarkibiga kiruvchi shaxslar muayyan davlat vakili bo'lishi mumkin, ammo ko'pincha mustaqil shaxs sifatida faoliyat yuritadilar, ya'ni ular (sudyalar, maxsus ma'ruzachilar, ekspertlar) o'z davlatlaridan topshiriq olmaydilar va faoliyatlari bo'yicha davlatlari oldida javobgar emasdir.

Inson huquqlari va shaxsiy hayotni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro protseduralarni axborot to'plash uslublari va manbalariga ko'ra quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

birinchidan, davlatlarning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi majburiyatlari bajarilishi haqidagi ma'ruzalarini xalqaro tashkilot yoki boshqa organlarda ko'rib chiqish;

ikkinchidan, davlatlarning bir-biriga nisbatan bunday majburiyatlarining buzilishi bo'yicha tushgan ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish;

uchinchidan, u yoki bu davlat tomonidan individual tartibdagi shikoyatlar, alohida shaxslar, guruhlar va nodavlat tashkilotlar huquqlarining buzilishi borasida berilgan arizalarni ko'rib chiqish;

to'rtinchidan, inson huquqlari va shaxsiy hayotni muhofaza qilishi bo'yicha yuz berishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklarni o'rganib chiqish.

Xalqaro nazorat mexanizmlari, odatda, konsensus yoki ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan o'z qarorlarini qabul qiluvchi jamoaviy organlardan iborat. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa sudi qarorlari majburiy xususiyatga ega bo'lsa, YUNESKO Ijroiya Kengashining Konvensiya va tavsiyalar qo'mitasi qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, bu qarorlar ham Ijroiya Kengashi tomonidan maqullanishi talab etiladi.

Universal xalqaro tashkilotlar ichida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha BMT va uning organlari alohida o'rin egallaydi. BMT Bosh Assambleyasi bir necha marotaba bu borada rezolyutsiyalar qabul qilgan, uning roli «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ni qabul qilishda, 1966-yilda inson huquqlari bo'yicha paktlarni ishlab chiqishda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etdi. Qayd etish lozimki, inson huquqlarini himoya qilish va shaxsiy hayotni muhofaza qilish masalasi Bosh Assambleyaning Gumanitar masalalar bo'yicha rezolyutsiyalar loyihasini tayyorlovchi Uchinchi qo'mitasining vakolatiga kiradi. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha kengashi ham inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha o'z vakolati doirasida qarorlar qabul qiladi.

BMTning inson huquqlarini himoya qilish va ularni har bir ijtimoiy sohada qo'llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi ixtisoslashgan muassasalari (XMT, YUNISEF, XSST, YUNESKO)ning faoliyati va hujjatlarini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarni tasdiqlovchi mintaqaviy tashkilot Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotini ham alohida ko'rsatib o'tish lozim. Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hujjatlariga binoan har bir davlat «inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq o'z siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarini erkin tanlashi va rivojlantirish huquqiga ega, ular qabul qilgan qonunlar, ma'muriy qoidalar va siyosati ularning xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlariga muvofiq kelishi kerak».

Nihoyat, YXHTning 1991-yilgi Insoniylik mezonlari bo'yicha Moskva konferensiyasi hujjatida quyidagilar belgilab qo'yilgan: «inson huquqlari, asosiy erkinliklari, demokratiya, qonun ustuvorligiga taalluqli masalalar xalqaro xususiyat kasb etadi... va bu tegishli davlatlarning faqatgina ichki ishlari bo'lib qolmaydi». Shunday qilib, inson huquqlarini xalqaro himoya qilish instituti legallashtirildi.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro va davlat ichki himoya qilish funksiyalari quyidagicha farqlanadi: inson huquqlari sohasida xalqaro standartlar xalqaro darajada ishlab chiqiladi va nazorat organlari ularga rioya etilishi ustidan faoliyat yuritadi, davlat milliy darajada esa, o'zining qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtiradi va ularning bajarilishini kafolatlaydi.

1965-yilda BMTning Irqiy kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilingandan boshlab, xalqaro nazorat organlari inson huquqlari bo'yicha universal konvensiyalarda zaruriy tarkibiy tuzilmalarga aylandi. Konvensiyalar bazasida tashkil etilgan xalqaro nazorat organlari (Irqiy kamsitishlarni tugatish qo'mitasi, Inson huquqlari bo'yicha qo'mita, Qiynoqqa qarshi qo'mita, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita)-ga davlatlardan ularning qonunchiligi konvensiya qoidalariga muvofiq kelishi to'g'risida axborotlarni davriy ravishda taqdim etilishini talab etish vakolati berildi. Ayrimlariga esa konvensiyalarda ko'zda tutilgan davlatning davlatga nisbatan inson huquqlarini buzishi, fuqaroning davlatga nisbatan individual shikoyatini ko'rib chiqish va buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha davlatlarga tavsiyanomalar ishlab chiqish vakolatiga ega bo'ladilar.

Mintaqaviy konvensiyalarda, konvensiya qoidalari buzilgan taqdirda, davlatning davlatga nisbatan va individning davlat ustidan beradigan

shikoyatini ko‘rish huquqi bo‘lgan Inson huquqlari bo‘yicha sudni tashkil etishni nazarda tutib, yanada samaraliroq mexanizm yaratildi. Qayd etish kerakki, ushbu sudning qarorlari davlat uchun majburiy hisoblanadi.

Shunday qilib, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmi mavjudligi davlatlar tomonidan inson huquqlariga rioya qilish bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlarni yaratishga qaratilgandir.

Umum e‘tirof etilgan inson huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha xalqaro mexanizmning yaratilishi bu sohada xalqaro tartibga solishda erishilgan eng katta yutuqlardan biridir.

4.5. Inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmi bo‘yicha BMT tarkibi

Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha BMT tizimiga nafaqat uning Nizomida ko‘rsatilgan asosiy va yordamchi organlar, balki ular o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar ham kiradi.

Xalqaro organlar faoliyati va ularni muvofiqlashtirish BMT tizimi umum e‘tirof etilgan inson huquqlari himoyasi sohasida hamkorlik qilishda katta ahamiyatga ega. Bu shunisi bilan ham muhimki, mazkur muammoning ko‘p jihatlari xalqaro huquq va davlat ichki (milliy) huquqining o‘zaro to‘qnashuvida joylashib huquqning turli sohalariga tegishli bo‘ladi.

BMT tizimida umum e‘tirof etilgan inson huquqlarini amalga oshirish va xalqaro himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi bo‘linmalarning tarmoqlashtirib ketgan tuzilmasi shakllangan va faoliyat ko‘rsatmoqda. Umum e‘tirof etilgan inson huquqlarini amalga oshirish va ularni himoya qilish bo‘yicha BMT tizimidagi organ va tashkilotlarning vazifalari hamda vakolatlariga quyidagilar kiradi:

birinchidan, inson huquqlari to‘g‘risida xalqaro huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

ikkinchidan, inson huquqlari sohasida davlatlar qabul qilgan o‘z majburiyatlarini amaliyotda qo‘llayotganligi ustidan nazoratni amalga oshirish;

uchinchidan, inson huquqlari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahat xizmatini ko‘rsatish va axborot yetkazish.

BMT tizimidagi barcha organlar – Nizomida nazarda tutilgan yoki yordamchi organlar inson huquqlariga taalluqli masalalar bilan u yoki bu doirada shug‘ullanadi.

BMTning inson huquqlari bilan shug‘ullanuvchi alohida organlarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro mexanizmi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

- BMT Ustavida ko‘rsatib o‘tilgan organlar;
- BMTning konvensiyaviy organlari;
- maxsus protseduralar;
- BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari.

BMT Ustavida nazarda tutilgan organlarga:

- BMT Bosh Assambleyasi;
- Xavfsizlik Kengashi;
- Bosh Assambleyaning Gumanitar va ijtimoiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi Uchinchi qo‘mitasi;
- Iqtisodiy va ijtimoiy kengash;
- BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashini kiritish mumkin.

BMT Ustavining 13-moddasiga muvofiq, Bosh Assambleyaning asosiy funksiyalaridan biri «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohasida xalqaro hamkorlikka va irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar, inson huquqlarini amalga oshirishga yordam berish»dan iboratdir. Bosh Assambleya inson huquqlari bilan bog‘liq masalalarning katta qismini gumanitar va ijtimoiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi Uchinchi qo‘mita ko‘rib chiqishi uchun taqdim etadi.

Bosh Assambleya vakolatlari «ratione vateriae», ya’ni deyarli cheklanmagandir. BMT Ustavining 10-moddasiga muvofiq, Bosh Assambleyaning vakolatiga «mazkur Nizom doirasida har qanday masala yoki ishni muhokama qilish» va bu borada a’zo davlatlarga takliflar berish kiradi.

Huquqiy jihatdan Bosh Assambleya tomonidan inson huquqlari va boshqa sohalarda qabul qilinadigan tavsiyanomalar BMT Ustaviga binoan, Tashkilotning a’zo davlatlari uchun yuridik majburiy hisoblanmaydi. Yana shuni ham qayd etish kerakki, Bosh Assambleya rezolyutsiyalari BMT Ustavining 55 va 56-moddalariga binoan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik qilishda a’zo davlatlarning umumiy majburiyatlarini hisobga olgan holda katta nufuzga ega. Bosh Assambleya tavsiyanomalari, ayniqsa, agar bu tavsiyanoma bir ovoz bilan konsensus asosida yoki «qarshi» ovozsiz qabul qilinsa, o‘ta ta’sirchan bo‘ladi. Bosh Assambleyaning rezolyutsiyalari, barcha davlatlar uchun majburiy inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning muayyan prinsiplari va normalari mavjud ekanligidan guvohlik beradi. BMT faoliyatini boshlagandan buyon 1948-yilgi «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» e’lon qilinganligi to‘g‘risidagi rezolyutsiya bilan birgalikda ko‘plab rezolyutsiyalar qabul qilgan.

Shuningdek, Bosh Assambleyaning rezolyutsiyalari erkaklar va ayollarning ayniqsa, siyosiy huquqlari borasida tengligi, kasaba uyushmalar huquqlarini himoya qilish va majburiy mehnatni taqiqlash masalalariga

daxldordir. Oxirgi ikki masala Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)ning vakolatiga taalluqli hisoblanib, Bosh Assambleya ularni BMT ixtisoslashgan tashkilotining iltimosiga ko'ra va u bilan hamkorlikda ko'rib chiqadi.

Inson huquqlari sohasida o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun Bosh Assambleya BMT Ustavining 22-moddasiga muvofiq, zaruratga qarab, turli yordamchi organlar tuzishi mumkin. Ulardan ayrimlari **ad hoc** shaklida tuzilib, boshqalari esa o'z xususiyatiga qarab, doimiy ravishda tuziladi yoki uzoq muddat faoliyat ko'rsatadi.

Bosh Assambleya 1993-yilda Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar lavozimini ta'sis etish to'g'risidagi rezolyutsiyasini qabul qildi. Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar Bosh kotib tomonidan tayinlanadi va uning o'rinbosari hisoblanadi.

Xavfsizlik Kengashi – BMTning shunday organiki, BMT Ustavining 24-moddasiga ko'ra, unga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha asosiy mas'uliyat yuklatilgan. BMT faoliyatini insonning asosiy huquq va erkinliklarini ommaviy va qo'pol ravishda buzilishini bartaraf etish uchun ham yanada faollashtirish zarur. Chunki inson huquqlari va erkinliklarining buzilishi tinchlik va xalqaro xavfsizlik uchun xavf, raxna soladi va xalqaro miqyosdagi jinoiy qilmish hisoblanadi. BMT Ustavining VII bo'limiga binoan, bunday huquqbuzarlikni yo'q qilish uchun choralar qo'llashi mumkin va shartdir. Biroq qurolli kuchlardan foydalanish bilan bog'liq choralar davlatlar tomonidan yakka tartibda va faqat BMT nomidan Xavfsizlik Kengashi qarori asosida qo'llaniladi. BMTning har bir a'zosi Xavfsizlik Kengashi yoki Bosh Assambleyaga har qanday nizo yoki vaziyat to'g'risida, tinchlik va xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi vaziyatni bartaraf etish (BMT Ustavi 35-moddasi, 1-bandi) uchun biror-bir chora ko'rishni so'rab murojaat qilishi mumkin. Xavfsizlik Kengashining inson huquqlarining jinoiy buzilishini bartaraf etish bo'yicha sanksiyalarni qo'llash to'g'risidagi qarori BMTning barcha a'zolari uchun majburiydir.

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga (EKOSOS) BMT Ustavining 62-moddasiga binoan, «barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish va ularga rioya qilishni rag'batlantirish maqsadlarida tavsiyalar qilish» vakolati berilgan. U Bosh Assambleyaga taqdim etish uchun inson huquqlari bo'yicha konvensiyalar loyihalarini taqdim etishi va xalqaro konferensiyalar chaqirishi mumkin. BMT Ustavining 68-moddasiga binoan, Kengash «iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda va inson huquqlarini rag'batlantirish bo'yicha komissiyalar tuzadi». Kengashga inson huquqlari masalalarida yordam ko'rsatish maqsadida EKOSOS: Inson huquqlari va ayollar ahvoli

bo'yicha komissiyalar hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitani ta'ris etdi.

EKOSOS o'z faoliyatini sessiyalar bo'yicha qo'mitalari – Iqtisodiy, Ijtimoiy va Muvofiqlashtiruvchi qo'mitalari yordamida amalga oshiradi. Inson huquqlari masalalari bo'yicha hujjatlarni Ijtimoiy qo'mita tayyorlaydi. Uning ma'ruzalari EKOSOSning yalpi yig'ilishlarida tasdiqlanadi.

Bundan tashqari, dunyoning barcha hududlarida BMT Bosh kotibining inson huquqlari himoyasi ta'minlanuvchilarning ahvoli masalalari bo'yicha ixtisoslashgan vakili bor.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiya va Bosh Assambleyasiga yuqorida qayd etilgan maxsus organlar tomonidan taqdim etiladigan ma'ruzalar ochiq sessiyalarda muhokama qilinadi va Inson huquqlari bo'yicha komissiyaning mazkur masalalar bo'yicha har qanday qaror qabul qilishida muhim element hisoblanadi.

BMT Ustavida ko'rsatib o'tilgan organlarga inson huquqlarini himoya qilish bilan bevosita yoki bilvosita shug'ullanuvchi BMT Bosh Assambleyasini, uning gumanitar va ijtimoiy masalalar bo'yicha Uchinchi qo'mitasini, shuningdek BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashini ham kiritish mumkin.

BMT tizimida Bosh Assambleya asosiy tuzilmalardan biri bo'lib, inson huquqlarini rag'batlantirish sohasida katta vakolatlarga ega organ hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur organlar faoliyatining eng muhim bo'lgan yo'nalishlaridan biri inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirishga hamda iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar sohalarda, shuningdek madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash sohaslarida xalqaro hamkorlikka ko'maklashishdir.

O'zbekistonning inson huquqlari sohasida mazkur organ bilan hamkorligi Bosh Assambleyaning ijtimoiy va gumanitar masalalar bilan shug'ullanuvchi Uchinchi qo'mitasi orqali amalga oshirilmoqda. O'zbekiston inson huquqlari sohasida ta'lim, o'lim jazosini bekor qilishi, inson huquqlari bo'yicha teng huquqli va o'zaro hurmatga asoslangan muloqotni rag'batlantirish to'g'risidagi tashabbuslarni ilgari surib va qo'llab-quvvatlagan holda, uning yig'ilishlarida, faol ishtirok etmoqda.

BMT Ustavida nazarda tutilgan organlar orasida O'zbekiston bilan yaqindan hamkorlik o'rnatgan Inson huquqlari bo'yicha kengash (IHK) ko'proq qiziqish uyg'otadi. Inson huquqlari bo'yicha kengash BMTning diskriminatsiyaga uchragan va siyosiydashgan Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi o'rnini egallagan bo'lib, BMT Bosh Assambleyasining 2006-yil 15-martdagi 60/251-rezolyutsiyasiga binoan ta'ris etildi. Mazkur hukumat-

lararo organ yilda uch marta Jeneva shahrida yig'iladi va BMTga a'zo davlatlar orasidan 3 yil muddatga saylanadigan 47 a'zodan iborat tarkibga ega. Inson huquqlari bo'yicha kengash – tengsizlikni, kamsitishlarni bar-taraf etish, nisbatan zaif himoyalangan guruhlar huquqlarining ta'minla-nishi uchun tuzilgan organdir.

Kengash o'z ishini bir necha yo'nalishlarda amalga oshiradi:

- universal davriy tahlil;
- maxsus protseduralar;
- shikoyatlar bo'yicha protseduralar.

60/251-rezolyutsiyaga binoan, Inson huquqlari bo'yicha kengashga quyidagi vakolatlar berilgan: «Har bir davlat tomonidan, uning faoliyati-ning universalligi hamda barcha davlatlarga nisbatan teng munosabatda bo'lishini ta'minlab berishi mumkin usullar bilan o'z majburiyatlarini amalga oshirishi bo'yicha obyektiv va ishonchli axborotlarga asoslangan Universal davriy tahlilni o'tkazish. Tahlil manfaatdor davlatni, uning imkoniyatlarini mustahkamlash maqsadida ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda, o'zaro muloqotga to'liq jalb etishga asoslangan hamkorlik mexa-nizmidir. Bunday mexanizm shartnomaviy organlar ishlarini takrorlamay-di, balki to'ldiradi».

Universal davriy tahlil – yangi jarayon bo'lib, unga ko'ra, 2008-yildan boshlab BMTning barcha 192 a'zosi har to'rt-besh yilda undan o'tishlari kerak. O'zbekiston Respublikasi 2008-yil dekabrda Universal davriy tahlilga Inson huquqlari bo'yicha kengashning 3-sessiyasida o'z ma'ruzasini taqdim etdi. Inson huquqlari bo'yicha rezolyutsiyaga ko'ra, ko'rib chiqishga asos bo'luvchi hujjatlar quyidagilardir:

birinchidan, manfaatdor davlat tomonidan milliy ma'ruza shaklida tayyorlangan ma'lumot, shuningdek ushbu davlatga tegishli yozma yoki og'zaki tarzda taqdim etiladigan ma'lumotlar;

ikkinchidan, Inson huquqlari bo'yicha Oliy Komissar boshqarmasi tomonidan tayyorlangan konvensiyaviy organlar ma'ruzalari, maxsus jarayonlar manfaatdor davlatning tahlil va sharhlari va BMTning tegishli hujjatlariga asoslangan qo'shimcha ma'lumotlar;

uchinchidan, universal davriy tahlil boshqa organlar tomonidan tayyorlangan qo'shimcha ma'lumot, o'z navbatida, Kengash tomonidan ko'rib chiqilishi davomida hisobga olinishi va Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi tomonidan yagona hujjat holiga keltirilishi lozim. Bu organlar o'z ichiga nodavlat tashkilotlar, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, ilmiy muassasalar va tadqiqot institutlari, mintaqaviy tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillarini qamrab oladi.

Universal davriy tahlilning jarayonlari siyosiyashmagan va tahlil asosida qabul qilinuvchi qarorlar obyektiv xolis yondashuvni fikrlar xilma-xilligini e'tiborga olishi va konvensiyaviy organlarning takrorlamasligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Inson huquqlari bo'yicha kengash faoliyatining boshqa shakli – «maxsus protseduralar – BMT Inson huquqlari komissiyasi tomonidan ta'ris etilgan va Inson huquqlari bo'yicha kengash tomonidan davom ettirilgan, alohida davlatdagi vaziyatga yoki Mavzu bo'yicha barcha davlatlarga qaratilgan mexanizmlarga berilgan umumiy nomdir». Hozirgi kunda 28 ta Mavzuga oid va 10 ta mamlakat bo'yicha mandatlar mavjud.

Bugungi kunda quyidagi mavzular borasida maxsus ma'ruzachilar mavjud:

- qiynoqlar;
- noqonuniy qatl etish;
- e'tiqod erkinligi;
- yollanma askarlar;
- bolalar savdosi;
- irqchilik va ksenofobiya;
- so'z erkinligi;
- sud hokimiyatining mustaqilligi;
- ayollarga nisbatan kuch ishlatish;
- zaharli chiqindilar;
- migrantlar huquqlari;
- yashashning qoniqarli shartlari;
- ovqatlanish huquqi;
- ta'lim huquqi va boshq.

Mandatlariga ega mandatariylar, odatda, mandat bo'lgan mamlakatlarni, alohida mamlakat yoki hududlarda inson huquqlari bo'yicha yoki butun dunyoda inson huquqlari buzilishining umumiy vaziyatiga nisbatan Mavzuga oid mandatlar vaziyatni ko'rib chiqish, monitoring o'tkazish, maslahatlar berish va ma'ruzalarini chop etishga chaqiradi. Maxsus protseduralar tomonidan individual shikoyatlarga javob berish, tadqiqotlar o'tkazish, mamlakatlarga operativ texnik yordam berish va umumiy tadbirlarga jalb etish kabi turli faoliyatlar amalga oshiriladi. Individual yoki ishchi guruh, odatda (ular «maxsus ma'ruzachi», «Bosh kotib qoshidagi maxsus vakil», «Bosh kotib qoshidagi vakil yoki mustaqil ekspert» deb ataladi) besh a'zodan (har bir mintaqadan bittadan) iborat bo'ladi. Maxsus protseduralar mandatlarini ularni tashkil etuvchi alohida rezolyutsiya bilan belgilanadi. Maxsus protseduralar bo'yicha mandat egalari shaxsan ishtirok etadilar va o'z ishlari uchun hech qanday pul mablag'lari yoki maosh olmaydilar.

Maxsus protseduraning asosiy faoliyatiga inson huquqlari buzilishi yuzasidan ma'lumotlarni olish va mamlakatlarga holat yuzasidan tushuntirish berilishini so'rab, tezda so'rovnoma va xat jo'natish kiradi.

Mandat ishtirokchilarining milliy darajada inson huquqlari bo'yicha holatlarni tekshirishlari uchun mamlakatga tashrifi yuzasidan rozilik so'raladi.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi (IHOKB) har xil jarayonlarda vazifa bajaradigan turli tashkilot va muassasalarda xizmat ko'rsatadigan xalqaro xodimlardan tashkil topadi.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Jenevada joylashgan. Nyu-York shahrida uncha katta bo'lmagan bo'limi va dunyo bo'yicha joylarda aloqada bo'lib turish uchun bir qancha vakolatxonalar bor.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissarining asosiy vazifalari quyidagilar:

birinchidan, Inson huquqlari bo'yicha komissiya va uning kichik komissiyalariga xizmatini taqdim etish;

ikkinchidan, Bosh Assambleya tomonidan belgilangan tekshiruv, nazorat va tergovning turli protseduralarini qo'llab-quvvatlash;

uchinchidan, shartnomalar ijrosi ta'minlanishini nazorat qiluvchi organlarga xizmatlar taqdim etish;

to'rtinchidan, komissiya yoki kichik komissiyalar so'rovnomasi asosida inson huquqlariga bag'ishlangan turli masalalar yuzasidan tekshiruv ishlarini olib borish;

beshinchidan, milliy darajada inson huquqlarini implementatsiya qilishda davlatlarni qo'llab-quvvatlashlar (mutaxassislarni tayyorlash, yuridik yordam va ma'lumot almashish)ni amalga oshirish.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarma boshlig'i hisoblanadi.

1993-yilda Venada o'tkazilgan Inson huquqlari bo'yicha II Butunjahon konferensiyasida BMT Bosh Assambleyasi birinchilardan bo'lib BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy Komissari lavozimini ta'sis etish yuzasidan taklif bildirdi.

1994-yil Bosh Assambleya rezolyutsiya qabul qildi va Oliy komissar boshqarmasining birinchi komissari etib *Xose Ayyalo Lasso* (Ekvador) tayinlandi.

Bosh Assambleya Oliy komissarni «BMT faoliyatidagi inson huquqlari bo'yicha mas'ul va Bosh kotib rahbarligi ostidagi asosiy mansabdor shaxs» deb e'lon qildi.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar, inson huquqlarini himoya qilishdagi xalqaro aloqalarning mustahkamlanishiga rioya qilish, BMT

tizimi doirasida inson huquqlari bo'yicha faoliyatga va Inson huquqlari bo'yicha Markaz faoliyatini amalga oshirishga mas'uldir.

BMT tomonidan qabul qilingan inson huquqlari bo'yicha ikkita xalqaro pakt va to'rtta konvensiya asosida ta'sis etilgan BMT konvensiyaviy organlarining faoliyati umum e'tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan va asosiy funksiyalaridan biri davlatlarning milliy ma'ruzalarini ko'rib chiqishdan iborat bo'lgan BMT inson huquqlari bo'yicha konvensiyaviy organlari tizimining paydo bo'lganligiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ular tashkil etilgunga qadar Inson huquqlari komissiyasining tavsiyasi bo'yicha EKOSOSning 1965-yilgi qaroriga asosan, BMT a'zolari Bosh kotibga har yili u yoki bu huquqlarni amalga oshirish bo'yicha yillik hisobotlarni topshirar edi.

Inson huquqlari bo'yicha ikki xalqaro pakt kuchga kirgandan so'ng, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, shuningdek fuqarolik va siyosiy huquqlar hamda axborot erkinligi to'g'risidagi milliy hisobotlarni taqdim etish tizimi bir qator xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan yangi protseduralar bilan almashtirildi.

Inson huquqlari bo'yicha qo'mita xalqaro paktlar va konvensiyalar asosida tashkil etilgan dastlabki nazorat organlaridan biridir. Xalqaro shartnomalarga rioya etishni nazorat qiluvchi funksiyani mazkur organ bilan bir qatorda, quyidagi organlar ham amalga oshiradilar:

- Irqiy kamsitishni tugatish bo'yicha qo'mita (1970);
- Ayollarga nisbatan kamsitishlarni tugatish bo'yicha qo'mita (1982);
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita (1985);
- Qiynoqqa qarshi qo'mita (1988);
- Bola huquqlari bo'yicha qo'mita (1990);
- Mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita (2003);
- Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita.

Ushbu qo'mitalarning ta'sis etilishiga yuqoridagi paktlar va konvensiyalar yuridik asos bo'lib xizmat qildi. EKOSOSga yordamchi organ sifatida ta'sis etilgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita bundan mustasnodir.

Inson huquqlari bo'yicha qo'mita 1977-yilda tashkil etildi. U 1966-yili qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalari amalga oshirilishini nazorat qiladi. Qo'mita 18 nafar a'zodan iborat bo'lib, a'zo davlatlar ularni o'z fuqarolaridan tayinlaydi hamda o'z funksiyalarini shaxsiy tarkibda amalga oshiradi.

1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga birinchi fakultativ protokolga muvofiq, Inson huquqlari bo'yicha qo'mita uning vakolatlarini tan olgan a'zo davlatlardagi sodir etilgan huquqbuzarliklar yuzasidan kelib tushgan xabar va arizalarni ko'rib chiqadi.

Qo'mita Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga e'tirof etilgan huquqlarning amalga oshirilishi borasida yuzaga kelgan choralar va jarayonlar haqidagi milliy ma'ruzalarni ko'rib chiqishga vakolatlidir. Bundan tashqari, paktning fakultativ protokoliga ko'ra, uni e'tirof etgan 97 ta davlat qo'mitaning, bu davlatlar ustidan mazkur paktga bayon qilingan o'z huquqlarining buzilganligi bo'yicha individlarning murojaatlarini ko'rib chiqish vakolatini tan olgan.

Qo'mita paktga a'zo davlatlarning milliy hisobotlarini ko'rib chiqish uchun yiliga uch marta yig'iladi. Uning sessiyalari uch haftagacha davom etadi va quyidagi tartibda: mart–aprel oylarida BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida, iyul, oktabr–noyabr oylarida Jenevadagi Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi qarorgohida o'tkaziladi.

Paktning ratifikatsiya qilgandan bir yoki ikki yil o'tgandan so'ng, davlat paktga e'tirof etilgan huquqlarga rioya qilinishiga oid milliy hisobot taqdim etishi shart. Bu dastlabki ma'ruza batafsil mazmunga ega bo'lishi, xususan, davlat ichki huquqining xususiyati va tuzilishi hamda aholi to'g'risida, shuningdek paktning har bir qoidaning amaliyotda qanday amalga oshirilayotganligining umumiy tahlili kabi ma'lumotlarni qamrab olishi kerak. Hisobotlarni taqdim qilishdan asosiy maqsad – u yoki bu mamlakatdagi inson huquqlari sohasidagi holat to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lish. Hisobotlarda nafaqat amaldagi konstitutsiyaviy qoidalar va qonunlar, balki pakt qoidalarining amaliyotda qanday qo'llanilayotganligi va davlatda inson huquqlari sohasining ahvoli to'g'risidagi dalil holatlar ham qayd qilinishi kerak.

Qo'mita paktning fakultativ protokolini ratifikatsiya qilgan a'zo davlatlarga nisbatan individual shikoyatlarni ham ko'rib chiqishi mumkin. Shikoyat tegishli jabrlanuvchi yoki uning tomonidan bunday harakatlar sodir etish vakolati berilgan boshqa shaxslar nomidan berilishi shart. Qo'mita «xalqaro sudlovda yoki xalqaro protsedurada ko'rib chiqilayotgan ishlarni» ko'rib chiqish uchun qabul qila olmaydi. Individual shikoyatlar yopiq majlislarda ko'rib chiqiladi. Shikoyat qilish uchun lozim bo'lgan shartlar quyidagilar:

- xabar anonim bo'lmasligi kerak;
- xabarlarini berishda huquqlardan foydalanish suiiste'mol qilinmagan bo'lishi lozim;
- xabar Paktning qoidalariga muvofiq kelishi kerak;

– huquqiy himoya qilishning barcha davlat ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lishi lozim.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mita 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning amalga oshirilishini nazorat qiladi. Qo‘mita o‘zining birinchi sessiyasini 1987-yilda o‘tkazgan. U inson huquqlari sohasida e‘tirof etilgan va o‘z xususiyatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatuvchi 18 vakildan iboratdir.

Qo‘mita yiliga ikki marta Jenevada may, noyabr–dekabr oylari bo‘lib o‘tadigan, 3 hafta davom etadigan sessiyalarga yig‘iladi. Uning sessiyalari jamoatchilik uchun ochiqdir. Har bir sessiyada bir haftalik ishchi guruh faoliyat yuritadi. Bu guruh Qo‘mitaning keyingi majlislarida ko‘rib chiqiladigan ishlarning qisqacha ro‘yxatini tayyorlaydi.

Qo‘mita iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga mavjud inson huquqlariga oid huquq va erkinliklarning amalga oshirilishida qo‘llanilayotgan tadbirlar borasidagi a‘zo davlatlarning xabarlarini ko‘rib chiqadi. Davlatlar mazkur paktga a‘zo bo‘lganidan so‘ng ikki yil ichida milliy hisobot taqdim etishlari kerak va undan so‘ng har besh yilda davriy hisobot taqdim qiladilar.

Davlatlarning milliy hisobotlari hamma uchun ochiq hujjatdir. Ular ochiq majlislarda ko‘rib chiqiladi va bu majlislarda davlatlar o‘zlarining hisobotlarini taqdim qiladilar hamda ular qo‘mita a‘zolarining savollariga javob beradilar. Qo‘mita o‘zaro muloqot davomida paktning normalari qanday qo‘llanilayotganligi bo‘yicha huquqni qo‘llash amaliyotini yana qanday qilib takomillashtirish mumkinligini aniqlashtiradi. Qo‘mita sessiyaning oxirgi kunida xavotirlanishga sabab bo‘ladigan asosiy mavzular muhokamasining yakuni sifatida a‘zo davlat uchun taklif va tavsiyalarni ifodalagan xulosaviy izohlar beradi.

Milliy hisobotning muhokamasi jarayonida faqat qo‘mitaning a‘zolari va a‘zo davlatning vakillari qatnashishlari mumkin. Nohukumat tashkilotlar muayyan davlatning hisoboti ko‘rib chiqilishidan oldin chaqiriladigan ishchi guruhning majlisida o‘zlarining xavotirlarini ifodalashlari mumkin. EKOSOSning maslahatchisi maqomiga ega nohukumat tashkilotlari ham paktga shakllantirilgan huquqlarning amalga oshirilishi va e‘tirof etilishiga muayyan darajada hissa qo‘shishga sabab bo‘lishi mumkin hisobotlarni va ma‘lumotlarni keltirishlari mumkin.

Irqiy kamsitishlarni tugatish bo‘yicha qo‘mita barcha turdagi irqiy kamsitishlarni bartaraf qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaning amalga oshirilishini kuzatib boradi. U a‘zo davlatlar tomonidan to‘rt yillik muddatga tayinlanadigan 18 nafar vakildan iboratdir.

Qo'mita konvensiya qoidalarining bajarilishi borasida qabul qilingan chora-tadbirlar va ushbu sohada erishilgan yutuqlar yuzasidan a'zo davlatlar tomonidan topshirilgan hisobotlarni o'rganib chiqadi.

Qo'mita konvensiyada e'tirof etilgan majburiyatlarning bajarilishiga bog'liq masalalar bo'yicha davlatlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni tartibga solish va alohida shaxslarning shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun doimiy ishchi guruhlar yoki maxsus kelishtiruvchi komissiyalar tashkil qiladi.

Qo'mita odatda, yiliga ikki marta yig'iladi. Uning sessiyalari uch hafta davom etadi: fevral-mart va avgust oylari Jeneva shahrida o'tkaziladi. A'zo davlatlarning hisobotlari qo'mita tomonidan ochiq majlislarda ko'rib chiqiladi.

Qo'mita quyidagi to'rtta funksiyani bajaradi:

- hisobotlarni ko'rib chiqish;
- oldini olishga yo'naltirilgan choralar ko'rish;
- hisobotni taqdim qilish kechiktirilsa, a'zo davlatda yuzaga kelgan vaziyatni majburiy tarzda ko'rib chiqish;
- individual xabarlar bo'yicha fikr-mulohazalarni ishlab chiqish.

Milliy hisobotlarni taqdim qilish uchun ikki yillik muddat o'rnatilgan.

Qo'mita o'z faoliyati yuzasidan Bosh Assambleyaga har yili hisobot berib turishi kerak va a'zo davlatlar tomonidan etilgan milliy hisobotlarni o'rganishga tayangan holda taklif va tavsiyalarni belgilashi mumkin.

Konvensiyaning 14-moddasida o'rnatilgandek, o'zlarining huquqlari buzilishi yuzasidan alohida shaxslar yoki shaxslar guruhi qo'mitaga shikoyat qilishlari mumkin. Bu vaqtga qadar ular bu huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlatdagi mavjud ichki imkoniyatlarning barcha vositalaridan foydalanib bo'lgan bo'lishlari lozim.

Biroq qo'mita konvensiya ishtirokchisi hisoblanadigan, ammo Qo'mitaning vakolatlarini tan olmaydigan davlatlarga nisbatan shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun qabul qila olmaydi. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan 156 davlatdan faqatgina 30 tasi qo'mitaning konvensiyaning 14-moddasida o'rnatilgan shikoyatlarni ko'rib chiqishga qabul qilish va ko'rib chiqish vakolatini e'tirof etganlar.

Qo'mita konvensiyadagi qoidalar hayotga tatbiq etilmasligiga oid vaziyatlar bir davlatda kuzatilsa, ikkinchi davlatning bunga doir shikoyatini ko'rib chiqishi kerak.

Xotin-qizlarni kamsitishlarga barham berish qo'mitasi 1982-yilgi Xotin-qizlarga nisbatan barcha ko'rinishdagi kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga asosan tuzilgan. Qo'mita 23 a'zodan iborat. Ular 4 yillik muddatga yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar. Bu

shaxslar yuksak axloqiy fazilatlarga hamda ayollar huquqlari sohasida muayyan bilimlarga ega bo'lishlari shart.

Qo'mita sessiyalarida o'zining a'zo davlatlar tomonidan taqdim etilgan hisobot va har qanday axborotlarni o'rganadi. Bu hisobotlarni ko'rib chiqish yakunida qo'mita taklif va tavsiyalarni, u, shuningdek konvensiyadagi majburiyatlarni bajarish yuzasidan a'zo davlatlar qo'llashi mumkin umumiy tavsiyalarni ham ishlab chiqadi.

1997-yildan boshlab qo'mita yiliga ikki marta yig'iladi. Uning yig'ilishlari uch hafta davom etadi va odatda, yanvar va iyul oylarida o'tkaziladi. Qo'mita o'z faoliyatini takomillashtirish yuzasidan 2001-yildan boshlab o'zining yig'ilishlarini Jenevada ham ikki yilda bir marta o'tkazadigan bo'ldi. Bu esa uning boshqa shartnomaviy organlar hamda BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan yaqin hamkorlik qilishiga imkon bermoqda.

Qo'mitaga konvensiyani bajarish davomida erishilgan progressiv jarayonlarni tahlil qilish yuklatilgan. U o'z yig'ilishlarida davlatlarning konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilganidan so'ng bir yil ichida taqdim qilgan hisobotlarini ko'rib chiqadi. A'zo davlatlar bundan keyin har to'rt yilda hisobot topshirishi shart. Har yili qo'mita EKOSOS orqali o'z faoliyati yuzasidan Bosh Assambleyaga hisobot topshiradi. Qo'mita a'zo davlatlar tomonidan berilgan milliy hisobotlarni o'rganishga tayangan holda taklif va tavsiyalar berishi mumkin. Davlatlarning vakillari o'z hisobotlarini og'zaki tarzda bayon qilishlari mumkin. So'ngra bundan keyin ekspertlarning izohlari eshitiladi va savollarga javoblar beriladi. Qo'mita sessiyaning yakunida Bosh Assambleyaning yillik hisobotlarida aks etadigan yakuniy fikr-mulohazalarni qabul qilishi lozim.

Qiynoqlarga qarshi qo'mita 10 nafar vakildan iborat bo'lib, ular a'zo davlatlar tomonidan saylanadi. Ular Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid, qadr-qimmatni kamsituvchi tur-lariga qarshi konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlarning hisobotlarini ko'rib chiqadilar.

Qo'mita milliy hisobotlarni ko'rib chiqish, o'rganish va a'zo davlatlarga yo'nalishlar berish hamda Bosh Assambleyaga o'zining fikr-mulohazalarini yuborishdan tashqari, yashirin tergov o'tkazish vakolatiga ham ega. Davlat hududida tizimli ravishda qiynoqlar qo'llanilishiga oid ma'lumotlar bo'lsa, qo'mita a'zo davlatning roziligi bilan joylarda tergov o'tkazishi mumkin.

Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaning birinchi yig'ilishi 1991-yilda o'tkazilgan. Qo'mita 10 vakildan iborat. Unga bola huquqlarini rag'batlantirish uchun qo'shilgan davlatlar o'rtasida doimiy muloqotni tashkil ettirish vazifasi yuklatiladi.

Qo‘mita bolalarning ravnaqiga xavf tug‘diruvchi omillarni aniqlaydi, aniq muammolarning amaliy yechimlarini ishlab chiqadi. Muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan inson va moliyaviy resurslarni safarbar qiladi. Bola huquqlari borasida jamiyatning xabardorlik darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni hamda uning bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ishtirokini kengaytirishga oid choralarni qo‘llaydi. Bu maqsadlar yo‘lida Qo‘mita mazkur sohada faol faoliyat olib boradigan tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Qo‘mita 1989-yilgi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo‘shilgan davlatlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini nazorat qiladi. A‘zo davlatlar Qo‘mitaga Konvensiyaning doimo bajarilishi va bola huquqlarining muhofaza qilinishi borasida qabul qilgan chora-tadbirlariga doir hisobotlar taqdim qiladi. Bu hisobotlar oshkor qilinadi va milliy darajada keng tarqatiladi.

4.6. Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Yevropadagi va boshqa mintaqaviy xalqaro tashkilotlar

Inson huquqlari bo‘yicha zamonaviy tizim Yevropada alohida rivojlanish bosqichiga egaligi bilan birga, u yerdagi huquqni muhofaza qilish tizimining jamiyat rivojlanishi bilan teng taraqqiy etganligi umum e‘tirof etiladigan voqelikdir. Yevropa integratsiyalashuv jarayonlari, huquqni himoya qilish normalari qonunchilikning yangi tarmoqlariga singdirilmoqda va inson huquqlari obyektiv tarkibining murakkablashuviga olib kelmoqda.

Yevropa mintaqasida umum e‘tirof etilgan inson huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha keng tarmoqli tizim ishlab chiqilgan bo‘lib, unga quyidagilar kiradi:

- Yevropa Kengashi doirasida inson huquqlarini himoya qilish;
- Yevropa Ittifoqi doirasida inson huquqlarini himoya qilish;
- YXHT doirasida inson huquqlarini himoya qilish.

Yevropa Kengashi doirasida inson huquqlarini himoya qilish. Yevropa Kengashi 1949-yil Strasburgda 10 ta davlat ishtirokida tuzilgan Yevropadagi ilk hukumatlararo tashkilotdir. Bugungi kunda ushbu tizim 43 ta ishtirokchi-davlatdan iborat bo‘lib, shuning, 18 tasi Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridir.

Yevropa Kengashi o‘z faoliyatida plyuralistik demokratiya va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyiliga tayanadi.

Yevropa Kengashining uchta ishchi organi bor: Parlament Assambleyasi, Vazirlar Qo‘mitasi, Yevropaning Mahalliy va hududiy hokimiyatlar kongressi.

Yevropa Kengashi o'z faoliyatida nodavlat tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Nodavlat tashkilotlar inson huquqlarining buzilishi yuzasidan Parlament Assambleyasi va Vazirlar Qo'mitasiga ma'lumot yuborishi mumkin.

Yevropa Kengashining Parlament Assambleyasi maslahat vakillik organi bo'lib, 291 nafar a'zodan iborat. U har bir davlatning parlamenti tomonidan tayinlangan Yevropa Kengashi delegatsiya a'zolarini to'playdi.

Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasi Yevropa Kengashiga a'zo davlatlarning tashqi ishlar vazirlaridan tashkil topib, Yevropada qabul qilingan konvensiya va kelishuvlarni hamda davlatlarga tegishli tavsiyalarni tasdiqlaydi. Uning qarorlarini hukumat ekspertlari hamda boshqa mutaxassislar tayyorlaydi.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (IHYS). 1998-yil 1-noyabrdan boshlab Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha yangi tizim – yagona Yevropa sudi o'z faoliyatini boshladi. Ushbu sudning maqsadi inson huquqlarini samarali himoya qilishdir.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi bilan kafolatlangan o'z huquqlarini buzilgan deb hisoblovchi har qanday shaxs Yevropa sudiga murojaat qilishi mumkin.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi Vazirlar qo'mitasi singari konvensiya normalariga amal qilinishini kuzatib boradi. Konvensiya normalariga muvofiq Yevropa sudi alohida shaxslar tomonidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish bilan bir qatorda, davlat vakillarining da'volarini ham ko'rib chiqadi. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudida shikoyatlarni qabul qilish shartlari quyidagilar:

birinchidan, shikoyatlar har qanday jismoniy shaxs, nodavlat tashkilot, alohida shaxslar guruhi, shuningdek Yevropa kengashiga a'zo davlatlar tomonidan berilishi kerak;

ikkinchidan, shikoyat biror davlat yoki uning organining harakatlari ustidan berilishi lozim;

uchinchidan, shikoyatda konvensiyada yoki unga qo'shimcha protokolda ko'rsatilgan inson huquqlarining buzilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lishi lozim;

to'rtinchidan, inson huquqlarini himoya qilishning barcha ichki imkoniyatlaridan foydalanib bo'lingan bo'lishi kerak;

beshinchidan, ish bo'yicha milliy hokimiyat organlarining so'nggi qarori chiqqan kundan olti oydan ortiq muddat o'tmagan bo'lishi lozim.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga shikoyatlar yo rasmiy tilda (ingliz yoki fransuz) yo bo'lmasa, a'zo davlatning rasmiy tilida (shu jum-

ladan, rus tilida) topshiriladi. Biroq shikoyat maqbul deb topiladigan bo'lsa, murojaat qiluvchining barcha hujjatlari sudning rasmiy tillaridan birida (ingliz yoki fransuz) tuzilishi lozim. Sudning barcha qarorlari yoki hukmlari ham mazkur tillarda chiqariladi.

Nodavlat tashkilotlar shikoyat berishni xohlagan shaxs yoki shaxslar guruhiga maslahatlar berishi mumkin va bugungi kunda buni samarali amalga oshirmoqdalar. Ular bundan tashqari, bunday shaxslarning qonuniy vakillari sifatida ham ishtirok etmoqdalar.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining zamonaviy nazorat mexanizmi o'zida xalqaro va Yevropa huquqining taraqqiy etuvchi institutini ifodalaydi. Shu jihatdan mazkur ma'noda, u Yevropa Ittifoqining sud tizimiga o'xshaydi. Ammo IHYSning Yevropa Ittifoqi sud tizimidan asosiy farqi shundaki, IHYS integratsiyaviy birlashish institutlaridan biri hisoblanmaydi va a'zo davlatlarning yagona huquqiy makonini shakllantirish maqsadini ko'zlamaydi. IHYSning maqsadi shaxsning huquqiy himoyalanganligi darajasini oshirish va individning vakolatligini kengaytirish. Aynan shunday yo'l tutish nazorat mexanizmini doimiy isloh etish va uning samaradorligini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

IHYS vakolatlarining evolutsiyasi inson huquqlari maqomi oshishining umumjahon tendensiyasini aks ettiradi.

IHYS o'zining yarim asrlik tarixi davomida mingga yaqin ishlarni ko'rib chiqdi. Uning norma ijodkorlik faoliyati natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi normalari va unga qo'shimcha Protokollar sudning qarorlarida qanday tushuntirilgan bo'lsa, bugun shunday qo'llanilmoqda.

YXHT doirasida inson huquqlarini himoya qilish. 1994-yilning oxiriga qadar Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi (YXHK) deb nomlangan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) – xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi umumevropa tashkiloti hisoblanadi. Uning tarkibiga Vankuverdan Vladivostokkacha bo'lgan hududda joylashgan 56 a'zo davlat kiradi. YXHT (YXHK)ning tashkil etilishiga 70-yillardagi Yevropa davlatlari, AQSH, Kanada hukumatlararo kengashi zamin yaratdi. Kengash 1975-yil 1-avgustda 33 ta Yevropa davlatlari, AQSH va Kanadaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlaridan qat'i nazar, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish asosida hamkorlikka intilishini o'zida aks ettirgan Xelsinki Yakunlovchi aktini imzolash bilan yakun topdi. Ishtirokchi davlatlar insonlar o'rtasida aloqani rivojlantirish, axborot almashish, ta'lim, madaniyat sohasida almashuv va hamkorlik qilish yo'li bilan tinchlikni mustahkamlash va xalqlar o'rtasida hamjihatlik uchun ko'mak-

lashishga qaror qildilar. BMT Ustavining VIII bobiga muvofiq mintaqaviy kelishuv hisoblanuvchi YXHT Yevropa o'z hududida nizolarning avvaldan oldini olish, bartaraf etish, inqirozlarni tartibga solishda bosh vosita sifatida tashkil etilgan. YXHTning xavfsizlikni ta'minlashga yondashuvi ko'p tomonlama xususiyat kasb etadi va hamkorlikka asoslanadi.

YXHT faoliyatida qatnashuvchi barcha davlatlar bir xil maqomga ega, qarorlar esa konsensus asosida qabul qilinadi.

YXHT alohida mavqega ega. Bir tomondan, uning doirasida qabul qilinayotgan qarorlar ko'proq yuridik emas, siyosiy-huquqiy xususiyat kasb etadi. Biroq, boshqa tarafdin, YXHT xalqaro tashkilot belgilariga ega: doimiy organlar, doimiy qarorgoh va muassasalar, xodimlarning doimiy tarkibi, doimiy moliyaviy resurslar mavjud.

YXHT qarorlari va majburiyatlarining ko'pgina vositalari yuridik tilda rasmiylashtirilgan, ammo ularni qo'llashda xalqaro shartnoma huquqining standart usullari talab etiladi. 1975-yilgi Yakunlovchi akt ham, YXHTning keyingi uchrashuv va kengashlarining hujjatlari ham yuridik jihatdan xalqaro shartnoma hisoblanmaydi va davlatlar uchun majburiy xususiyat kasb etmaydi. YXHTning hujjatlari xalqaro huquq manbalari bo'lib xizmat qiladi, uning prinsiplarini ifodalaydi, biroq mohiyatiga ko'ra, bu Yevropa konvensiyasi yoki Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlardan farqli ravishda, sud javobgarligiga tortish imkonini bermaydigan siyosiy (xalqaro huquqiy bo'lmagan) majburiyatlar, xolos.

Jenevada YXHTning yarashuv va hakamlik sudlari tashkil qilindi. Shuni aytib o'tish kerakki, Yarashuv va hakamlik sudlari to'g'risidagi konvensiyani imzolagan davlatlar ushbu sudlarga taalluqli ishlarni Hakamlik tribunali yoki Yarashuv komissiyasi doirasida ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin. 1999-yilda Doimiy kengash YXHT rahnamoligi ostida Janubiy-Sharqiy Yevropa barqarorlik paktini qabul qilish to'g'risidagi qarorini chiqardi.

YXHT hujjatlarining yuridik majburiy kuchga ega emasligi, aslo uning samaradorligini kamaytirmaydi. Xalqaro huquqda mazkur Tashkilot tomondan qabul qilingan huquqiy hujjatlar boshqalari kabi muhim ahamiyatini yo'qotmagan. Bundan tashqari, YXHT Yevropada kelishmovchiliklar paydo bo'lishi bilanoq, ularning oldini olish, mojarolarni bartaraf etish, inqirozlarni tartibga solish va mojarodan keyingi tiklanishni amalga oshiruvchi yagona vosita hamdir. Ushbu holatlar YXHTning Yevropadagi boshqa tashkilotlardan ko'ra samaraliroq va mukammalroq ekanligini ko'rsatadi.

Insoniylik mezonlari bo'yicha YEXHTning majburiyatlar bajarilishini ta'minlash mexanizmi. YXHT doirasida vaqt o'tgan sari takomillashib

boradigan inson huquqlarini himoya qiluvchi va majburiyatlarni nazorat qiluvchi mukammal mexanizm tizimi yaratilgani diqqatga sazovordir. Uning o'z vazifasini bajarishdagi amaliyoti inson huquqlari bo'yicha yuridik jarayoni ko'rib chiqilgan hujjatlardan ko'zda tutilganligi bilan farq qiladi. Xususan, u moslashuvchanligi bilan tavsiflanadi, lekin uni tizim samaradorligiga tenglashtirish mumkin emas.

YXHT inson omili tizimi monitoringining ixtisoslashtirilgan mexanizmi «insoniylik mezonlari mexanizmi» nomi bilan mashhurdir. Ushbu mexanizm ikki asosiy elementdan iborat: Vena va Moskva mexanizmlari. Moskva mexanizmi avvalgisining izchil rivojini o'zida mujassamlashtirgan. Ularning ikkalasi birgalikda inson omili sohasidagi majburiyatlarning bajarilishini nazorat qiluvchi barqaror mexanizmni tashkil etadi.

To'rtta bosqichdan iborat Vena mexanizmi negiziga 1989-yilda Vena Yakunlovchi aktining qabul qilinishi bilan asos solingan bo'lsa, uning izchil rivojlanishida Kopengagendagi Inson omili bo'yicha konferensiya (1990), Moskva (1991) va Xelsinkidagi (1992) uchrashuvlar ham muhim rol o'ynagan.

Hozirgi kunda mazkur mexanizm quyidagi elementlardan iborat:

birinchidan, insoniylik mezonlari bilan bog'liq ma'lumotlar almashinuvi va so'rovnomalarga javoblar YXHT ishtirokchi davlatlari o'rtasida tez, ya'ni o'n kundan oshmagan muddatda amalga oshirilishining shartligi;

ikkinchidan, odatda, bu kabi aloqalarning diplomatik yo'llar orqali ta'minlanishi;

uchinchidan, zarurat tug'ilganda, taraflarning taklifi bilan ishtirokchi davlatlar o'rtasida insoniylik mezonlari borasidagi masalalarni hal qilish uchun ikki tomonlama uchrashuvlar tashkil qilinishi;

to'rtinchidan, mazkur uchrashuvlarning vaqti va joyining, iloji boricha, tezroq belgilanishi, ya'ni so'ralgandan so'ng, bir haftadan oshmagan muddatda tashkillashtirilishi;

beshinchidan, ikki taraflama uchrashuvlarda YXHT davlatlari, o'zaro istak bildirish holatlaridan tashqari, muhokama Mavzusidan chetga chiqmasligi;

oltinchidan, bunday uchrashuvlarni o'tkazish joyi uchun Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi (DIIHB) qo'l keladi;

yettinchidan, YXHTning ishtirokchi davlatlari zarur deb topsa, diplomatik yo'llar va DIIHB orqali bu yoki boshqa holat va muammolar bo'yicha boshqa ishtirokchilar e'tiborini jalb etishi mumkin;

sakkizinchidan, YXHTning ishtirokchi davlatlari, zarur deb topsa, axborot almashuvi haqidagi ma'lumotlar va o'zining ikki taraflama uchrashuv natijasidagi rasmiy so'rovnomalarga javob berishi, shu jumladan, har

ikki yilda o'tkaziladigan kuzatuv konferensiyalari va ijroiya uchrashuvlaridagi muayyan vaziyat va holat haqida ma'lumotlar berib o'tishi mumkin.

Vena mexanizmi amaldagi doimiy nazorat tizimi bo'lib, davlatlararo shikoyatlarni ko'rib chiqish protsedurasini eslatadi. Agar biror-bir davlatga ushbu mexanizm doirasida YXHT davlati tomonidan rasmiy so'rov berilsa, u javob berishga, shu bilan birga, ikki tomonlama uchrashuv haqidagi talabni qondirishga majbur.

Vena mexanizmining xususiyatlariga quyidagicha yondashish mumkin:

birinchidan, insoniylik mezonlari bo'yicha majburiyatlarga rioya qilish buzilganligi isbotlangan taqdirda ham, majburiyatlarning buzilishiga qarshi sanksiyaning yo'qligi;

ikkinchidan, YXHTning qaror qabul qilishida konsensusga kelish talabi konsensus prinsipidan kelib chiqib, davlatning irodasiga qarshi har qanday harakat, agarda qaror unga taalluqli bo'lsa ham taqiqlanadi. Shunday qilib, Vena mexanizmining samaradorligi ko'pincha siyosatga bog'liq.

Vena mexanizmining ko'zga ko'rinadigan kamchiligi shundan iboratki, unda mustaqillik elementlari mavjud emas, mexanizm hukumatlararo darajada ish yuritadi. Bu kamchilik 1991-yili Moskvada bo'lib o'tgan (YXHT) uchrashuvida bartaraf qilindi.

Ushbu yig'ilishda Vena mexanizmi insoniylik mezonlari doirasida mustaqil ekspertlar va ma'ruzachilarning missiyalari tizimi bilan to'ldirilgan edi. Moskva mexanizmi, deb nom qozongan ushbu tizim juda murakkabdir. U ma'ruzachi va ekspertlarning missiyalarini tashkil etadigan beshta bir-biridan mustaqil ishlaydigan alohida protsedurani o'z ichiga oladi. Ulardan ikkitasi Vena mexanizmi bilan bog'liq: **birinchidan**, Vena mexanizmini qo'llashning birinchi yoki ikkinchi davridan so'ng tashabbuskor davlat boshqa davlatga ekspertlarni chaqirishni taklif etishi mumkin, **ikkinchidan**, agarda boshqa davlat buni bajarishdan bosh tortsa, ushbu tashabbusni yana YXHTning beshta davlati qo'llab-quvvatlasa, tashabbuskor davlat boshqa davlat istagiga qarshi ekspertlarni yuborish huquqiga ega. Shunday tarzda Vena mexanizmi doirasida insoniylik mezonlari majburiyatini bajarmaslik holatini mustaqil ekspertiza qilish imkoniyati yaratiladi.

Moskva mexanizmi uchta missiya tashkil qilishdan iborat protsedurani o'z ichiga oladi. Vena mexanizmi bilan bog'liq bo'lmagan ushbu protseduralar quyidagicha: ekspertlar missiyasini YXHT davlati tomonidan ixtiyoriy ravishda taklif qilish; davlat rahbarlari majlisining ekspertlar va ma'ruzachilar missiyasini tashkil etish haqidagi qarori; «o'ta jiddiy xavf» holatlarida ma'ruzachilarning insoniylik mezonlari qoidalarini bajarish uchun «favqulodda missiyasi»ni tashkil qilish. Ushbu missiyadagi mustaqil

ekspertlar ro'yxatdan tanlab olinadi va ular uch kishidan kam bo'lmasligi kerak. Ularning har biri YXHT davlati tomonidan tayinlanadi.

Insoniylik mezonlari sohasida ekspertlar yoki ma'ruzachilar missiyalarining tizimi YXHTda shu kungacha mavjud bo'lgan jiddiy hukumatlararo nazorat protseduralaridan birinchi og'ish bo'ldi. Bunday missiyalarning mandatlari qanday protsedura asosida vujudga kelganligi bilan farqlanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, ekspertlar missiyasining vakolatlari ma'ruzachilar missiyasining vakolatlaridan kengroq. Ma'ruzachilar missiyasining vakolatlari asosan ma'lumot to'plash va maslahat berish yoki muhokama qilina-yotgan masalalarni hal etish bo'yicha taklif va mulohazalar kiritishdan iborat. Ekspertlar missiyasining asosiy maqsadi YXHT insoniylik mezoniga taalluqli muayyan masala yoki muammoni hal qilish jarayonini osonlashtirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ular ma'lumotlar to'playdilar va «maqsadga muvofiq ravishda manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun o'z ofislarini va vositachilik xizmatlarini taqdim etadilar». Faqat Davlat rahbarlari majlisi (yoki Doimiy kengash) tegishli chora qo'llash haqida qaror chiqarishga haqli. Bu holda konsensus prinsipi qo'llaniladi.

Ko'rib chiqilgan insoniylik mezonlari talablariga rioya qilishni nazorat qilish mexanizmidan tashqari boshqa protsedura va vositalar ham ishlab chiqilgan:

– insoniylik mezoniga taalluqli har qanday masala YXHTning barcha siyosiy organlari yig'ilishlarida, ayniqsa, Doimiy kengash, Davlat rahbarlari va vazirlik organlari majlislari hamda YXHT yillik yig'ilishlarida muhokama qilinishi mumkin;

– insoniylik mezonlari masalasi YXHTning, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha turli protseduralar yoki Berlin favqulodda mexanizmi kabi, umumiy mexanizmlarga apellatsiya berish yo'li bilan hal qilinishi mumkin.

Shu bilan birga, YXHTda inson huquqlari va erkinliklarini xalqaro huquqiy himoya qilish va individual shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarining yo'qligini ta'kidlash ahamiyatga ega. Ammo bu nodavlat tashkilotlarning YXHT tizimlariga murojaat qilishlari va u yoki bu davlatda inson huquqlari buzilgan holatda YEXHT e'tiborini jalb qilish va inson huquqlarini ta'minlash yo'lida kuchlarni birlashtirish imkoniyatidan mahrum etmaydi.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) va mamlakatlardagi nodavlat tashkilotlar o'rtasida «aloqa o'rnatish» ikkita bo'lim: saylovlar va insoniylik mezonlari bo'yicha bo'limlardan (demokratiyani o'rnatish) tashkil topgan DIIHB orqali amalga oshiriladi.

Saylovlar bo'yicha bo'lim saylovlar o'tkazilishi kuzatuvlarida va milliy saylov organlarining ta'xis etilishida muhim o'rin tutadi. Mamlakatlarning milliy huquqiy institutlarini rivojlantirishda texnik yordam ko'rsatadi, inson huquqlari borasidagi hamda saylovlarni o'tkazish sohasidagi me'yorlar ustidan kuzatish ishlari bilan shug'ullanuvchi YXHT kuzatuvchilarini tayyorlash bilan shug'ullanadi.

Insoniylik mezonlari bo'yicha bo'lim (demokratiyani o'rnatish) YXHT a'zo davlatlarida nodavlat tashkilotlarni shakllantirishga, demokratiya va inson huquqlarini rivojlantirish hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan aniq dasturlarni amalga oshiradi.

Bu ikki bo'lim o'z vakolatlari doirasida insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazorat qiladi va yordam beradi.

DIIHB muloqotlar punkti hisoblanib, YXHTning ixtisoslashtirilgan seminarlarini o'tkazishni ta'minlaydi. Ikki yilda bir marotaba o'tkaziladigan «insoniylik mezonlari» masalalariga bag'ishlangan YEXHT muzokalarini va yiliga bir marta tashkil etiladigan insoniylik mezoni bo'yicha seminarlarni o'tkazishda tashkiliy ishlarni amalga oshiradi.

Yuzaga kelishi mumkin nizolarning oldini olish va bartaraf etish borasida alohida muhim rolni Milliy ozchilik bo'yicha Oliy bosh komissar egallaydi. Uning vakolatiga milliy ozchiliklar bilan bog'liq vaziyatlarni tahlil qilish va dastlabki bosqichidayoq murakkab vaziyatlarni bartaraf etish hamda milliy ozchiliklarni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish kiradi. U maslahatlar va tavsiyalar berish orqali tomonlarni murosaga kelishga undaydi.

Hozirgi kunda umum e'tirof etilgan inson huquqlari davlat ichki organlari vakolatlari doirasidan kengroq miqyosda qaralib, butun bir xalqaro hamjamiyatning umumiy ishiga aylangan. Mazkur huquqlarning tan olinishi ushbu davlatlarning konstitutsiyalarda qayd etib qo'yilganligi yoki qayd etilmaganligidan qat'i nazar, inson huquqlari sohasida xalqaro huquqning ichki davlat huquqiga nisbatan ustuvorligi xalqaro huquqning umum tan olingan prinsipi sifatida e'tirof etiladi.

Yevropada umum e'tirof etilgan inson huquqlariga rioya etish va ularni tartibga solish muayyan normalar va institutlar tizimi doirasida amalga oshiriladi. Bu individning qonuniy huquqlarini tartibga soluvchi va ularning Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi hamda YXHT doirasida milliy huquqdan tashqarida o'rnatilgan normalari va prinsiplari majmui hisoblanadi.

Inson huquqlari borasidagi Yevropacha huquqi o'z xususiyatiga ko'ra, suverenlik, federalizm, milliylik prinsiplari, shuningdek umumiy va mintaqaviy huquq normalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan huquq hisoblanadi. Uning mexanizmi va tuzilishiga turli tartiblashtirishning huquqiy rejimlari hamda himoya yurisdiksiyasining turli darajalari xos.

Inson huquqlari masalasi Yagona Yevropa huquqiy makonini barpo etishning muhim integratsiyaviy elementi hamda umumiy platformasiga aylangan. Mazkur jarayonda Yevropa Ittifoqi huquqiy tizimi hamda Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasini bir-biriga yaqinlashtirishda Yevropa sudlariga muhim o'rin ajratilgan. Shu sababli, Yevropadagi sud muassasalarining o'zaro hamkorligi muammosi birinchi darajali masalalardandir. Mazkur muammo esa hamkorlik hamda muvofiqlashtirish mexanizmini yaratish yo'li orqali hal etilishi mumkin.

5-Mavzu. QIYNOQ HAMDA MUOMALA VA JAZOLASHNING QATTIQ, SHAFQATSIZ, INSONIYLIKKA ZID VA QADR-QIMMATNI KAMSITUVCHI TURLARIGA QARSHI KONVENSIYA VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI FAOLIYATI

5.1. Qiynoqqa qarshi konvensiyaning umumiy tavsifi va mazmuni

Barcha uchun qiynoq va shafqatsiz muomala voqelikni oydinlashtirish yengil bo'lmagan vazifa bo'lib, garchi uni qoralash va taqiqlash barcha davlatlarda xalqaro huquq normasi sifatida qabul qilingan.

Ko'plab xalqaro huquqiy hujjatlar mazmuniga kiritilgan qiynoqning mutlaqo cheklanishi to'g'risidagi xalqaro qonunchilik shafqatsiz qiynoqlar qo'llanmasligining kafolati hisoblanmaydi.

Qiynoqning huquqiy tavsifi 1984-yilda BMT tomonidan qabul qilingan. Qiynoqlarga qarshi konvensiyada taklif qilingan va barcha ishtirokchi davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan (Bosh Assambleyaning 1984-yil 10-dekabrda 39/46 rezolyutsiyasi davlatlarning qo'shilishi, ratifikatsiya qilishi va imzolashlari uchun ochiq tarzda qabul qilindi hamda 1987-yil 26-iyunda kuchga kirdi). Ushbu Konvensiyaning 1-moddasida qiynoqqa quyidagicha ta'rif berilgan: «og'riq yoki qo'rqitish davlat mansabdor shaxsi yoki boshqa rasmiy faoliyat bilan bog'liq biror shaxs tomonidan, ular rejasi yordamida amalga oshiriladigan, ularning aybi va bunday harakatlarga jim turishlari bilan sodir etiladigan ma'lum bir shaxsga qasddan undan yoki uchinchi shaxsdan ma'lumot olish hamda uning sodir etgan harakati, uchinchi shaxs yoki u gumon sifatida ko'rilayotgan ishlarda tan oldirish maqsadida kuchli jismoniy yoki ruhiy ta'sir o'tkazish, qo'rqitish, shuningdek kamsitish sifatida tavsiflanuvchi, shaxsni yoki uchinchi bir shaxsni qo'rqitish hamda majburlash bilan bog'liq har qanday harakat. Bunday holatlarga qonuniy sanksiyalar natijasida ushbu sanksiyalar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan yoki favqulodda sodir bo'luvchi og'riq hamda qo'rqitishlar kiritilmaydi».

BMTning Qiynoqlarga qarshi qo'mitasi qiynoqning yana quyidagi elementlarini ko'rsatib o'tadi:

- jismoniy va ruhiy qiynash yo'li orqali qasddan bo'lgan xatti-harakat;
- muayyan maqsadda amalga oshirilgan harakat;
- davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy faoliyat yurituvchi shaxsi tomonidan amalga oshirilgan harakat.

Qiynoqqa qarshi samarali kurashning asosiy jihatlarini uchta:

birinchidan, samarali qonunchilik asosini yaratish va uni to'liq amalga oshirishni ta'minlash, shuningdek qiynoqqa qarshi kurashish kafolatlarini belgilab berish;

ikkinchidan, qamoqda saqlanayotgan shaxsning joylashgan joyini ko'zdan kechirish, u saqlanayotgan joyning mustaqil monitoringini amalga oshirish bo'yicha nazorat mexanizmlarini, eng muhimi, milliy mexanizmlarni tashkil etish;

uchinchidan, ichki ishlar organlari, JIEM xodimlari, advokatlar, sudyalari, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislarining doimiy ravishda kasbiy malakasini oshirib borish.

Qiynoqqa qarshi konvensiyaning xalqaro huquqiy muhim ahamiyatga ega tavsifiga, eng avvalo, quyidagilar kiradi:

– ishtirokchi davlat qiynoqni jinoyat sifatida baholashi;

– qiynoqni oqlash uchun «istisno holatlar» va «yuqori turuvchi shaxsning buyrug'i»ni bahona qilmaslik;

– qiynoq bilan bog'liq jinoyatni sodir qilishda gumon qilinayotgan shaxs joylashgan ishtirokchi davlat uni jinoyat-protsessual javobgarlikka tortadi yoki uni topshirish bilan bog'liq harakatlarni amalga oshiradi;

– biror ishtirokchi davlat hududida qiynoqni qo'llash bilan bog'liq harakatlar amalga oshirilayotganligi to'g'risida yetarli asoslar mavjud bo'lgan holatlarda, xalqaro tergov harakatlarini amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi;

– ishtirokchi davlat o'z hududida qiynoqqa qarshi kurash maqsadida qonunchilik, ma'muriy, sud va boshqa choralarni ko'radi;

– hech qaysi bir ishtirokchi davlat muayyan shaxsga nisbatan qiynoqni amalga oshirish bilan bog'liq yetarli asoslar mavjud bo'lgan holatda, uni boshqa davlatdan chiqarib yuborishi, jo'natishi, qaytarishi yoki berishi mumkin emas;

– jinoyat-protsessual harakatlar bilan bog'liq huquqiy yordam ko'rsatish;

– ishtirokchi davlat huquqiy tizimini qiynoqqa solingan shaxsning manfaatlarini tiklash va munosib tovon undirish bilan bog'liq adolatli huquqini ta'minlash;

Qiynoqqa qarshi konvensiyaning mazmunini quyidagi asosiy tezislar yordamida izohlash mumkin:

1) *qiynoq tushunchasi*. Davlatning milliy qonunchiligida qiynoq jinoyat sifatida qaralishi lozim. Davlat o'zining qonunchilik, ma'muriy, sud va boshqalar yordamida qiynoqqa qarshi ogohlantirishning samarali choralarini ko'rdi;

2) *qiynoqni rasmiy qoralash*. Davlatlarning barcha oliy hokimiyat organlari qiynoqqa qarshi o‘zlarining salbiy munosabatlarini o‘rnatishlari shart. Ular barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qiynoqning qanday holatda sodir qilinganidan qat’i nazar, kechirib bo‘lmasligi to‘g‘risidagi aniq tushunchani berishlari shart;

3) *hibsda saqlashning cheklanishi*. Qiynoqlar odatda hibsdan saqlanayotgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilib, ularning insonlar bilan dildan suhbatlashish imkoniyatlari, ularga kim yordam bera olishi hamda unga nimalar bo‘layotganligi to‘g‘risidagi xabar va yozishmalar huquqining cheklanishi. Davlat tergov jarayonida qiynoqning amalga oshirilmaligi yuzasidan barcha choralarni ko‘rishi shart. Davlatlar jinoyat sodir etishda ayblanib qo‘lga olingan barcha shaxslarning mustaqil sud organlariga topshirilishini ta‘minlashlari zarur. Qamoqda saqlanayotgan shaxsning ahvolidan doim xabar olib turishlari uchun uning qarindoshlari, advokati va shifokorning doimiy va kechiktirmay kira olishlariga sharoit yaratishlari shart;

4) *so‘roq o‘tkazish va qamoqda saqlash jarayonidagi kafolatlar*. Davlat so‘roq o‘tkazish va qamoqda saqlash jarayonini doim nazorat qilib borishi shart. Qamoqda saqlanayotgan barcha shaxslar o‘zlariga bo‘layotgan munosabat yuzasidan shikoyat qilish huquqlari mavjudligi haqidagi axborotga ega bo‘lishlari kerak. Ozodlikdan mahrum etish joylariga mustaqil inspeksiyaning tashriflari tashkil qilinish lozim. Qamoqqa olish va surishtiruvni amalga oshirish bilan bog‘liq ma‘muriy vakolatlarni ta‘minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko‘rishlari zarur;

5) *qiynoqlar to‘g‘risidagi xabarlar haqida mustaqil tergov olib borish*. Davlat qiynoq qo‘llanilayotganligi haqidagi xabarni samarali va obyektiv tergov qilishni ta‘minlab berishga majbur. Bunday tergov ochiq va oshkora usulda olib borilishi zarur. Da‘vogar va guvohlar tazyiqdan himoya qilinishlari darkor;

6) *qiynoqqa solish oqibatida olingan ma‘lumotlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaligi*. Davlat sud ishlarida, isbot va tan olish jarayonida qiynash oqibatida olingan har qanday ma‘lumotdan foydalanishni taqiqlashi shart;

7) *qiynoqni qonuniy yo‘l bilan taqiqlash*. Davlat qiynoqning jinoiy jazoga sazovor ekanligi yuzasidan barcha chora-tadbirlarni ko‘rishi shart. Xalqaro huquqqa muvofiq qiynoqni qo‘llashga taqiq hech bir sharoitda, hatto urush va boshqa favqulodda holatlarda ham to‘xtab qolmasligi;

8) *jinoyatchi sifatida taxmin qilingan shaxsni ta‘qib qilish*. Qiynoqni qo‘llagan shaxslar javobgar hisoblanib jazolanishi shart. Ushbu prinsip qidirilayotgan jinoyatchi joylashgan jinoyat sodir etilgan joydan, jinoyatchi hamda jabrdiydaning millatidan qat’i nazar, qo‘llanilishi zarur;

9) *o'qitish*. Jinoyatchilarni qamoqqa olish, ularni so'roq qilish va qamoqdagi shaxslar bilan munosabatda bo'lish faoliyati bilan shug'ullanuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning barcha xodimlariga qiynoq jinoyatligi to'g'risida tushuntirishlar olib borish lozim. Shu bilan bir qatorda, yuqorida nomlari ko'rsatilgan xodimlar har qanday qiynoqni amalga oshirish bilan bog'liq buyruqlarni bajarmasliklari haqida ham ogohlantirilishi zarur;

10) *zararning qoplanishi va reabilitatsiya*. Qiynoq oqibatida jabr ko'rgan shaxslar zararning moliyaviy yo'l bilan qoplanishi huquqiga ega bo'lishlari shart. Jabr ko'rgan shaxslar zarur tibbiy yordam va reabilitatsiya bilan ta'minlanishlari lozim;

11) *xalqaro hamkorlik*. Davlatlar qiynoqni qo'llashda aybdorlarni ushlab yuzasidan barcha davlatlarning hukumatlari bilan aloqalar o'rnatish imkoniyatlaridan foydalanishlari shart. Qiynoqqa qarshi samarali va tezkor tergovni amalga oshirish bo'yicha davlatlararo mexanizmlardan foydalanishi va ularni ishlab chiqishi zarur. Davlatlar qurolli kuchlar, huquqni muhofaza qilish organlari va xavfsizlik xizmati xodimlarini tayyorlash yuzasidan tajriba almashishda qiynoqni qo'llamaslikni ta'minlashlari muhim;

12) *xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish*. Barcha davlatlar individual shikoyatlar bildirish jarayonini huquqiy tartibga soluvchi «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» va unga fakultativ protokolni, shuningdek qiynoqdan huquqiy himoya qilish vositalari va kafolatlarini o'zida aks ettirgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilishlari kerak;

13) *qiynoqqa qarshi qo'mitaning faoliyati*. BMT Qiynoqqa qarshi qo'mitasining tavsiyalari hamda Konvensiyaning asosiy shartlarini ijro etish bo'yicha davlatlarning milliy hisobotlarini ko'rib chiqishi lozim.

Qiynoqqa qarshi kurash amaliyoti dastavval 1948-yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» hamda Genotsid jinoyatlarining oldini olish hamda ularni jazolash to'g'risidagi konvensiyadan boshlangan. Ushbu hujjatlar 1966- da qabul qilingan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» hamda 1984-yildagi Qiynoqqa va boshqa shafqatsiz, noinsoniy va qadr-qimmatni tahqirlovchi muomala va jazo turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya yordamida tasdiqlandi.

Konvensiyada har bir davlat o'z yurisdiksiyasidagi borasida har qanday hududda qiynoq bilan bog'liq holatlarning oldini olish bo'yicha samarali qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rishi zarurligi belgilab qo'yilgan (2-moddaning 1-b.). Urush holati va tahdidi, ichki siyosiy tartibsizlik yoki har qanday favqulodda holatlar qiynoqni oqlash

bilan bog‘liq sabab sifatida baholanmaydi (2-moddaning 2-b.). Bundan tashqari, 1-paragrafning 3-moddasida: «Hech qanday ishtirokchi davlat shaxsni unga jo‘natilayotgan davlatda qiynoqni qo‘llash bilan bog‘liq jiddiy asoslar mavjud bo‘lgan holatda boshqa davlatga jo‘natishi, qaytarishi va berishi taqiqlanadi», deyilgan.

Qayd etish kerakki, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida xalqaro huquqiy hujjatlar, inson huquqlari to‘g‘risidagi normalar va umum e’tirof etilgan tamoyillar, shuningdek universal xalqaro shartnomalardan biri Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid va qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya normalari ham o‘z ifodasini topgan. Unda nafaqat inson huquqlari, balki inson huquqlarini ta’minlashning kafolatlari ham yoritib berilgan. Ushbu konvensiya xalqaro hujjatlar tizimining umum e’tirof etilgan inson huquqlari manbalari orasida va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu xalqaro huquqiy hujjatda xalqaro huquq normalarining milliy qonunchiliklar oldidagi mavqei ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Muqaddima»sida belgilab qo‘yilganidek, huquqni muhofaza qilish organlari o‘z faoliyatlarida inson huquqlari sohasidagi umum e’tirof etilgan xalqaro standartlarga amal qiladilar.

Biroq hozirgi xalqaro munosabatlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri, nafaqat xalqaro hayotda, balki jamiyatning ichki hayotida ham xalqaro organ va tashkilotlar rezolyutsiyalarining ta’siri o‘sib borishi hisoblanadi. Ko‘rib chiqilayotgan muammoda qayd etilgan o‘ziga xoslik qiynoqqa qarshi konvensiyani hamda uning me’yoriy tabiatini tahlil qilishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari, shu jumladan, ichki ishlar organlari tomonidan qiynoq va shunga o‘xshash shafqatsiz muomalaning qo‘llanishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ushbu hujjatning normalariga oid bilimlarning ahamiyati juda ham muhimdir.

5.2. Ichki ishlar organlari tomonidan Qiynoqqa qarshi konvensiya talablarining bajarilishi

O‘zbekistonning mustaqil rivojlanish davri izchil demokratlashtirish, sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan, jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan xalqaro hujjatlarni izchil tatbiq etish (implementatsiya qilish) bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasida Qiynoqqa qarshi konvensiyaning qiynoq va shafqatsiz muomala turlarini qo‘llashga yo‘l qo‘ymaslikka oid talablarini ijro etish va unga rioya etish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Bu

borada huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, ichki ishlar organlarining oʻrni beqiyos, chunki aynan ular oʻz faoliyatida Konvensiyaga rioya qilish muammosiga duch keladilar. Ular bevosita Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiyaning ijro etilishi va unga rioya qilish zimmasiga bevosita yuklatilgan davlatning mansabdor shaxslari hisoblanadi.

Konvensiyani ijro etish borasida Hukumat dasturini amalga oshirishning bosqichlaridan biri «qiynoq» tushunchasini belgilash bilan bogʻliq qoʻshimchalarning Jinoyat kodeksiga kiritilganligidir.

2003-yilning avgustida Parlament sessiyasida oʻzgartish kiritilgan Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 235-moddasiga koʻra, jinoyat protsessining barcha bosqichlarida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, gʻayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi muomala hamda jazolar jinoiy jazolanadigan harakatlardir va qonunga muvofiq taʼqib etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining «Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, gʻayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qoʻllash» deb nomlangan 235-moddasining mazmuni Qiynoqqa qarshi konvensiyaning 1-moddasi matniga imkon qadar moslangan. Unda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi, sudlanuvchi yoki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilariga, biror maʼlumot, jinoyat sodir etganligi toʻgʻrisida iqrorlik koʻrsatuvi olish maqsadida ularning yaqin qarindoshlariga turli taʼsirlar koʻrsatish, oʻzboshimchalik bilan ularni sodir etilgan qilmish uchun jazolash yoxud biror-bir harakatni sodir etishga majburlash harakatlari uchun mansabdor va boshqa shaxslarning javobgarligi belgilandi. Jinoyat qonunchiligiga muvofiq, mazkur qilmish uchun ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlangan. Mazkur qilmish subyektlari surishtiruvchilar, tergovchilar, prokurorlar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalarining boshqa xodimlaridir.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda gi 17-sonli qarorida quyidagilar taʼkidlanadi: Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1984-yil 10- dekabrda qabul qilgan «Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya»ga koʻra, «qiynoq har qanday tusdagi shunday harakatni anglatadiki, u bilan qandaydir shaxsga undan yoki uchinchi shaxsdan maʼlumotlar yoki iqrorlik koʻrsatuvi olish, uni u yoki uchinchi shaxs sodir etgan yoki sodir etishda gumon qilinadigan harakat uchun jazolash, shuningdek uni yoki uchinchi shaxsni qoʻrqitish yoki zoʻrlash maqsadida yoki bunday ogʻriq yoki azob davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy boshqa shaxs yoki ularning gij-gijlashi bilan yoki ularning xabardorligida

yoki indamay roziligi bilan har qanday tUSDagi kamsitishga asoslangan har qanday sabab bo'yicha qasddan kuchli og'riq yoki jismoniy yoxud ma'naviy azob berishdir».

Shunday qilib, «qiynoq» tushunchasining ushbu talqini Qiynoqqa qarshi konvensiyaning 1-moddasiga mos keladi.

Hukmni chiqarishda sudlar va sudyalar nafaqat jinoyat-huquqiy normalar, balki Oliy sud Plenumining qarorlariga ham tayanadilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari o'z yuridik kuchiga ko'ra me'yoriy sharhlovchi hujjatdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 235-moddasida keltirilgan «qiynoq» tushunchasi Qiynoqqa qarshi konvensiyaning 1-moddasi mazmuniga muvofiqligi sababli, Konvensiyaning ushbu moddasi qoidalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga to'liq tatbiq etilgan, deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 235-moddasiga ko'ra, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, ya'ni gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, guvohga, jabrlanuvchiga yoki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchisiga yoxud jazoni o'tayotgan mahkumga, ularning yaqin qarindoshlariga ulardan biror-bir axborot, jinoyat sodir etganligiga iqrorlik ko'rsatuvchi olish, ularni sodir etilgan qilmish uchun o'zboshimchalik bilan jazolash, biror-bir harakatni sodir etishga majburlash maqsadida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan yoki huquqni muhofaza qilish organining, jazoni ijro etish muassasasining boshqa xodimi tomonidan qo'rqitish, urish, do'pposlash, qiynash, azob berish, qonunga xilof boshqa harakatlar vositasida sodir etilgan qonunga xilof ruhiy, jismoniy ta'sir ko'rsatish uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

1) hayot va sog'liq uchun xavfli zo'rlikni qo'llagan holda yoki shunday zo'rlikni qo'llash tahdidi bilan;

2) milliy, irqiy, diniy yoki ijtimoiy kamsitish zamiriga asoslangan har qanday sabab bo'yicha;

3) bir guruh shaxslar tomonidan;

4) takroran;

5) voyaga yetmagan shaxsga yoki homiladorligi aybdorga ayon ayolga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddanning birinchi, ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar badanga og'ir shikast yetkazilishiga, boshqa og'ir oqibatlariga sabab

bo'lsa, muayyan huquqdan mahrum etib, besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi».

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga binoan, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilishga javobgarlik kodeks Maxsus qismining tamom bo'lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi 25-moddasiga muvofiq hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi qiynoq va qiynoqda ishtirokchilik kabi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni tutib berish iltimosnomasi bilan murojaat etayotgan davlat konvensiya ishtirokchisi bo'lgan taqdirda, mazkur shaxslarni ekstraditsiya qilish uchun ushbu konvensiya huquqiy asos bo'ladi.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiyani ijro etish bilan bog'liq qonunchilikdagi o'zgarishlar va barcha tadbirlar ommaviy axborot vositalarida keng yoritilmoqda.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari «qiynoq» ning jinoyat-huquqiy tavsifini hamda uning tushunchasi borasidagi xalqaro va milliy jinoyat qonunchiligini taqqoslashni bilishlari kerak.

Shu tariqa xulosa qilish mumkinki, «qiynoq» deganda, rasmiy, yoki rasmiy vazifalarni bajaruvchi shaxslar tomonidan yoki ularning fitnasi, roziligi bilan biror-bir shaxsdan yoki uchinchi shaxsdan ma'lumot, iqrorlik ko'rsatuvi olish uchun insonga qasddan vahshiy og'riqni uqubatni yetkazish, u yoki uchinchi shaxs sodir etgan harakat uchun yoki harakat u tomondan sodir etganlikda guvohlanganda, uni jazolash va uchinchi shaxsni qo'rqitish, majburlash, yoxud kamsitishning istalgan turiga asoslangan sabablarga ko'ra sodir etilgan har qanday qilmish tushuniladi (Konvensiyaning 1-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 235-moddasi).

5.3. O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining Qiynoqqa qarshi konvensiya talablarini amalga oshirish asoslari

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya talablarini bajarish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbir rejalari va ushbu konvensiya normalariga organ xodimlarining rioya qilishlari uchun zarur yo'riqnoma ishlab chiqishni maqsad qilib olgan. Shuningdek, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi JPKning 243-moddasiga binoan tatbiq etiladigan tartiblar, ya'ni qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasini qo'llash tartiblari yo'riqnoma uchun tayyorgarlik imkoniyatlarini namoyon etadi. Ushbu vaziyat, ya'ni qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash jarayonlarida

qiynoqqa solish yoki qadr-qimmatni tahqirlash holatlari yuz berishi mumkinligi bilan bog'liq. Bu yo'riqnomaga ko'ra, prokurorlar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchidan ular bilan qanday munosabatda bo'linganligini shaxsan so'roq qiladi. Hozirgi kunda jinoyat ishlari bo'yicha gumon qilinayotgan va ayblanuvchi sifatida jalb etilgan voyaga yetmaganlar va ayollarni so'roq qilish jarayonlari aynan prokuror tomonidan amalga oshiriladi.

Mahbuslar bilan munosabatlarni va ehtiyot choralar nazoratini ta'minlash, ularni tekshirish uchun belgilangan joylarga yetkazish jarayonlarini JIEM xizmati va boshqarma vakillari amalga oshiradilar.

Qamoqxonalarda qonunlar va jazolar ijrosi yuzasidan davlat nazoratini O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlari amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 11-martdagi farmoniga binoan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida sud qarorlari ijrosini va qamoqqa olinganlarni saqlash jarayonlarini ta'minlashda qonunlarga rioya etishini nazorat qilish boshqarmasi tashkil etilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida ham bunday bo'limlar faoliyat yuritilmoqda.

Ushbu farmonga binoan, nazorat O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 2004-yil 11-maydagi «Sud qarorlari va boshqa organ hujjatlari, shuningdek qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya qilish nazoratini takomillashtirish to'g'risida»gi buyrug'iga ko'ra amalga oshiriladi.

Parlament nazorati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorining 19-bandida ta'kidlanganidek, surishtiruvchi, tergovchi, sud (sudya) qamoq joylaridan keltirilgan shaxsdan har doim surishtiruv, tergov harakatlari o'tkazilgan paytda unga nisbatan qanday munosabatda bo'lishganligi hamda saqlash sharoiti to'g'risida so'rashlari shart. Surishtiruv yoki tergovning qiynoqqa solish yoxud qonunga xilof boshqa usullari qo'llanilganligi to'g'risidagi har bir murojaat fakti bo'yicha shikoyat qilingan vajlarini sinchiklab tekshirish, shu jumladan, tibbiy guvohlantirish o'tkazish orqali sinchiklab tekshirishlar va natijasiga qarab, tegishli mansabdor shaxslarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atishga qadar protsessual yoki boshqa huquqiy choralar ko'rishlari shart.

O'zbekistonda qiynoqqa solishni taqiqlashga oid o'quv materiallari va axborotni keng tarqatish faol amalga oshirilmoqda. Bu faoliyatni ko'plab davlat muassasalari, nodavlat va xalqaro tashkilotlar amalga oshirmoqda. Masalan, 2002–2004-yillarda BMT, YXHT va YUNISEF tashkilotlarining

xalqaro hujjatlari davlat tilida o'n ming nusxada chop etilib, shundan besh mingtasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga mo'ljallangan.

O'zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash sifatini yaxshilash hamda ularning Qiynoqqa qarshi konvensiya normalariga rioya qilish borasida yetarli bilimlarga ega bo'lishlari uchun juda ko'p ishlar amalga oshirilyapti. Hozirgi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari inson huquqlari sohasida xalqaro talablardan bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha yangi lavozim yoki yangi unvon olayotganlarida ham shahodatlashdan o'tishga majbur.

Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Advokatlar assotsiatsiyasi hamkorligida ushlab turish va gumonlardan xalos etish hamda huquqiy himoyalani ta'minlash amaliyoti uchun «Dastlabki tergov va surishtiruv jarayonlarida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va ushlab turilgan shaxslarning himoya huquqlarini ta'minlash tartibi to'g'risida»gi nizom ishlab chiqilgan. Ushbu nizom ichki ishlar organlari mansabdor shaxslarining xulq-atvor, intizom qoidalariga rioya qilishlari va ushlab turish, gumon qilish, ayblash jarayonlarida qiynoqqa solishga hamda noqonuniy harakatlarga yo'l qo'ymasligini nazorat qiladilar.

Prokuratura organlari fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga rioya qilinishini nazorat qiladi, qiynoqqa solish tatbiq qilingan faktlarning surishtiruvida tezkorlik va xolislikni ta'minlashda faol ishtirokini ta'minlaydi. Prokuratura organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda, fuqarolarni noqonuniy jinoiy javobgarlikka tortish holatlarining sabab va sharoitlarini o'rganadilar bunday ishlarning oldini olish uchun tegishli chora-tadbirlarni tashkil etadilar.

2005-yildan boshlab fuqarolarning shikoyatlari O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida» yangi tahrirdagi qonuni asosida ko'rib chiqiladi. Yangi qonun qiynoqqa solish faktlari hamda hukumat vakillari tomonidan yo'l qo'yilgan suiiste'molliklarni mustaqil ravishda tekshirishning huquqiy asosini yuzaga keltiradi. Qonunning 10-moddasiga binoan, Ombudsman tashkilot yoki mansabdor shaxslarning harakat yoki harakatsizligi, buzilgan huquqlar, fuqarolarning erkinliklari va qonuniy manfaatlari borasida shikoyatlarni ko'rib chiqadi, surishtiruv ishlarini olib boradi.

Jinoyat qonunchiligi prinsipiga ko'ra, jinoyat qurbonlari sifatida qiynoqqa solingan shaxslar adolatli va tegishli tovon (kompensatsiya) olish huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi-ning 18-moddasiga ko'ra, «Ishni yuritish jarayonida shaxsning huquq va erkinliklarini buzish oqibatida unga yetkazilgan zarar ushbu kodeksda bel-

gilangan asoslar va tartibda undirilishi lozim». Ushbu kodeksning umumiy qismida ta'kidlanishicha, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zarar-ning to'liq qoplanishini talab qilishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 991-moddasiga ko'ra, qonunga xilof tarzda hukm etish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat olishni qonunga xilof qo'llash, qamoq tariqasidagi ma'muriy jazoni qonunga xilof tarzda berish natijasida fuqaroga yetkazilgan zarar surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning mansabdor shaxslari aybidan qat'i nazar, qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan to'la hajmda to'lanadi. Sudning qarori bilan zararni qoplash ushbu zararni yetkazishda aybdor mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining ma'naviy zararni qoplash haqidagi 102¹-moddasiga ko'ra, shaxs yetkazilgan zararni to'liq undirish huquqiga egadir. Ushbu moddaning 2-bandiga binoan, ma'naviy zarar uni yetkazuvchining aybidan qat'i nazar, fuqaroning hayoti va sog'lig'iga ortiqcha xavf manbai tomonidan yetkazilgan bo'lsa, fuqaroga uni qonunga xilof tarzda hukm qilish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni yoki munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat olishni qonunga xilof tarzda qo'llash, qonunga xilof tarzda ma'muriy jazo qo'llash va qonunga xilof tarzda ushlab turish natijasida yetkazilgan bo'lsa, zarar qoplanadi.

Qiynoq ta'siri ostida yozilgan har qanday shikoyat hech qanday sud muhokamasida isbot yoki asos bo'lib hisoblanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda qaroriga ko'ra, qiy-noqqa solish, zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, aldash hamda insonga nisbatan boshqacha shafqatsiz yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo'lish, qonunga xilof boshqa choralar qo'llash, shu jumladan, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqini buzish natijasida olingan dalillar ayblov asosiga qo'yilishi mumkin emas. Surishtiruvchi, tergovchi, sud (sudya) qamoq joylaridan keltirilgan shaxsdan har doim surish-tiruv, tergov harakatlari o'tkazilgan paytda unga nisbatan qanday munosa-batda bo'linganligi hamda saqlash sharoiti to'g'risida so'rashlari shart.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konven-siya talablarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi holatlar yuzasidan o'rganishi mumkin:

- insonning shaxsiy huquqlariga tajovuz;

- xalqaro jinoyatlarga taalluqligi;
- shaxsning qadr-qimmatini, hayoti va sog‘lig‘iga tajovuz;
- inson ruhiy olamini ayanchli oqibatlarga olib kelishi;
- qiynoqqa solinganning jiddiy reabilitatsiyasi zarurati;
- mansabdor shaxslarning sodir etgan jinoyatiga javobgarlikni nazarda tutish;

- xalqaro hamjamiyat oldida davlatning mas‘uliyati.

Davlatlar Qiynoqqa qarshi konvensiyaga amal qilish borasida quyidagi amaliy ishlarni hayotga tatbiq qilishlari lozim: qonunchilikka oid tadbirlar, qiynoqqa solishga yo‘l qo‘ymaslik va oldini olish masalalarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida huquqiy tadbirlarni tashkil etish, tarbiyaviy-ma‘naviy tadbirlarni shakllantirish, tez-tez va o‘z vaqtida qiynoqqa solish jarayonlarini tekshirish, ko‘rilgan moddiy va ma‘naviy zararlarga tovon (kompensatsiya) berishni tashkil etish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgustdan boshlab Qiynoqqa qarshi konvensiyaning ishtirokchisi hisoblanib, unda o‘rnatilgan qoidalarga ko‘ra, mazkur konvensiya bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar to‘g‘risida milliy ma‘ruza taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi milliy ma‘ruzasi 1999-yilda Qiynoqqa qarshi qo‘mitada ko‘rib chiqilgan. 2002-yil may oyida esa O‘zbekiston Respublikasining Ikkinchi ma‘ruzasi tinglandi. Uchinchi ma‘ruza, O‘zbekistonda oxirgi yillarda Konvensiya va BMTning Qiynoqqa qarshi qo‘mitasi tavsiyalari asosida amalga oshirilgan ishlari bayon etilgan.

6-Mavzu. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO HUQUQIY HUJJATLAR

6.1. Tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlarning umumiy tavsifi va tasniflanishi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida quyidagi qoida belgilab qo‘yilgan: «O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin».

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt»da o‘rnatilgan inson huquqlari normalarining aks ettirilishi, ushbu xalqaro hujjatlarga «jus cogens»ga xos xususiyatni beradi.

Shu asnoda qayd etish lozimki, BMT Ustavi, «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt», «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt» kabi hujjatlarda o‘rnatilgan tamoyil va me‘yorlarni o‘ziga konseptual asos qilib olgan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirishning kompleks tadbirlarini o‘zida jamlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-martdagi «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish dasturi to‘g‘risida»gi PQ-24 sonli qarorining qabul qilinishi ham bejiz emas¹.

Inson huquqlari xalqaro normalar va milliy qonunchilik hujjatlari bilan himoyalangan bo‘lib, bu yuridik himoya huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining barcha jabhalari, shu jumladan, ichki ishlar organlariga ham taalluqlidir. Inson huquqlarini himoya etish va ularga rioya qilish –

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни ислох қилиш ҳамда модернизациялаш мақсад ва вазифаларини амалга ошириш дастури тўғрисида»ги қарори. 2005 йил 10 март. ПҚ- 24 //Фуқаролик жамияти, Гражданское общество. Civil society. – Б.71–72.

huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishining muhim qismi, chunki bu organlar o'z vazifalarini bajarayotganda inson huquqlarini nafaqat hurmat qilishi, balki ularni faol himoya qilishi ham zarur. Bundan tashqari, demokratik huquqiy davlatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishining samarasi ularning inson huquqlarini qay darajada hurmat qilishi hamda ularga rioya etishiga bog'liq. Ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolar o'rtasidagi munosabat, inson huquqlarining hokimiyat tomonidan muhofaza qilinishi darajasi demokratik jamiyatning ko'rsatkichi hisoblanadi.

Inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoya qilish muammosi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligiga erishish muammosidir. Chunki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy funksiyalari – jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoiy ishlarni tergov qilish, muhtoj bo'lganlarga huquqiy yordam ko'rsatishdir. Ushbu vazifalardan birortasini ham fuqarolarning hamkorligisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Inson huquqlari tizimli tarzda buzilib kelinayotgan davlatda fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchi yo'qolishi va shu sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligining pasayganini kuzatish mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi va professionalligi muammosi nafaqat inson huquqlarini himoya qilish, balki har bir xodimning xavfsizligini ta'minlash bilan ham bog'liq. Huquq-tartibotni muhofaza qiluvchi mansabdor shaxsning hayoti va xavfsizligiga bo'layotgan tahdidga jamiyat barqarorligiga tahdid sifatida qaralishi lozim.

Biz shu paytgacha inson huquqlari bo'yicha asosiy, umum e'tirof etilgan xalqaro hujjatlar haqida so'z yuritdik va tahlil qildik («Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», xalqaro paktlar va boshq.). Inson huquqlari ularda tamoyillar, asosiy me'yorlar sifatida bayon etilgan.

Agar ularning ichidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taalluqli me'yorlarni ajratib oladigan bo'lsak, ular asosan taqiq va cheklashlar ekanligini ko'ramiz (shaxs erkinligi va xavfsizligi, adolatli sudlov tamoyilini buzmaganda tergov olib borish).

Ammo shunday hujjatlar ham mavjudki, ularda bu umumiy tamoyil va qoidalar huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining turli sohalariga oid batafsil qo'llanma va qoidalar sifatida berilgan.

BMT tizimida (Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha kongressda) turli vaqtlarda yuridik kuchi, subyektga yo'naltirilganligi, faoliyat doirasi bilan farqlanuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soladigan xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun xalqaro huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan inson huquqlarining xalqaro standartlarini quyidagi asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin:

1 faoliyat doirasi bo‘yicha:

ishlarni sudga qadar dastlabki tergov qiluvchi prokuror, tergovchi va surishtiruvchilarga mo‘ljallangan hujjatlar:

– sud ta‘qibini amalga oshiruvchi shaxslar faoliyatiga taalluqli rahbariy tamoyillar;

– huquqni ta‘minlovchi mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi;

– o‘qotar qurolni va kuch ishlatishning asosiy tamoyillari;

penitensiar muassasalarga taalluqli hujjatlar:

– o‘qotar quroldan foydalanishning minimal qoidalari;

– mahbuslar bilan muomala qilishning asosiy tamoyillari;

advokatlar (himoyachilar)ga taalluqli hujjatlar:

– yuristlarning roliga taalluqli asosiy tamoyillar;

voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qiluvchi hujjatlar:

– Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya;

– BMTning ozodlikdan mahrum qilingan voyaga yetmaganlarni himoya qiluvchi qoidalari;

sudlar va sudyalar uchun hujjatlar:

– sud organlari mustaqilligining asosiy tamoyillari;

2) yuridik kuchiga ko‘ra:

ratifikatsiya qilgan davlatlar uchun majburiy yuridik kuchga ega hujjatlar;

majburiy yuridik kuchga ega bo‘lmagan me‘yoriy tavsiyalar.

Majburiy yuridik kuchga ega hujjatlar – pakt va konvensiyalardir. Ular universal yoki mintaqaviy, umumiy yoki muayyan masalalarga tegishli bo‘lishi mumkin. Inson huquqlarining turli sohalariga taalluqli, umumiy xususiyatga ega ikki muhim xalqaro shartnoma – «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida»gi hamda «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida»gi xalqaro paktlardir. Mintaqaviy shartnomalarga Inson huquq va erkinliklari to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi, Inson va xalqlar huquqlari to‘g‘risidagi Afrika xartiyasi va boshqa shartnomalar kiradi.

Davlatlar biror masalaga tegishli shartnomalarni imzolashi mumkin. Ularga Irqiy kamsitishning barcha turlarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya, Genotsid jinoyatining oldini olish va u bo‘yicha jazoga tortish to‘g‘risidagi konvensiya, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya, Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha ko‘rinishlariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyalar kiradi.

Tavsiyaviy xususiyatga ega ayrim hujjatlar bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Xususan, ularga quyidagilar kiradi:

– BMTning huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi;

– Yevropa kengashining politsiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi;

– BMTning huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar tomonidan kuch ishlatish va o‘qotar qurolni qo‘llash tamoyillari majmui.

Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari 1955-yildagi BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha birinchi kongressida qabul qilingan.

BMT Bosh Assambleyasi 1971-yilda ishtirokchi davlatlarga ushbu qoidalarini penitensiar va axloq tuzatish idoralarini boshqarishda hamda ularni milliy qonunchilikka samarali qo‘llashni ijobiy hal qilishni tavsiya etgan.

Bosh Assambleya 1976-yil Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)ga Ushlab turish va qamoqda saqlashning har qanday shakllariga duchor bo‘lgan shaxslarni himoya qilish uchun tibbiy etika kodeksining loyihasini ishlab chiqishni taklif etdi. 1982-yili Bosh Assambleya JSST, Xalqaro ilmiy tibbiy tashkilotlar kengashi va Xalqaro tibbiy assambleya ko‘magida Tibbiy etika tamoyillarini ishlab chiqdi va qabul qildi. Ushbu Tamoyillar tibbiyot xodimlari, ayniqsa, shifokorlarning ushlab turilgan va qamoqda saqlanayotgan shaxslarni qiynoq, muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi turlaridan himoya qilishdagi roliga taalluqlidir.

Bosh Assambleya 1983-yili barcha hukumatlarning tibbiyot xodimlari, shuningdek ushlab turish va qamoqda saqlash huquqiga ega idoralar xodimlarini mazkur tamoyillarga rioya qilishini ta’minlashga chaqirdi.

1985-yili BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha yettinchi kongressi voyaga yetmaganlarga nisbatan sudlovni amalga oshirish bo‘yicha BMTning minimal standart qoidalari yoki «Pekin qoidalari»ni tayyorladi va Bosh Assambleyaga qabul qilish uchun tavsiya etdi. Ushbu qoidalar javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan minimal yosh, voyaga yetmaganlarni sud qilishning maqsadlari, voyaga yetmaganlarga nisbatan sudlovni amalga oshirishning samarali, odilona, insonparvarlik hamda inson huquqlarining qo‘llanishi lozim bo‘lgan tamoyillariga taalluqlidir. Mazkur qoidalar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish va odil sudlovni amalga oshirish hamda sudga qadar qamoqda saqlash masalalarini ham qamrab oldi. Umuman olganda, qoidalarda voyaga yetmaganlarni jazolashda ularni

axloqni tuzatish muassasalariga yuborishni minimal darajada qo'llash tavsiya etilgan. Qoidalarda, jazoni o'tash muassasalarida voyaga yetmaganlar huquqlarini ta'minlash masalalari ham mustahkamlangan.

Bosh Assambleya ushbu qoidalarni 1985-yili qabul qildi, davlatlarga ularni barcha tegishli hollarda qo'llashni, tegishli idoralar, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va aholiga yetkazishni tavsiya etdi.

Mazkur hujjatlar yuridik jihatdan majburiy kuchga ega bo'lmasa ham, majburiy vosita holatlariga alohida urg'u beradi va e'tiborni kuchaytiradi hamda inson huquqlari standartlarining batafsil ro'yxatini o'rnatib, mamlakatlar, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan mazkur qoidalariga rioya etilishiga yordam beradi.

Yuqoridagi hujjatlarning ahamiyati shundaki **birinchidan**, ular davlatlarning milliy qonunchiligini ishlab chiqish va takomillashtirishda model, standart vazifasini bajaradi; **ikkinchidan**, ushbu hujjatlar xalqaro tashkilotlar (BMT, YEXHT va boshqa) uchun davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimining demokratiyalashuvi darajasini aniqlash standartlari hisoblanadi; **uchinchidan**, mazkur hujjatlarning mazmuni huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga ma'lum bo'lishi lozim, chunki ular ushbu organlarda ishlab chiqilayotgan ichki buyruq, yo'riqnoma va tavsiyalar uchun asos bo'lishi mumkin.

6.2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar – huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar sifatida

Ikkita asosiy xalqaro paktdan tashqari, ulardagi g'oyalarning mantiqiy davomi deb ta'kidlangan boshqa universal davlatlararo hujjatlar mavjud bo'lib, bu hujjatlarda inson huquqlari va erkinliklari nisbatan aniqroq yoritilgan. Ular ayollarga nisbatan kamsitishga barham berish, bola huquqlarini himoya qilish, qiynoqlar va irqiy kamsitishni taqiqlash masalalariga qaratilgan.

Ular mazmuniga ko'ra, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro Billda bo'lmagan yoki yetarli darajada inobatga olinmagan holatlarni to'ldiradi va aniqlik kiritadi. Bu universal hujjatlar qiynoqlar va irqiy kamsitish yoki nisbatan kamroq himoyalangan shaxslar guruhi (ayollar, bolalar, mehnatkash-migrantlar)da inson huquqlari buzilishining aniq ko'rinishlari borasida xalqaro huquqiy aktlardir.

BMTning inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan asosiy xalqaro shartnomalariga quyidagilar kiradi:

– Ayollarga nisbatan barcha ko'rinishdagi kamsitishni yo'q qilish to'g'risidagi konvensiya (1979y);

- Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989y);
- Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya (1984 y.);
- Irqiy kamsitishning barcha turlarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (1965y):
 - Mehnatkash migrantlar va ularning oila a‘zolarini himoya qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (1990 y.);
 - Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (2006 y.) va boshqalar.

Ikkita paktga qo‘shimcha to‘rtta katta maxsus xalqaro shartnoma ushbu paktlarga amal qilinishini nazorat qilish maqsadida inson huquqlari bo‘yicha ekspertlar qo‘mitasini tashkil qilishni nazarda tutadi. Bunday shartnomalarning ishtirokchi davlatlari tegishli qo‘mitalarga shartnomalarning bajarilishi va bunda vujudga kelayotgan muammolar to‘g‘risidagi doimiy hisobotlarni taqdim etishga rozilik bildiradilar. Qo‘mita bu hisobotlarni va o‘zi ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday boshqa ma‘lumotlarni ko‘rib chiqib, davlatga o‘z zimmasiga olgan huquqiy majburiyatlarni bajarishga ko‘maklashish maqsadida tavsiyalar berishi mumkin.

Ushbu konvensiyalarning tafsilotiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Ayollarga nisbatan barcha ko‘rinishdagi kamsitishlarga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya 1974–1979-yillarda BMTning turli organlari tomonidan Ayollar maqomi bo‘yicha komissiya rahbarligida tayyorlangan bo‘lib, 1979-yil 18- dekabrda qabul qilingan va 1981-yilda kuchga kirgan.

Konvensiyaning 1-moddasida «ayollarga nisbatan kamsitish» tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: «Ayollarning oilaviy sharoitidan qat’i nazar, erkak va ayollarning teng huquqliligi asosida tan olinishi, qo‘llanishi yoki amalga oshirilishini susaytirish yoki yo‘qqa chiqarishga qaratilgan jinsiy belgisiga ko‘ra har qanday farqlash, istisno qilish yoki cheklashni anglatadi».

2-moddaga muvofiq, ushbu konvensiya ishtirokchisiga aylangan davlatlar quyidagi majburiyatlarni oladilar:

birinchidan, erkaklar bilan ayollarning teng huquqliligi prinsipini, agarda bu hozirgacha qilinmagan bo‘lsa, milliy konstitutsiyalar va boshqa tegishli qonunlarga kiritish hamda qonun va boshqa tegishli vositalar yordamida ushbu prinsipning amaliyotga joriy etilishini ta‘minlash;

ikkinchidan, xotin-qizlarning har qanday kamsitilishini taqiqlovchi tegishli qonunchilik choralari va boshqa choralarni ko‘rish, jumladan, zarur bo‘lganda, jazolarni qo‘llash;

uchinchidan, ayollar huquqlariga erkaklar bilan teng asosda yuridik himoya belgilash, tegishli milliy sudlar va davlat muassasalari yordamida

xotin- qizlarning har qanday kamsitilishdan samarali himoya qilinishini ta'minlash;

to'rtinchidan, har qanday shaxs, tashkilot yoki korxonadan xotin-qizlarning kamsitilishini bartaraf etish uchun barcha tegishli choralarni ko'rish;

beshinchidan, xotin-qizlarni kamsituvchi mavjud qonunlar, qarorlar, urf-odatlar va amaliyotni o'zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha tegishli choralarni, shu jumladan, qonunchilik choralarni ko'rish.

Konvensiyaning amalga oshirilishini nazorat qilish maqsadida, ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish qo'mitasi tashkil qilinadi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan va 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. Uning asosiy maqsadi bola manfaatlarining yuqori darajasida himoyasini ta'minlashdan iborat. Konvensiya uni ratifikatsiya qilgan davlatlarni bolalarga o'z mamlakatlari- ning ijtimoiy hayotida faol va ijodiy qatnashishlari mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratishga da'vat etadi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning asosiy tarkibi quyidagilardan iborat:

birinchidan agar milliy qonunchilik voyaga yetishning yoshroq yoshini nazarda tutmagan bo'lsa: 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi

ikkinchidan, konvensiya fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarning butun majmuini qamrab oladi va bir huquqning amalga oshirilishi ikkinchi huquqning amalga oshirilishidan ajralmasligini tan oladi;

uchinchidan, o'z intellektual, axloqiy va ruhiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun bolaga zarur erkinlik atrof muhitning sog'lomligi va xavfsizligi darajasi, sog'liqni saqlashga imkoniyatlarning mavjudligi hamda ovqatlanish, kiyim va uy-joyga bog'liqligini konvensiya ko'rsatib beradi;

to'rtinchidan, konvensiyaning muhim prinsipi bu kamsitishga yo'l qo'ymaslikdir. Bolalar o'z huquqlaridan irqi, terisining rangi, jinsi, tili, kelib chiqishi, mulkiy holati, sog'lig'ining holati va bolaning tug'ilishi, ota-onasi yoki qonuniy vasiylari yoki boshqa har qanday holatlardan qat'i nazar, hech qanday kamsitishsiz foydalanishlari lozim;

beshinchidan, konvensiya bolalarni ekspluatatsiyaning har qanday ko'rinishlaridan himoya qilib, milliy ozchilik vakillari va tub xalqlarning bolalari masalasi, shuningdek giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilish va bolalarga g'amxo'rlikning mavjud emasligini ko'rib chiqib, inson huquqlarining huquqiy chegaralarini kengaytiradi;

oltinchidan, konvensiyada jinoiy faoliyatga jalb qilingan bolalar huquqlarini muhofaza qilishga oid aniq qoidalar mavjud;

yettinchidan, konvensiya oila va ota-onaning bolalarga g'amxo'rliги va ularning himoyasidagi muhim rolini, shuningdek davlatning ota-onalarga o'z majburiyatlarini bajarishda yordamlashishi majburiyatini tan oladi.

Ushbu konvensiyaga amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga yuklatilgan.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, noinsoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya 1984-yil 10-dekabrda qabul qilingan va 1987-yil 26-iyundan kuchga kirgan. Konvensiyaning ishtirokchi davlatlari o'z yurisdiksiyalaridagi har qanday hududda qiynash aktlarining oldini olish uchun qonunchilik, ma'muriy, sud va boshqa choralarni samarali qo'llash majburiyatini oladilar. Urush holati yoki urush xavfi, ichki siyosiy beqarorlik yoki boshqa istalgan favqulodda holatligidan qat'i nazar, qiynoqni oqlashga xizmat qilolmaydi.

Konvensiyaga xos muhim jihatlar quyidagilardan iborat:

– u ishtirokchi davlatlarning o'z milliy qonunchiligida qiynoqlarni to'liq taqiqlashini nazarda tutadi;

– unda yuqori turuvchi rahbar buyrug'i va hech qanday istisno holatlar qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlari va jazolarni oqlash uchun xizmat qilmasligi mustahkamlangan;

– u har qanday qiynoqni qo'llagan shaxs har qanday ishtirokchi davlat hududida sud ta'qibiga olinishi mumkinligini o'rnatadi. Har qanday qiynoq aktini sodir qilganlikda gumon qilinayotgan shaxs sud javobgarligiga tortilishi yoki sud javobgarligiga tortish maqsadida hududida jinoyat sodir etilgan ishtirokchi davlatga ushlab berilishi mumkin;

– u qaysidir ishtirokchi davlat hududida tizimli qiynoqlar qo'llanilishi haqida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda, xalqaro surishtiruvni amalga oshirishni nazarda tutadi. Ishtirokchi davlatning roziligi bilan bunday surishtiruv uning hududini ko'zdan kechirishni ham nazarda tutishi mumkin.

Mazkur konvensiyaning amalga oshirilishini Qiynoqlarga qarshi qo'mita nazarga oladi.

Irqiy kamsitishning barcha turlarini yo'q qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya 1965-yil 21-dekabrda qabul qilingan va 1969-yil 4-yanvarda kuchga kirgan. U har bir shaxsga tenglik va kamsitmaslik prinsipini to'liq amalga oshirishni kafolatlaydi. Konvensiya irqiy kamsitishlarning barcha turlarini yo'q qilish, oldini olish va irqiylik nazariyalari hamda amaliyotini tugatish hamda barcha irqiy segregatsiya va kamsitishlardan xoli xalqaro jamiyat qurishga yo'naltirilgan.

Mazkur konvensiyaning ishtirokchi davlatlari irqiy kamsitishlarning barcha shakllarini yo‘q qilish va irqi, terisining rangi, milliy yoki etnik kelib chiqishidan qat’i nazar, qonun oldida tenglikni kafolatlash, shuningdek inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishni ta’minlash majburiyatini oladilar. Bunday huquqlar qatoriga mehnat qilish huquqi, kasaba uyushmalariga birlashish va uy-joyga bo‘lgan huquqlar kiritilgan.

Ushbu konvensiyaning amalga oshirilishini Irqiy kamsitishni tugatish Qo‘mitasi kuzatadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan konvensiyalar, **bir tomondan**, inson huquqlariga rioya qilinishi ustidan nazoratning asosiy xalqaro mexanizmi bo‘lsa, **ikkinchi tomondan**, inson huquqlari bo‘yicha milliy qonunchilikni takomillashtirish mexanizmlarini taklif qiladi.

6.3. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni amalga oshirish

O‘zbekistonda demokratik jamiyatni qurishning hozirgi sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldidagi vazifalarni bajarilish, inson huquqlarini doimo oliy qadriyat sifatida konstitutsiyaviy e’tirof etish, umum e’tirof etilgan xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq ularni konstitutsiyaviy kafolatlashni hisobga olishga asoslanishi lozim. Bevosita inson huquqlari kafolatlariga taalluqli xalqaro standartlarni amaliyotda qo‘llash muammolari hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ichki ishlar organlari, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar faoliyatiga bevosita taalluqli maxsus xalqaro hujjatlar xodimlarni tarbiyalashda va ularning kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynamoqda. Ular shaklan tavsiyaviy mazmun kasb etsa-da, biroq ko‘plab davlatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ham rasmiy ravishda ijro etishga qabul qilingan. Ushbu hujjatlar barcha xodimlarning bilimdonligi, umumiy va kasbiy madaniyatini oshirish, xizmat etikasi normalariga rioya qilish, fuqarolar bilan ishlash faoliyatida insonparvarlik prinsiplariga tayanishi maqsadlariga mos keladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taalluqli hujjatlar quyidagilar: Huquq-tartibotni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning axloq kodeksi (1979-yilda BMTda qabul qilingan), Huquq-tartibotni saqlash maqsadida mansabdor shaxslarning kuch ishlatish va o‘qotar qurol qo‘llashining asosiy tamoyillari (1990-yilda BMTda qabul qilingan), Politsiya to‘g‘risidagi deklaratsiya (1979-yilda Yevropa kengashida qabul qilingan) va boshqalar.

Mazkur hujjatlarning fundamental qoidalari orasida quyidagilarni ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq: har kimning huquqlari va qadr-qimma-

tini soʻzsiz hurmat hamda himoya qilish (kodeksning 2-moddasi); yuqori turuvchi shaxslarning qarorlari yoki istisno etuvchi holatlar (urush, siyosiy beqarorlik va boshq.) oqlash yoʻli bilan qiynoq yoki boshqa shafqatsiz, gʻayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlarini qoʻllashga yoʻl qoʻymaslik (kodeksning 5-moddasi); oʻz vazifalarini amalga oshirishda imkoni boricha, oxirgi zaruratda kuch ishlatish yoki oʻqotar qurolni qoʻllash vaziyatiga qadar zoʻrlamas vositalaridan foydalanish (Asosiy prinsiplarning 4-moddasi); noqonuniy ravishda kuch yoki oʻqotar qurolni qoʻllashdan voz kechgan yoki bu toʻgʻrida xabardor qiluvchi mansabdor shaxslarga jinoiy yoki intizomiy choralari qoʻllamaslik (Asosiy prinsiplarning 25-moddasi).

Bunday qoida huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotida prinsipial yoʻllanish boʻlib xizmat qilishi mumkin. Bu qoida va prinsiplarning u yoki bu mazmunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi koʻplab qonunosti hujjatlarida mustahkamlab qoʻyilgan.

Mustaqillikka erishilgach Oʻzbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari tamomila soʻng, inson huquqlarining xalqaro standartlari tarafdorlariga aylandi. Bu, demokratik islohotlar, huquqiy davlatni shakllantirish, siyosiy va mafkuraviy plyuralizmni eʼlon qilish va nihoyat, insonning, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb konstitutsiyaviy tarzda eʼtirof etilishi bilan bogʻliqdir.

Oʻzbekistonda huquqiy davlatni shakllantirish bevosita qonuniylikni taʼminlash bilan bevosita bogʻliq. Qonuniylik tartibi deganda, davlat hokimiyati, uning organlari va mansabdor shaxslari, shuningdek keng jamoatchilik tomonidan demokratik qonunlarga qatʼiy va soʻzsiz rioya qilish talabi tushuniladi. Mustahkam qonuniylik davlatning rivoji va demokratiyalashuvining jiddiy koʻrsatkichi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot garovi, nihoyat, inson va fuqaro huquq va erkinliklarini taʼminlash va ularni muhofaza qilishning kafolati hisoblanadi. Qonuniylikni huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ayniqsa, ichki ishlar organlari faoliyatiga tatbiq etish, dolzarb hisoblanadi.

Davlat apparatida jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini muhofaza qilish, fuqarolar xavfsizligini taʼminlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va boshqa shu kabi vazifalarni bajarishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar alohida oʻrinni egallaydi. Bu esa, faoliyatida tezkor qidiruv usullari, majburlashning turli vositalari, huquqbuzarlarga nisbatan oʻqotar qurollarni qoʻllashga qadar qatʼiy kuch ishlatish, taʼsir koʻrsatish kabi davlat, hokimiyatchilik vakolatlari bekordan-bekorga berilmaganligini anglatadi. Bularning hammasi huquqni muhofaza

qiluvchi organlarning keng vakolatlarini amalga oshirishda qonuniylik va inson huquqlariga rioya qilishning ahamiyati jiddiyligini ko'rsatadi.

Shaxsning huquq va erkinliklari bilan bog'liq qonuniylik muammosining asosiy uchta bloki muhim, ular quyidagilarga bog'langan:

birinchidan, ularning himoyasi bilan;

ikkinchidan, ularning amalga oshirilishini ta'minlash bilan;

uchinchidan, ularga rioya qilish bilan.

Mazkur masalalar bir-biriga uzviy bog'liq ularni bir-biridan batamom ajratib hal qilib bo'lmaydi (masalan, tergovchi jabrlanuvchining jinoiy yo'l bilan buzilgan huquqlarini, aybdorning himoyaga bo'lgan huquqini ta'minlab berishi, uning aybsizlik prezumpsiyasiga bo'lgan huquqiga va boshqa huquqlariga rioya qilishi lozim). Shu bilan birga, har qaysi masala o'ziga xos xususiyatga ega, ya'ni, **bir tomondan**, qonuniylikka rioya etilishining ko'rsatkichlari bo'lsa, **ikkinchi tomondan esa**, qonuniylik buzilishining keskin oqibatlarini ekanligiga aloqador.

Shaxs huquq va erkinliklarining ko'rsatib o'tilgan kafolatlari amaliyotda shakllanadi, bunda qonunchilikning matni, ayrim hollarda esa, uning ma'nosidan kelib chiqiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, inson va fuqaro huquqlari va erkinliklariga rioya qilish hamda ularni himoya qilish – davlatning majburiyatidir.

Inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlardan faol harakatlarni amalga oshirishni emas, balki inson huquqlari va erkinliklarining buzilishiga imkon yaratuvchi yoki ularni buzadigan harakatlarga yo'l qo'ymaslikning talab etilishi shaxs huquqlariga rioya etishning o'ziga xos jihatlari hisoblanadi. Keng ma'noda yuqoridagilar inson huquqlari va erkinliklarining ro'yxatini Konstitutsiyada va qator tarmoqlararo normalarda mustahkamlab qo'yilishiga taalluqlidir. Xodimlar tomonidan, **birinchidan**, quyidagi huquqlarga: shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini, qiynoqqa solishdan, zo'rlik va shafqatsiz muomala qilinishdan erkinligi, shaxsiy hayotining daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, aybsizlik prezumpsiyasiga bo'lgan huquqi so'zsiz va hech qanday qarshiliksiz rioya etilishi shart. **Ikkinchidan**, ayrim holatlarda, xususan, jinoyatni bartaraf etish, ochish va tergov qilish holatlari bilan bog'liq ravishda qonun bo'yicha mumkin cheklashlar ba'zi huquq va erkinliklarga rioya etishning o'ziga xosligi hisoblanadi. Bularga, shaxsiy daxlsizlik huquqi, uy-joyning daxlsizligi, yozishmalarning sir saqlanishi, telefonda so'zlashuvlarning sir saqlanishi va boshqalar kiradi.

Nihoyat ko'rib chiqilayotgan holatda har kimning yashash huquqi kabi nafaqat rioya qilinishi, balki vakolatlaridan kelib chiqqan holda, huquqni

muhofaza qiluvchi organlar tomonidan muhofaza qilinishi lozim bo'lgan huquqlari alohida muhim o'rin egallaydi. Qonuniy ravishda qurol ishlatish bilan inson hayotiga muqarrar ravishda tahdid solish xavfi iloji boricha kam hamda bartaraf etilayotgan jinoyatdan kutilayotgan oqibat bilan mutanosib bo'lishi kerak.

Muammo juda ham keskin va dolzarbdir, chunki o'z oldida turgan vazifalarni bajarishi jarayonida xodimlar ko'pincha inson huquqlari va erkinliklari bilan to'qnash keladilar. Alohida jinoyat-protsessual harakatlar (tintuv, olib qo'yish, mulkni xatlash, aybdorni qamoqqa olish va boshq.), tezkor qidiruv chora-tadbirlarini o'tkazish, ma'muriy majburlash choralari-ni qo'llash (hujjatlarni tekshirish, transportni tekshirish, shaxsni ushlab, jarima qo'llash, haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilish va boshq.); va nihoyat, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurollarni qo'llash, odatda, ma'lum ma'noda, fuqarolarning hayotiy faoliyatiga aralashuv, ularning huquq va erkinliklarini cheklash, moddiy jihatdan mahrum qilish, hattoki ularning hayoti va sog'lig'iga tahdid solish kabi holatlar bilan bog'liq.

Bunday turdagi harakatlar (albatta, buning uchun daliliy asoslar bo'lgan taqdirda) qonuniyligining birinchi darajali shartlari, xatti-harakatlarni qonunchilikda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish va vazifalarni hal etish uchungina amalga oshirish va shunga teng ravishda o'rnatilgan protsedura va tartiblarga rioya qilgan holda sodir etish, ushbu harakatlar bilan insonning asosiy huquqlari o'zaro mutanosibligidir.

Hokimiyat tomonidan biror-bir shaxsga nisbatan asossiz kuch ishlatish, individning huquqlarini cheklashga istisnosiz yo'l qo'yilmaslikning muhim ahamiyatga ega ekanligi aybsizlik prezumpsiyasining shak-shubhasiz umumiy prinsipi hisoblanadi. Jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir ayblanuvchi, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmas va sudning hukmi qonuniy kuchga kirmas ekan, u aybdor hisoblanmaydi. Hokimiyat tomonidan majburlash choralari qanchalik qattiq qo'llansa, «qonuniylik» – «inson huquqlari» bog'lanishi shunchalik qattiq bo'lish diqqatga sazovordir.

Shaxsni qamoqqa olishning doimo salbiy ta'sirlari borligi ma'lum: shaxs erkin bo'lmaydi, oiladan ajralib qoladi, atrofdagilar oldida obro'sizlanadi, chunki omma o'rtasida «aybdor qamalmaydi», degan fikr tarqalgan (bu fikr keyinchalik qamoqdan ozod qilinganda ham saqlanib qolmoqda), ishlash va hayot uchun pul topish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Qamoqqa olish insonning (ayniqsa, aybsizning) g'azabini keltiradi, uning irodasini sindiradi, sog'lig'iga zarar yetkazadi, insonga va uning oilasiga ma'naviy

va moddiy zarar yetkazadi. Agar qamoqqa olish noqonuniy bo'lsa, unda, albatta, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar shaxsiy daxlsizlik, obro'si va sog'lig'ining, ko'chib yurish va boshqa huquqlarning buzilishiga olib keladi. Fuqaroni qamoqqa olishning asossizligi, qonunga zidligi rasmiy ravishda aniqlansa, uning ozodlikka chiqishi bilan bog'liq yangi muammolari – rehabilitatsiya (ijtimoiy ko'nikma)si va yetkazilgan zarar uchun tovon puli olish muammolari paydo bo'ladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar ko'pincha inson va fuqaroning huquq va erkinliklariga qo'llaniladigan u yoki bu harakatlarning qonuniyligi to'g'risidagi ayrim fundamental qoidalar belgilab beradi. Umuman olganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari inson huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq hamma holatlarda insonga uning huquq va erkinliklarini cheklashning asoslari va sabablarini, shu bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan huquqlar va majburiyatlarni tushuntirib berishlari lozim. Qayd etish kerakki, bunday huquqiy tartib ushlab va qamoqqa olishning asosiy sharti hisoblanadi.

Xususan, AQSHda bunday holat 1966-yili Oliy sudning mashhur «Miranda Arizona shtatiga qarshi» ishi bo'yicha qaror chiqarishiga sabab bo'ldi. O'sha paytda, sudning qarori (zo'rlash va bosqinchilik to'g'risidagi) ushlangan shaxsga uning o'ziga nisbatan ma'lumotlar berishdan voz kechish huquqi, advokat bilan uchrashish va so'ralayotgan savollarga advokat oldida javob berish huquqi, shuningdek ushlanganning ma'lumotlari sudda unga qarshi qo'llanishi mumkinligi to'g'risida politsiya xodimlari tomonidan ogohlantirilmaganligi uchun ham bekor qilingan edi. AQSH Oliy sudi qarorining mazkur pretsedent kuchidan kelib chiqib, politsiya uni «Miranda ishidan ogohlantirish» («Miranda Warning») deb nomlab, o'ziga ko'chirma qilib oldi va barcha politsiya xodimlariga gumonlanuvchilarni (ushlanganlarni) o'z huquqlari bilan tanishtirish majburiyatini yukladi. Mazkur qoidani qo'llamaslik, politsiya faoliyatida qonuniylikning buzilishi hisoblanadi va shu bilan birga, olingan «isbotlar» o'z kuchini yo'qotadi, ularga asoslangan sud hukmi bekor qilinadi.

Demak, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash bo'yicha o'zlarining har tomonlama vakolatlari va majburiyatlarini lozim darajada amalga oshirishi ular faoliyatining qonuniy ekanligining muhim ko'rsatkichi ekan. O'z navbatida, xodimlarning qonuniylik talablariga rioya qilishlari inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini amalga oshirishning samaradorligiga ham yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, aholining huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ijobiy munosabati shakllanadi va ishonchi ortadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonun buzilishi holatlari jamiyat uchun ikki barobar xavflidir: to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlik qo'llash bilan muayyan shaxsga bevosita zarar yetkazish yoki qonunda talab qilingan yordamni ko'rsatmaslik yo'li bilan zarar yetkazishdan tashqari, ular fuqarolarda huquqiy nigilizmni, huquqni muhofaza qiluvchi tizimga ishonchsizlikning tug'ilishiga olib keladi. Bunday qilmishlar davlatdagi butun qonuniylik tartibga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Insonlar huquqning kuchiga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tartibga rioya qilishiga, o'z vakolatiga mosligiga va nihoyat, o'zlarining jinoiy tajovuzlardan himoyalanganligiga, huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Hattoki, jinoyatchiga nisbatan ham huquqiy normalarning buzilishi nafaqat uning huquqlarini, balki qonun bilan boshqariladigan mamlakatdagi har qaysi fuqaroning hayotga bo'lgan huquqlarini poymol qilishdir.

Afsuski, ko'pgina xodimlar haligacha inson huquqlarining mazmun-mohiyatini, uning qadrini tushunmaydilar, qandaydir deklarativ (tavsiyaviy) vositalar «biz uchun to'g'ri kelmaydi» deb, faqat kuch ishlatish, qo'rqitish, shafqatsizlikni har qanday huquqni muhofaza qilishga oid vazifalarni hal qilishdagi asosiy vosita hisoblab, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini inkor etib keladilar. Shu o'rinda rivojlangan jamiyatda xodimlar, fuqarolar huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar soliq to'lovchilar – fuqarolar uchun kerakligini prinsipial ravishda tushunishlari kerak, xolos. Ko'plab rivojlangan demokratik davlatlardagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining amaliyoti bilan tanishish shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni, avval, inson huquqlarini hurmat qilishgani uchun ham hurmat qiladilar.

O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari, xususan, ichki ishlar organlari o'z faoliyatida qonuniylikni mustahkamlash, inson huquqlariga rioya qilish borasida ko'pgina sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Bunga qonuniylik masalalariga taalluqli maxsus idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, jumladan, 2016-yil 30-maydagi «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 82-sonli buyrug'i misol bo'lishi mumkin.

6.4. Ichki ishlar organlari faoliyatida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash

Huquqiy davlatda shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish, bartaraf etish va tergov qilish qonuniy vositalar yordamida olib borilishi lozim. Davlatning barcha hokimiyat-ijro etuvchi tuzilmalari va ayniqsa, ichki ishlar organlari (o'z

vakolatlari doirasida) fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlab berishi, ularni himoya qilish funksiyasini amalga oshirishi darkor. Mazkur huquqlarni himoya qilish zimmasiga yuklatilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar orasida ichki ishlar organlari alohida o'rin egallaydi.

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- fuqarolar xavfsizligini ta'minlash;
- jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish;
- jinoyatlarni tezda va to'liq ochish;
- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash;
- mulkni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilish;
- o'zining qonuniy huquq va manfaatlarini amalga oshirishda fuqarolarga, mansabdor shaxslarga va boshqa subyektlarga huquqiy va tashkiliy yordam ko'rsatish va boshq.

Ichki ishlar organlari tuzilmaviy bo'g'inlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan huquqlarga tahdid solayotgan turli huquqbuzarliklarga qarshi kurash olib borishga qaratilgan.

Faoliyatning ko'rsatib o'tilgan turlari mazmuni va xususiyatiga qaramay, shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasidagi vazifalarga taalluqli asosiy prinsiplar, shakllar va usullar bir xildir, faqat tafsilotlarida gina farqlanadi, xolos. Hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan ichki ishlar organlarining faoliyati qonunda ular uchun belgilab qo'yilgan huquqiy shakllarda amalga oshiriladi. Ularga, turli mazmunga ega bo'lishiga qaramay, yaqindan bog'langan va o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy va yuridik shakllar kiradi. Bundan tashqari, ularning har biri o'zida boshqasiga taalluqli elementni ham olgan bo'lib, ayrim hollarda, ularni farqlash juda qiyin kechadi. Bu ichki ishlar organlari funksional tuzilmasining ikki xususiyatga egaligidan darak beradi. Ular davlat boshqaruvi organlari tizimiga kiradi va hokimiyat vakili sifatidagi vakolatni amalga oshiradi, o'z kuchlari va vositalariga nisbatan ham, shuningdek tashqi muhitga nisbatan ham boshqaruvchilik tizimini tashkil etuvchilik vakolatini amalga oshiradi. Bundan tashqari, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini har qanday tahdidlardan himoya qilish majburiyati yuklatilgan huquqni muhofaza qilish tizimining faol bo'g'ini ham hisoblanadi.

Qayd etib o'tilganidek, faoliyatning yuridik va tashkiliy shakllari o'rtasidagi chegara ancha noaniqdir, chunki ular ko'proq o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi yoki bir-birini takrorlaydi.

Mazmuni va xususiyatiga ko'ra, yuridik shakl huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatini qamrab oladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning norma ijodkorligi faoliyati idoraviy-me'yoriy hujjatlarni yaratishga qaratilganligi uchun qonunosti hujjatlar yaratish xususiyatiga egadir. Ulardan maqsad huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining turli jihatlarini tartibga solishdir. Biroq ular faoliyatning qaysi sohasini tartibga solmasin, asosiy maqsadi – fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdir.

Birinchi holatda jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashni tartibga soluvchi hujjatlar, ikkinchi holatda esa, ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlari mexanizmlari belgilab beriladi.

Qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlarning ko'pgina qismi qonunchilikni mustahkamlash, shaxsning huquq va erkinliklariga rioya qilish muammolariga taalluqlidir.

Qabul qilinayotgan qator hujjatlar davlat qonunlarini va boshqa qonunosti hujjatlarini to'ldiradi va aniqlik kiritadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmasligi, huquq va erkinliklar faqat qonun yo'li bilan va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun zarur darajada chegaralanishi mumkin, degan qoidaga mos kelishi shart.

Ichki ishlar organlari faoliyatining yana bir turli – huquqni qo'llash hisoblanadi. Unga huquqiy normalarni amalga oshirish mexanizmining eng ishlovchi elementlaridan biri va individual aniq ishlar borasida davlat hokimiyatiga taalluqli qarorlarni qabul qiluvchi sifatida qarash lozim.

Bundan tashqari, Konstitutsiya va boshqa normativ hujjatlarda e'lon qilingan huquq va erkinliklarni ro'yobga chiqarishga tegishli huquqiy normalarni qo'llash orqali erishiladi.

Shu bilan birga, huquqni qo'llash bevosita ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilariga hokimiyatchilik vakolatlari orqali ta'sir qilishda aks etganligi uchun ham boshqaruv faoliyatining bir turi hisoblanadi. Ushbu tarzdagi ta'sir ko'rsatish jo'natilgan organlar va shaxslar tomonidan ijro etish majburiy bo'lgan huquqiy hujjatlar va ko'rsatmalar ko'rinishiga egadir. Qayd etish kerakki, bunday ko'rsatmalar davlatning majburlash choralarini qo'llash imkoniyatini ta'minlab beradi.

Huquq normasini qo'llashga bo'lgan asosiy talab uning qonuniyligi, asoslanganligi, maqsadga muvofiqligi va adolatligi hisoblanadi.

Huquqiy normalarni qo'llashning mohiyati muayyan yuridik holatni tegishli huquqiy normaga olib kelish va uning asosida davlat-hokimiyatchilik qarorini qabul qilish bo'yicha ichki ishlar organlari mansabdor shaxslarining xatti-harakatlaridan iboratdir.

Huquqni qo‘llash jarayonida ichki ishlar organlari:

birinchidan, huquq va majburiyatlarning mavjudligini va ularning chegarasini aniqlaydi;

ikkinchidan, subyektiv huquq va majburiyatlarning harakati vaqtini yoki ularning to‘xtatilishi holatini belgilaydi;

uchinchidan, huquq va majburiyatlarga egalik to‘g‘ri bo‘lishi uchun nazoratni amalga oshiradi.

Huquqni qo‘llash fuqaroning muayyan ijtimoiy boylikdan foydalanishga bo‘lgan da‘vosini qondirishga vakolatli davlat organlarining mansabdor shaxslari bilan huquqiy munosabatga kirishishini nazarda tutadi.

Huquqni qo‘llash shoshilinch bir yo‘la amalga oshiriladigan harakat bo‘lishi shart emas. Aksariyat hollarda, bu biror jarayon (jinoyat ishini qo‘zg‘atish, dastlabki tergov, ma‘muriy yurisdiksiya ishlarini ko‘rib chiqish) ishtirokchilarining izchillik bilan rivojlanib boruvchi harakatlarining butun bir majmui bo‘lishi mumkin.

O‘z mazmuniga ko‘ra, huquqni qo‘llash faoliyati regulyativ va huquqni muhofaza qilish turlariga bo‘linadi.

Huquqni qo‘llashda regulyativ faoliyat shaklining zarurati fuqarolarning subyektiv huquqlari va yuridik majburiyatlarini o‘rnatuvchi huquqiy normalarni vakolatli organlar tomonidan tegishli ravishda huquqiy qarorlarni chiqarmasdan turib amalga oshirish imkoni bo‘lmagan hollarda vujudga keladi.

Mazkur ish shakli asosan ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy jihatlarini qamrab oladi. Mohiyatan u ichki va tashqi tashkiliy vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan turli xil boshqaruvchilik muammolarini hal etishda ta‘minlovchi hisoblanadi.

Ichki tashkiliy funksiyalarga quyidagilar kiradi:

birinchidan, ichki ishlar organlari butun tizimining yaxshi ishlashini ta‘minlab berish, ya‘ni xo‘jalik, ijtimoiy, madaniy, moddiy, moliyaviy va texnik ta‘minot, shuningdek xodimlarni zarur kiyim-kechak bilan ta‘minlash funksiyalarini amalga oshirish;

ikkinchidan, huquqni muhofaza qilish borasida chora-tadbirlar va reydlar o‘tkazishda kuchlar va vositalarni joy-joyiga qo‘yish.

Mazkur faoliyatda ichki ishlar organlari xodimlarining o‘zlari inson huquqlarining subyektlari hisoblanadi, ular Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan fuqaroning huquq va erkinliklari majmui bilan ta‘minlanishga ehtiyoj sezadilar.

Tashqi tashkiliy faoliyat quyidagilardan iborat:

birinchidan, shaxsning huquq va erkinliklarini ularni xavfsiz amalga oshirishning sharoitlarini (aholi ommaviy ravishda yig‘ilgan joylarda jamoat

tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash) yaratish yo'li bilan muhofaza qilish;

ikkinchidan, murakkab yoki favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga yordam ko'rsatish (baxtsiz hodisalar jabrdiydalariga aylangan shaxslarni to'plash va ular to'g'risida ma'lumotlar berish, bedarak yo'qolganlarni qidirish);

uchinchidan, fuqarolarning qator konstitutsiyaviy va faqat davlat hokimiyati hujjatlari orqali tasdiqlash sharti bilan ro'yobga chiqarish mumkin bo'lgan sohaga (yashash joyini tanlashga bo'lgan huquq, transport vositasiga egalik qilishga oid, shaxsiy mulkka bo'lgan huquq) oid huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash. Mazkur huquqiy imkoniyatlarni amalga oshirish uchun tegishli qarorlar chiqarish zarur (masalan, pasport-viza xizmati, yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmati tomonidan).

Muhofaza qilish choralari qo'llash uchun asos subyektiv huquqlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi yoki bu huquqlarni buzuvchi salbiy holatlarning mavjudligi, shuningdek yuridik majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish hollari hisoblanadi.

Fuqaro huquq va erkinliklarining kafolati tizimida huquqni qo'llash faoliyati turli manfaatlarga tajovuz qiluvchi jinoyatlarni bartaraf etish, ochish va tergov qilish kabi huquqni muhofaza qilish vazifalariga bo'ysundirilgan.

Salbiy vaziyatlarga barham berish va buzilgan huquqlarni tiklash uchun ichki ishlar organlariga huquqbuzarlarga nisbatan majburiy choralarni qo'llash orqali ta'sir qilishdek keng vakolatlar berilgan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan yuridik normalarni qo'llash fuqaroning o'z huquqlarini amalga oshirishi yoki himoya qilishi to'g'risidagi rasmiy murojaati asosida amalga oshiriladi. Biroq ko'pincha kundalik ish faoliyatida inson huquqlari buzilgan hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zi tashabbus ko'rsatadi.

Ikkala holatda ham bunday huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zi yuridik holat hisoblanadi. Natijada shaxs bilan davlat organlari nomidan harakat qiluvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida huquqiy munosabatlar vujudga kelmoqda. Bu huquqni muhofaza qiluvchi organlarga mazkur holatlarni o'rganib chiqish va qonunda o'rnatilgan tartibda hal etish majburiyatini vujudga keltirmoqda. Huquqbuzarlikda jinoiy jazoga tortishga asos bo'ladigan qilmishning belgilari mavjud bo'lgan hollarda, huquqni qo'llovchi hujjat (masalan, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror) himoyalanihga nisbatan subyektiv huquqni amalga oshirish protsedurasining birinchi bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Huquqni qo'llash – vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan yuridik ahamiyat kasb etgan va huquq normasida nazarda tutilgan

muayyan hayotiy holatlar bo'yicha tegishli qaror qabul qilishdir. Bunday qarorda amrning qat'iyligi, uning ijrosi majburiyligi va davlatning majburiy kuchi bilan hal qilish orqali ta'minlanishi ko'rsatib qo'yiladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan fuqarolarga, ularning huquqqa itoatkorligi bo'yicha irodasi va ongiga ta'sir ko'rsatishda ishontirish va majburlash usullari qo'llaniladi. Amaliyotda usullar ayrim hollarda bu o'zaro uyg'un holda ishlatilib, ularning har birida boshqasining elementi bo'ladi. Majburlash, qoidaga ko'ra ishontirishdan keyin qo'llaniladi, ya'ni birinchisini qo'llash orqali kerakli natijaga erishib bo'linmagan va zo'rlik ishlatmasdan ta'sir ko'rsatishning barcha imkoniyatlaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, majburlash qo'llaniladi. Majburlash chorasining o'ziga xosligi huquqni muhofaza qiluvchi organlarining jismoniy kuch, maxsus vosita va o'qotar qurolni qo'llash huquqi hisoblanadi. Majburlash asosan:

birinchidan, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bor;

ikkinchidan, ma'muriy noo'rin xatti-harakat yoki jinoyat sodir etgan;

uchinchidan, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Inson huquqlarini himoya qilishda ichki ishlar organlari faoliyatining o'ziga xos turlarini tasniflaymiz.

Ish bo'yicha isbotlashni ta'minlab berish. O'zbekiston Respublikasi JPKning 82-moddasiga muvofiq, jinoyat obyekti, jinoyat orqali yetkazilgan zararining xususiyati va miqdori, jabrlanuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar, sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek Jinoyat kodeksida ta'kidlangan jinoyat sodir etilishining boshqa holatlari, qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlar isbotlanishi kerak.

Huquqbuzarlikni bartaraf etish. Bartaraf etish jinoyat-protsessual qonunda nazarda tutilgan majburlov chorasi hisoblanib, unga ko'ra, tergov va suddan yashirinish, haqiqatni o'rnatishga to'sqinlik qilish, yangi jinoyat sodir etish imkoniyatlarini bartaraf etish, shuningdek sudning hukmini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Bartaraf etish choralari jinoiy jazo chorasi hisoblanib, ular jarayonning ayblanuvchi va gumon qilinuvchi kabi ishtirokchilarining huquqlarini vaqtinchalik, ammo yetarli darajada cheklaydi.

Huquqbuzarlikning oldini olish – shaxsning huquqqa zid maqsadlarini ijro etishdan voz kechishga undash maqsadida tashkiliy, texnikaviy, protsessual, tezkor, majburlov va ommaviy-targ'ibot qilish xususiyatiga ega chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida ichki ishlar organlarining faoliyati. Mazkur maqsadga ichki ishlar organlarining faol harakatlari natijasida erishish mumkin.

Yuridik javobgarlikni amalga oshirish – davlatning qonunlar buzilishiga nisbatan keskin va qattiq reaksiyasi. Qonun bilan muhofaza qilina-yotgan qadriyatga tajovuz qiluvchi shaxsga nisbatan jarima to‘lash va muayyan boyliklardan, shu jumladan, erkinlikdan mahrum qilishdek ta’sir chorasi qo‘llanilishi shaxsni aybdor deb e’tirof etishning oqibati va uni jazoga tortish hisoblanadi. Mahrum qilish yoki cheklash huquqbuzar shaxsga, shuningdek tegishli mulkka ham qaratiladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari tomonidan huquq normasini qo‘llash amaliyoti asosida muayyan harakatlar metodikasi ishlab chiqilgan, unga ko‘ra, butun jarayon bir necha bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich – ishning daliliy holati, ya’ni tadqiq qilinayotgan voqelikning mohiyati va yuridik ahamiyatini aniqlash.

Mazkur bosqichda ishning daliliy holati baholanadi. Birinchi navbatda, salbiy yuridik oqibatlar keltirib chiqarayotgan holatlar, undan keyin tergov qilinayotgan voqelikka taalluqli bo‘lmasa-da, ammo to‘g‘ri qaror ishlab chiqish uchun juda muhim bo‘lgan shart-sharoitlar (mintaqadagi kriminologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, huquqbuzar shaxsning xususiyatlari) aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich – normani tanlash, ya’ni ushbu holatni ko‘rib chiqishda asos bo‘ladigan muayyan normani aniqlab olish. Ushbu bosqichda voqelikni dastlabki kvalifikatsiya qilish, so‘ngra ish bo‘yicha qaror qabul qilish amalga oshiriladi. To‘g‘ri tanlov uchun ko‘pincha bir necha normani ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, qayd etish kerakki, qaror qabul qiluvchi shaxsning baho berish mezoni bo‘lib, uning ishonchi hisoblanadi.

Uchinchi bosqich – tegishli hujjatda o‘z aksini topadigan qarorni chiqarish. Uning o‘ziga xos jihati shundaki, u muayyan voqelikning mavjudligi va uning muayyan shaxs uchun yuridik oqibatini aniqlaydi, balki chiqarilgan qarorning ijro etish tartibini ham belgilab beradi. Bunday hujjatlar huquqni qo‘llovchi subyektlar tomonidan hokimiyat vakolatlari bilan ta’minlanadigan yuridik kuchga egadir.

Qaror chiqarish isbot-dalillarni tadqiq qilish va huquq normasini tahlil qilish asosida individual hujjatni ishlab chiqishda ifodalanadi. Qaror huquqning muayyan subyektlariga huquq va majburiyatlarni belgilab beradigan, ya’ni huquqiy munosabatlar paydo bo‘lishi uchun asos bo‘ladigan va bir vaqtning o‘zida dalillar va yuridik asoslarni tahlil qilishning mantiqiy xulosasi hisoblanadigan hujjat hisoblanadi.

Adabiyotlarda ko‘pincha faqat yuridik normani qo‘llash akti muayyan shaxsga nisbatan huquq va erkinliklarni keltirib chiqaruvchi shart, degan fikr bildiriladi. Huquqni qo‘llash akti muayyan huquq egasiga, bu huquq-

ning e'tirof etilishi va uning amalga oshirilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, shaxsni jabrlanuvchi deb e'tirof etish, ayblanuvchini qamoqqa olish to'g'risidagi qaror insonlar va davlat organlari o'rtasida turli huquqiy munosabatlarning o'rnatilishi uchun asos hisoblanadi. Huquqni qo'llash amaliyoti, uning barcha bosqichlari inson huquqlariga rioya qilish talablariga mutanosib bo'lishi uchun xalqaro standartlarni yaxshi bilish kerak, shuningdek ular milliy qonunchilikda mustahkamlangan bo'lishi zarur.

Ichki ishlar organlari doimiy ravishda inson huquqlarining himoyasiga e'tibor qaratishi zarur. Bu ish tizimli xususiyat kasb etishi kerak. O'zbekiston Respublikasi IIV Hay'ati yig'ilishida qonuniylik va inson huquqlarini himoya qilish doimiy ravishda muhokama qilinadi va bu faoliyatni takomillashtirish bo'yicha choralar ko'riladi. IIVning Inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash boshqarmasi ichki ishlar organlari faoliyatida inson huquqlarini himoya qilish monitoringini amalga oshiradi. Xalqaro standartlarni bilish va ularni qo'llash ichki ishlar organlari xodimlari xizmatini baholash mezonini hisoblanadi, ularni shahodatdan o'tkazishda, lavozimiga ko'tarishda asos bo'lib xizmat qiladi.

7-Mavzu. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA YURIDIK TA'MINLASH FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

7.1. Ichki ishlar organlarining inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatining asosiy shakllari

Ichki ishlar organlarining vakolatlarini tartibga solish idoraviy normativ hujjatlar bilan amalga oshiriladi. Ular vakolatlarining o'ziga xos xususiyatlarini baholashda inson huquqlari va erkinliklariga kafolatli ta'sir ko'rsatish shakllarini aniqlab olish ayniqsa muhimdir. Bular quyidagi asosiy shakllardan iborat:

Ichki ishlar vazirligi normativ hujjatlarining aksariyati ma'lum bir xizmat va bo'linmalarning jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga, shu jumladan bevosita shaxs huquqlari va erkinliklariga xavf soluvchi huquqbuzarliklarga qarshi kurash sohasidagi ishlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Huquqiy normalarni qo'llash ichki ishlar organlarining inson huquqlarini kafolatlash sohasidagi faoliyatining muhim yuridik shakli hisoblanadi. Ko'rsatib o'tilgan organlarning har bir mustaqil tuzilmasi ma'lum qamrovli huquqni qo'llash vakolatiga ega. Har qanday davlat organlarining tartibga solish va muhofaza qilishga ajratilgan huquqni qo'llash faoliyatini tasvirovchi umumiy belgi va xususiyatlar ichki ishlar organlarining huquqiy normalarini qo'llash faoliyatiga ham xosdir.

Lekin shu bilan bir qatorda, ichki ishlar organlarining huquqiy normalarni qo'llashida o'ziga xos tafovutlar ham mavjud. Shu bois, inson huquq va erkinliklari kafolatlari tizimida ushbu organlar tomonidan huquqni qo'llash ko'proq huquqni muhofaza qilish vazifalariga, ya'ni jinoyatlarining oldini olish, ochish va tergov qilish, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritishga bo'ysundirilgan. Bu o'z navbatida, insonni himoya qilish uchun turli majburlov, ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash zarurati bilan bog'liq. Bunga ichki ishlar organlari xodimlari jamoat joyida fuqaro sha'ni, qadr-qimmatini kamsitganlik yoki haqorat qilganlik uchun shaxsga jarima solishi mumkinligi misol bo'la oladi.

Shuningdek, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, rejalashtirish, moddiy vositalarni tasarruf etish, rag'batlantirish kabi turli boshqaruv masalalarini hal etishda ham shaxsning ayrim huquqlarini amalga oshirishda ichki ishlar organlari tomonidan tartibga solish yo'sinidagi huquqni qo'llash shaklidan foydalaniladi.

Yuridik adabiyotlarda ichki ishlar organlarining bevosita huquqbuzarliklar bilan aloqador bo'lmagan masalalarni hal etish uchun fuqarolar bilan ma'muriy-huquqiy munosabatlarga kirishgan paytdagi ma'muriy vakolatlarining bajarilishi ko'rib chiqilayotganda shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishga ko'p e'tibor qaratiladi. Bu pasport berish, xorijga chiqishga ruxsat berish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, fuqarolik to'g'risidagi qonunchilikning ayrim qoidalarini ijro etish va boshqa sohalaridagi faoliyat bo'lishi mumkin.

Tartibga soluvchi huquqni qo'llash hujjatlarining maqsad va vazifalari subyektiv huquqlarni amalga oshirish mexanizmida faqat muhofaza qiluvchi emas, balki ta'minlovchi xususiyatga ham ega. Bunday hujjatlar o'z ichiga huquqiy holatlarni olishi zarurligini qonun taqozo etadi.

Ichki idoraviy va asosiy kasbiy faoliyat doirasidagi keng ko'lamli yuridik hujjatlarni qabul qilmasdan turib, ichki ishlar organlarining tashkiliy faoliyati xususida so'z yuritish mumkin emas.

Norma ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, bu muayyan tashkiliy-texnikaviy tayyorgarlik hamda pirovard natijaga muvofiq keluvchi hamkorlikni talab etadi. Tashkiliy faoliyatning o'zi ham, garchand huquqiy shakllarga solinmagan bo'lsa-da, unga nisbatan qo'yiladigan qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi, organlarning o'z huquqlaridan foydalanishni va yuklatilgan burchlarni bajarishni ifodalaydi. Lekin bu bilan birga huquqiy tadbirlar ichida tashkiliy tadbirlar o'z shakli bo'yicha ajralib turadi. Ularning ko'pchiligi butun ichki ishlar organlari tizimining bir maromda faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan joriy, uzluksiz va maqsadga muvofiq tadbirlar deb hisoblanadi. Boshqalari esa vaziyatga ta'sir ko'rsatish manbaiga qarab yaqqol aniq bo'ladi. Masalan, muayyan huquqni muhofaza qilish tadbiri, yo'l harakat xavfsizligi bo'yicha reytd, kriminogen joylarda pasport rejimini yalpi tekshiruvdan o'tkazish uchun tayyorgarlik va kuch hamda vositalarni joylashtirish va boshqalar. Ayrim tashkiliy tadbirlar ichki ishlar organlari tomonidan umumdavlat miqyosida ham o'tkaziladi. Chunonchi, respublika bo'yicha yong'in xavfsizligi yoki harakat xavfsizligi oyligi e'lon qilinishi tufayli umumdavlat tadbirlari o'tkazilishi mumkin.

Inson huquqlari sohasidagi tashkiliy faoliyat jamoat joylarida har kuni olib boriladigan huquq-tartibotni saqlashda huquq va erkinliklarning kafo-latlari sifatida namoyon bo'ladi. Chunonchi, ularni amalga oshirishning xavfsiz shart-sharoitlari yaratiladi va inson huquqlari buzilgan hollarda dastlabki zarur choralar qo'llaniladi. Bunday faoliyatning huquqni muhofaza qilish yo'nalishiga garovga olinganlarni ozod qilish bo'yicha operatsiyalar,

jinoyatchilarni ushlash, yong'in chiqqanda kishilar va mulkni qutqarish, o'g'irlangan mulkni qidirish yuzasidan tadbirlarni misol qilib keltirish mumkin.

Bir qator holatlarda tashkiliy tadbirlar ko'proq hamda alohida tarzda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratiladi. Bu murakkab va favqulodda vaziyatlarda qolgan fuqarolarga yordam ko'rsatishda ko'pincha namoyon bo'ladi. Masalan, jamoat tartibini saqlashda qatnashadigan jamoatchilik tuzilmalariga IIO ko'magi, topilgan qarovsiz bolalarni vaqtincha ijtimoiy jihatdan saqlab turish va hokazolar.

Ba'zi tashkiliy vazifalar esa o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, shaxslarning fuqarolikni olish yoki o'zgartirish huquqini amalga oshirish uchun ichki ishlar organlari tegishli iltimosnomalar va boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradilar. Ichki ishlar organlari faoliyatida inson huquqlarining tashkiliy kafolatlariga huquqlar va erkinliklarning amalga oshirilishiga daxldor bo'lgan xodimlarning zarur ish uslubi, malakasi, ish samaradorligini kiritish lozim bo'ladi.

Ichki ishlar organlarini shaxsning huquqiy maqomini kafolatlash mexanizmidagi o'rni, ularning faoliyat usullari, vazifalarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan ta'sir vositalari bilan belgilanadi. Boshqa davlat boshqaruv organlarida bo'lgan kabi, ichki ishlar organlarida ishontirish va majburlash asosiy usullar sanaladi. Ularning umumiy ijtimoiy maqsadi – davlat ichki ishlar boshqaruvi sohasida muayyan fuqarolar va boshqa shaxslarning qonunda belgilangan xulq-atvoriga faol hamda samarali ta'sir qilishdan iborat.

Ishontirish – ichki ishlar organlarining faoliyat usuli sifatida kishilarda ongli huquqiy xulq-atvorda bo'lish hissini uyg'otish, huquqqa qarshi harakatlardan o'zini tiyish, normativ hujjatlarga, ayniqsa, jinoyat-huquqiy, ma'muriy-huquqiy sohalardagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlarga qat'iy amal qilishga da'vat etish maqsadida ularning irodasi va ongiga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Bunday ta'sir ko'rsatish ma'naviy, huquqiy tarbiyada, tashkiliy-ommaviy tadbirlar o'tkazishdagi rag'batlantirish hamda boshqalarda ifodalanishi mumkin. Ushbu usulning birinchi galdagi vazifasi – kishilarning umumiy huquqiy madaniyati darajasini oshirish va shunga muvofiq tarkibiy qism sifatida zarur huquqiy bilimlar berish, to'g'ri xulq qoidalarini shakllantirish, u yoki bu subyektiv huquqlarni tegishli ravishda amalga oshirish amaliy ko'nikmasini hosil qilishdir.

Huquqni muhofaza qilish idoralari, shu jumlada ichki ishlar organlari xodimlarining amaliy faoliyati aholiga qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, huquqbuzarlikka qarshi kurash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid huquqiy siyosatni tushuntirishdan iborat bo'lmog'i darkor.

Ichki ishlar organlarining aholini qonunga itoatlik ruhida tarbiyala-
lashga oid faoliyatida quyidagi asosiy yoʻnalishlarni belgilash mumkin:

birinchidan, amalga oshirishning mazmun va shakliga koʻra, aholi oʻrtasida olib borilayotgan tadbirlardan farq qilmaydigan umumiy, huquqiy tarbiyaviy ish olib borish;

ikkinchidan, muayyan fuqarolarga moʻljallangan ijtimoiy huquqbuzar-
likning oldini olish doirasidagi gʻoyaviy-tarbiyaviy tarzda taʻsir koʻrsatish;

uchinchidan, huquq normalarini qoʻllash jarayonida bevosita tarbiya-
viy choralarni amalga oshirish;

toʻrtinchidan, ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan ozodlikdan mahrum etilganlar bilan huquqiy tarbiya ishlarini olib borish boʻyicha belgilangan chora-tadbirlarni belgilash.

Qonunga itoat qilishning foydasi va samaradorligi deganda, baʼzi normativ hujjatlarning qoidalari, oʻzini himoya qilish tamoyillari, huquq-
buzarlik oqibatida kelib chiquvchi javobgarlikning xususiyatlari tushuni-
ladi. Bunga davlat avtomobil nazoratining piyodalarga va haydovchilarga oʻz huquq va burchlarini bilib olishga qaratilgan targʻibot tadbirlarini, noidoraviy qoʻriqlash boʻlinmalarining mulk huquqlarini himoya qilish uchun fuqarolar bunday boʻlinmalar imkoniyatlaridan kengroq foydalanishlariga qaratilgan tushuntirish ishlari, yongʻinga qarshi davlat xizmati-
ning yongʻin xavfsizligi boʻyicha targʻibot ishlari misol boʻla oladi.

Bevosita shaxs va uning huquqlariga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olishda baʼzan qonunni buzishga tayyorgarlik koʻrayotgan shaxslar bilan muloqotga kirishish muhim rol oʻynaydi. Bugungi kunda bunday ishga alohida eʼtibor berilmoqda, negaki, barcha jinoiy koʻrinishlarni faqat kuch ishlatish yoʻllari bilan yoʻqotish mumkin emasligi ayon boʻlib qoldi.

Mafkuraviy va psixologik taʻsir koʻrsatish ichki ishlar organlari tajri-
basida ham umumijtimoiy tarzda (aholi va alohida mintaqalar), ijtimoiy-
guruhli (ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod etilgan tarbiyasi qiyin boʻlgan oʻsmirlar), ham yakka tartibda (muayyan shaxslar) qoʻllaniladi.

Amaliyotda ogʻir jinoyatlarni sodir etgan shaxslar bilan muloqot olib borish masalasi alohida oʻrin tutadi. Ularga nisbatan anʼanaviy kuch ish-
latish usullari bilan qarshi kurashish aybsiz odamlarning halokatiga va jarohatlar olishiga, katta vayronagarchiliklarga, madaniy meros hisoblangan boyliklarni yoʻqotishga sabab boʻlishi ehtimoldan xoli emas. Kishilarni garovga olish, oʻgʻirlash, terrorchilik, noyob sanʼat, madaniyat va qadimiy yodgorliklarga tajovuz qilish hamda qurollangan jinoyatchilarni ushlab chogʻida bunday vaziyatlar roʻy berib turadi .

Masalan, kishilarni garovga olish paytida eng avvalo odamning oʻzi, uning yashash huquqi, sogʻligʻi, erkinligi, mulki toʻgʻridan-toʻgʻri xavf

ostida qoladi. Ularga real tahdid solish egallab olgan tomonning g'ayri-qonuniy talablarini bajarishning o'ziga xos kafolati bo'lib qoladi, shu bois muzokaralar olib borish, ishontirish inson uchun muhim zarur ne'matlarga tajovuz qilishning oldini olish va bartaraf etishda birinchi vosita bo'lib hisoblanadi. Keyingi yillarda tez-tez sodir bo'layotgan, tinch aholiga nisbatan o'ta shafqatsizligi bilan ajralib turgan terrorchilikka qarshi kurashda ham ishontirish usulini qo'llash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi .

Insonga kuch ishlatmay ta'sir ko'rsatish choralari tizimida oshkoralik, ichki ishlar organi va boshqa xizmatlar xodimlarining aholi bilan ochiq muloqot olib borishlari muhim o'rin tutadi. Mamlakatdagi huquq-tartibotning ahvoli, ichki ishlar organlarining ishlari, tuzilmasi, imkoniyat va muammolari haqida aholining to'liq xabardor bo'lishi huquqni muhofaza qilish ishida ijobiy natijalar beradi. Ichki ishlar organlari rahbarlarining ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvlari, matbuot, radio va televideniya chiqishlari tobora kengayib bormoqda.

Ichki ishlar organlarining inson va fuqaro huquqlarini kafolatlashdagi jinoyat-protsessual faoliyati uchta asosiy yo'nalishdan iborat.

Birinchi, dastlabki tergov majburiy bo'lgan ishlarni yuritish. Bular fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, mulki, siyosiy va boshqa huquqlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar bo'yicha ishlardir. Bu yo'nalishda ichki ishlar organlari jinoyat to'g'risidagi dastlabki ma'lumot (ariza yoki xabar) olingandan so'ng jinoyat ishi qo'zg'atadi va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari normalariga tayangan holda jinoyat izlarini aniqlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan harakatlarni (voqea joyni ko'zdan kechirish, tintuv, olib qo'yish, gumon qilinuvchi ushlab va so'roq qilish, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish) amalga oshiradi. Surishtiruv boshlangani haqida bir sutka ichida prokuror xabardor qilinadi. Shoshilinch tergov harakatlari o'tkazilganidan keyin ichki ishlar organlari jinoyat ishini u qo'zg'atilgan kundan boshlab 10 sutkadan kechiktirmasdan tergov organlariga yuboradi.

Zarur bo'lganda bu ishlar bilan yonma-yon jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash uchun tezkor-qidiruv tadbirlari amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual qonunga ko'ra dastlabki tergov o'tkazish majburiy bo'lmagan ishlar bo'yicha IIO olib boradigan faoliyat alohida ajralib turadi. Bunday holatda militsiya tergovni to'la hajmda, jinoyat ishi qo'zg'atishdan boshlab talab etiladigan barcha tergov harakatlarigacha amalga oshiradi hamda ayblov xulosasi tuzadi . Masalan, shaxsga tajovuz qilish alomati bo'lgan bezorilik bo'yicha ko'plab ishlar ana shu yo'sinda o'rganiladi va shu tariqa shaxsning bezorilik oqibatida buzilgan huquqlari himoya qilinishi ta'minlanadi.

Sud, prokuror, tergovchining qonunda belgilangan tergov va qidiruv harakatlarini bajarish to'g'risidagi ajrim, qaror, topshiriq va ko'rsatmalarini ijro etish ichki ishlar organi ishining alohida yo'nalishi hisoblanadi. Bunga aytib o'tilgan subyektlarga ayrim protsessual harakatlarni olib borishda yordam berish ham kiradi.

Ichki ishlar organlarining sudyalari, sud maslahatchilari, prokurorlar, tergovchilar, ichki ishlar organi xodimlari, sud ijrochilari va nazorat idoralari mansabdor shaxslarni o'z xizmat faoliyatini bajarish paytida, shuningdek, ish bo'yicha jabrlanuvchilar va guvohlarni ular hayotiga, salomatligi, sha'ni, qadr-qimmatiga, mulkiga tajovuz xavfi mavjud bo'lganda, ularni va yaqinlarini davlat tomonidan himoya qilishni ta'minlash kabi vazifasi o'z xususiyatiga ko'ra alohida ahamiyat kasb etadi. Jinoyatlarni ochish, tergov qilish va sudda ko'rib chiqishda bevosita qatnashib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashuvchi shaxslar xavfsizligini ta'minlash vazifalari ham shunday maqsadni ko'zlaydi. Bu yerda gap jabrlanuvchi, guvoh, ekspert va boshqalarni muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy-texnik hamda boshqa tadbirlarning ichki ishlar organi tomonidan amalga oshirilishi haqida bormoqda. Bunday choralar o'zaro bog'liq bo'lib ular alohida holda ham ma'muriy, ham tezkor-qidiruv, ham jinoyat-protsessual yo'sinda bo'lishi mumkin.

Ichki ishlar organlari faoliyatining barcha yo'nalish va shakllari u yoki bu darajada jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarning, shu jumladan shaxsga qarshi qaratilgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish bilan bog'liq. Shu bilan birga, mazkur organlarning profilaktik ishlariga aynan ogohlantirish yo'nalishida, o'ziga xos jihatlarga ega mustaqil shakl sifatida ham qarash mumkin. Mazkur ish mundarijasiga odatda muayyan huquqbuzarliklarni sodir etishga ko'maklashuvchi sabab va sharoitlarni aniqlash hamda tahlil qilish, kriminogen omillarni bartaraf etishga yo'naltirilgan har tomonlama tadbirlarni vakolat doirasida ishlab chiqish va amalga oshirish kabi chora-tadbirlar kiradi.

O'z xulq-atvori, turmush tarzi, jismoniy va ruhiy holati oqibatida jinoyatchilar guruhiga kirib qolgan shaxs huquqlarini ta'minlash va himoya qilish ham e'tiborga molik. Bunday xulq-atvorli shaxslar toifasiga giyohvandlar, daydilar, voyaga yetmaganlar, nogironlar kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ichki ishlar organlarining shaxs huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish mexanizmida o'zining muhim o'rnini bor.

Ijro hokimiyatining alohida davlat organlari tizimi bo'lgan ichki ishlar organlari fuqarolar hayoti, sog'lig'i, huquq va erkinliklarini, mulkni,

jamiyat va davlat manfaatlarini jinoyatlar va boshqa tajovuzlardan himoya qilishga da'vat etilgan. Shu bois majburlov choralarini qo'llash huquqi bilan kafolatlangan. U o'z faoliyatida qonuniylik, insonparvarlik, inson huquqlarini hurmat qilish, oshkoralik tamoyillariga asoslanadi.

Chunki demokratik qonunlar talablariga qat'iy amal qilish, barqaror huquq-tartibot va uning himoyasi ta'minlanganligi jamiyatda shaxs erkinligi ro'yobga chiqishining eng muhim shartlari, shaxs huquqlari hamda erkinliklari butun tizimi to'la amalga oshirishning kafolati hisoblanadi.

Demak, inson va fuqaro huquqlarini ichki ishlar organlari tomonidan kafolatlash amalda uning o'z faoliyatida muhim vazifalarni bajarishi jarayonida ta'minlab beriladi. Bunda subyektiv huquqlarni kafolatlash militsiya oldida turgan ko'p vazifalar orasida yo'q bo'lib ketmaydi, balki aksincha ularni takomillashtiradi. Pirovardida boshqa maqsad va vazifalar asosiy vazifa – butun jamiyat va davlat manfaatlari bilan uyg'un holda inson va fuqaro huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga ma'muriy faoliyat – ichki ishlar organlarining keng qamrovli ish faoliyati hisoblanadi. Uning mazmunini ichki ishlar organlari bo'linmalari, xizmatlari va xodimlarining ma'muriy-huquqiy shakllardagi vazifalarini o'ziga xos usul va vositalar bilan amalga oshirishlari tashkil etadi. Bunday faoliyat ma'lum darajada ma'muriy qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi, ichki ishlar organlarining turli subyektlar, shu jumladan fuqarolar bilan ularning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun ma'muriy-huquqiy munosabatlariga olib keladi.

Shunday ekan, ichki ishlar organlarining inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash borasidagi faoliyatining asosiy shakllari, uslublari va turlarini alohida tadqiqot sifatida ko'rib chiqish, ichki ishlar organlarining vazifalarini aniq belgilab olishga, ular faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishda va kelgusida qonuniy asosda yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

7.2. Ichki ishlar organlarining inson huquqlarini himoya qilish mexanizmning huquqiy asoslari

Ichki ishlar organlarining inson huquqlarini himoya qilishda ular o'z oldida turgan har qanday vazifani Konstitutsiyada oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan inson huquqlarini, Konstitutsiya bilan kafolatlab quyilgan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyil va normalari talablarini hisobga olgan holda hal etishlari lozim.

Huquqni qo'llash uning normalarini amalga oshirishning o'ziga xos shaklidir. Huquqni qo'llashning muhim jihati shundaki, u vakolatli subyektlarning to'liq aniqlangan ishlar, alohida hayotiy vaziyatlar yuzasidan qaror

chiqarish yo‘li bilan ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish va boshqarishga yo‘naltirilgan yuridik ahamiyatli faoliyatini anglatadi.

Huquqni qo‘llashning eng muhim farqli belgisi – bu ma‘muriylikdir. Aynan shu belgi, uning subyektlari doirasini qat‘iy cheklashga imkon beradi. Umumiy qoidaga ko‘ra, davlat organlari va mansabdor shaxslar o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida uning subyektlari bo‘la oladilar. Ular qo‘llaydigan huquqiy normalar o‘zining ijtimoiy-siyosiy xususiyatiga ko‘ra boshqaruv faoliyatini ifoda etadi. Biroq, bu qonunchilik normalarida belgilangan huquq va talablarni tegishlicha hayotga tatbiq etishni ta‘minlashga qaratilgan ixtisoslashtirilgan boshqaruv faoliyatidir.

Yuridik normalar davlat hokimiyatini ifodalovchi subyekt qarorisiz muayyan huquqiy munosabat vujudga kela olmaydigan joyda yoxud vujudga kelgan huquqiy munosabat qonun bo‘yicha davlat tomonidan nazoratdan o‘tkazilishi lozim bo‘lganda qo‘llanadi. Demokratiyaga asoslangan jamiyatda huquqni qo‘llash faoliyati ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish jarayonida, shu jumladan inson va fuqaroning bir qancha huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda maxsus davlat hokimiyatidan obyektiv va ongli ravishda foydalanish ehtiyojlariga asoslanadi.

Davlat organi sifati ichki ishlar idoralarining xodimlari mansabdor shaxslar tomonidan qonunni qo‘llashni taqozo etuvchi holatlar amalda ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi.

*Birinchi*dan, vakolatli subyektlarning muayyan qarorlarisiz yuridik normalarni o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqishi mumkin bo‘lmagan yoki yuridik normalarni ro‘yobga chiqarish jarayoni ana shunday tuzatishlarni obyektiv ravishda taqozo etgan hollarda huquqni qo‘llash zarur bo‘ladi. Bunday holatlarda vakolatli organlarning faoliyati huquqni ta‘minlash shaklida bo‘ladi va yuridik normalarni qo‘llashda o‘z ifodasini topadi. Huquqni qo‘llashning bu ko‘rinishini ko‘pincha tezkor ijroiya deb ataladi. Odatda uning yuridik oqibatlari vaqtga nisbatan davomiy bo‘lib, norma qo‘llangan shaxsning keyingi ijobiy faoliyati uchun huquqiy asos va ko‘pincha omil bo‘lib xizmat qiladi. Ba‘zan esa huquqni qo‘llashning bunday shakli shaxs uchun muddatsiz qulay sharoitlarni (u yoki bu unvon berish, ilmiy kashfiyotning tasdiqlanishi va b.) yaratib beradi. Inson huquqlarga muvofiq ravishda ularning barchasini amalga oshirish uchun rasman zarur sharoitlarni, huquqiy tartibotni vujudga keltiradi, shaxsning huquqlar vositasida ne‘matlardan bahramand bo‘lish imkoniyati bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va natijada ularni amalda qo‘lga kiritishni ta‘minlaydi.

*Ikkinchi*dan, huquqni qo‘llash muhofaza ma‘nosidagi holatlar oqibati o‘laroq vujudga keladi (yurisdiksiyali huquqni qo‘llash) va «salbiy vaziyat-

lar»da: huquq buzilganda, yuridik majburiyatlar bajarilmaganda va boshqa holatlarda kelib chiqadi. Shunga muvofiq davlat organi, mansabdor shaxs o'z vakolatlari doirasida bunday holatlarni bartaraf etish va qonuniy holatni tiklash uchun ma'muriy hujjatlar chiqaradi va, basharti zarur bo'lsa, hujjatlar chiqarish yo'li bilan yuridik javobgarlik mexanizmini amalga oshiradi yoki maxsus oldini olish choralarini ko'radi (ishga tiklash, moddiy zararni undirish to'g'risidagi sud qarori, hukm chiqarish, vakolatli subyektning noqonuniy ma'muriy hujjatni bekor qilishi, ma'muriy choraga tortish, ehtiyot choralarini qo'llash va boshq.). Bunda huquqni qo'llash yaqqol ko'rinib turadigan muhofaza qilish vazifasini o'taydi, ya'ni normalarning salohiyati «ishga tushadi» va ularning qo'llanilishi bilan huquq-tartibot tiklanadi, aybdorlar jazoga tortiladi, salbiy ko'rinishlarning oldi olinadi hamda yurisdiksiyali protseduraga amal qilish kafolatlanadi. Bunday normalarni o'zaro birlikda va boshqa normalar bilan uyg'unlikda qo'llash davlat organlari, ko'pincha shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, belgilangan organlarning huquqni qo'llash to'g'risidagi zarur hujjatlarisiz inson huquqlarining aksariyatidan foydalanmaydi. Ushbu huquqlarni amalga oshirish tartibiga rioya etish majburiylik ko'rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan.

Bunday holatlarda huquqni muhofaza qilish bilan taqqoslanganida (ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatida) huquqni qo'llash vazifalari va ahamiyatiga kam e'tibor beriladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan huquqni qo'llashning asosiy maqsadi – shaxs huquqiy maqomiga tegishli muhofaza vazifalarini hal qilish emas, balki ayrim ijtimoiy munosabatlarning zarur darajada ishlab turishiga bo'lgan amaliy ehtiyojlarni qondirishdan, fuqaroga u yoki bu huquq negizidagi mavjud ne'matlarga erishish imkonini yaratib berishdan iborat. Bayon etilgan mulohazalardan bir qancha savollar kelib chiqadi.

O'z huquqini amalga oshiruvchi shaxsning davlat organlari va mansabdor shaxslar bilan tegishli huquqiy munosabatlarga kirishishi (shu jumladan, huquq va erkinliklarni himoya qilish borasida), basharti o'sha munosabatlar mazmuniga ko'ra demokratiya, shaxs erkinligi, huquqiy davlatchilik tamoyillariga zid bo'lmasa, qonuniy va mantiqiy ma'no kasb etadi. Fanda aytilgan quyidagi fikr shunisi bilan diqqatga sazovorki, huquqni qo'llash faoliyati nafaqat inson huquqlari va erkinliklaridan foydalanishni ta'minlashda o'z aksini topadi, balki ayni paytda u inson huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun qulay muhitni kafolatlaydigan shart-sharoitlarning o'zida rivojlantirish va muhofaza qilish, mustahkamlashga qaratilgandir .

Ixtiyoriy va huquqiy nazoratsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan subyektiv huquq normalarining qo'llanishi ayniqsa muhim. Bular birinchi navbatda, shunday huquqlarki, ularning negizini moddiy-mulkiy ne'matlar tashkil etadi va ulardan foydalanish, odatda, ehtiyoj jamg'armalarini huquq subyektlari o'rtasida bir paytning o'zida taqsimlab olishni anglatadi (buning uchun mukofotlanish va mehnat huquqi, ijtimoiy ta'minot, turarjoy, yerni xususiy qilib olish huquqi va boshqalar).

Inson uchun garchi moddiy bo'lmas-da, lekin jamiyat uchun ham muhim ijtimoiy ne'mat va shaxsiy qadriyatlarga bog'liq huquqlar ham davlatning e'tiboridan chetda qolmaydi. Ulardan aksariyatiga intilish, ulardan bevosita foydalanish insonning mutlaqo muhim manfaat va ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'ladi va bu pirovardida uning o'zining va yaqinlarining hayot faoliyatiga ulkan ta'sir ko'rsatishga qodir (oliy ma'lumot olish, nikohdan o'tish, intellektual mulk, tibbiy, ayniqsa, statsionar yordam olishga bo'lgan huquq va boshqalar).

Vakolatli subyektlarning ma'muriy-boshqaruv faoliyati nafaqat alohida shaxsning, balki ko'plab boshqa kishilarning va hatto bevosita butun jamiyatning manfaatlariga aloqador huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Demak, huquqni qo'llash hujjatini qabul qilish va uning talablarini ijro etish bir qancha siyosiy huquqlarni amalga oshirishning istisnosiz sharti hisoblanadi. Huquq-tartibotni, shaxsiy va ijtimoiy xavfsizlikni saqlashning obyektiv iqtisodiy va siyosiy omillari, vazifalari mamlakatdan chiqib ketish va uning ichkarisiga kirish, alohida moddiy boyliklarni olib chiqib ketish, tadbirkorlik tuzilmalarini yaratish, qurol sotib olish, transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lish va boshqalarga qo'yiladigan talablarga bog'liq.

Albatta, hatto obyektiv huquqni qo'llash harakatlari subyektiv huquqlarni ro'yobga chiqarish jarayonida uning ko'lamini kengaytiradi, qo'shimcha subyektlar – jarayon ishtirokchilari paydo bo'ladi, ruhiy jihatdagi muammolar kelib chiqadi. Bir tomondan, huquqshunos-olimlar ta'kidlaganidek, huquqni qo'llash bilan boshlang'ich huquqiy normani yanada ishonarli, to'g'ri ro'yobga chiqarish ta'minlanadi, boshqa tomondan norma qoidalarini amalga oshirishda turli g'oyalar, buzilishlar paydo bo'ladi.

Shunga muvofiq inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish tartibini soddalashtirish, ehtimol tutilgan ma'muriy to'siqlarni inkor etib, fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirishga to'siq emas, balki turtki-omil bo'ladigan ularni ro'yobga chiqarish tartib-qoidalarini o'rnatish imkoniyatlari borasidagi davlat vazifalari belgilab olinadi. Bu mulohazalar ko'p jihatdan qonuniy huquqni qo'llash tartib-

qoidalariga ham taalluqli. Agar ular huquqni qo'llash subyektlari, bir-birini takrorlovchi hujjatlar va boshqalar bilan haddan ziyod to'ldirib yuborilgan bo'lsa, kishi hech qanday xohishsiz o'z huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda davlatning rasman ishtirok etishini so'rashga majbur bo'ladi. Konstitutsiyaga va amaldagi qonunlarga muvofiq fuqarolar o'z huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun o'zining siyosiy tashkilotlariga yoki odil sudlovga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Shaxsning muayyan huquqlari va erkinliklarini qonuniy ro'yobga chiqarishda yuridik normalarni qo'llash hujjatlari rasmiy-huquqiy jihatdan o'ziga xos rol o'ynaydi. Ular yuridik faktlar, yuridik tarkiblarning turkumi sifatida namoyon bo'ladi. Qonunga ko'ra buzilgan huquqlarni tiklash, yetkazilgan zararni undirish, aybdorlarni jazolash singari subyektiv huquqlarni hayotga joriy etish ana shu yuridik faktlarning yuzaga chiqishi va mavjudligiga bog'liq. Shunday qilib, hujjat shartli ravishda aytganda, shaxsga qonuniy berilgan imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va zarur huquqiy himoyani amalga oshirish «tashabbuskorlari» o'ziga xos huquqiy kafolatlari bo'lib xizmat qiladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, barcha huquqlar va erkinliklarni subyektiv deb e'tirof etish haqidagi fikr va qarashlar ba'zi olimlar o'rtasida ham qo'llab-quvvatlanmoqda.

Demak, ayrim ijtimoiy munosabatlarni huquqni qo'llash yo'li bilan tartibga solish, muayyan ishlar va holatlarning mansabdor shaxs tomonidan hal etilishi natijasida shaxsga yuridik mustahkamlangan muayyan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlari berilishi (qabul qilinganlik to'g'risidagi buyruqdan so'ng oliy o'quv yurtida o'qish, ro'yxatdan o'tgach, mehmonxonada yashash va b.), uning yangi holati tasdiqlanishi (fuqarolikka ega bo'lish, kasb bo'yicha malaka oshirish, nogironlik guruhi tayinlash va h.k.), boshqa subyektlarning majburiyatlari belgilanishi (qarmog'idagi kishiga qarash, munitsipal vositalar hisobidan kvartirani ta'minlash, zararni undirish va h.k.) mumkin. Lekin bunda shaxs yangi «inson va fuqaro huquqlari»ga ega bo'lib qolmaydi, balki uning maxsus, qo'shimcha qonuniy huquqlari, da'vo-talablari yuzaga keladi. Ularning ayrimlari ko'proq tarqalgan va umumiy mushtarak xususiyatlarga ega bo'lib, maxsus huquqlar sifatida namoyon bo'ladi: transport vositasini boshqarish, o'qotar qurolni olib yurish, ovchilik bilan shug'ullanish va boshqalar. Lekin ko'pincha yuqorida aytilgan qonuniy huquqlar shaxs foydalanadigan boshlang'ich huquq va erkinlikni, uning mazmuni, asoslari, foydalanish tartibi hamda chegarasi va bundan keyingi huquqdan foydalanish bilan bog'liq boshqa yuridik normalarni individuallashtirish nuqtai nazaridan aniqlashtiradi.

Subyektiv huquqlarni ro'yobga chiqarish jarayonida huquqiy norma-
larni qo'llash fuqaro yoki davlat organi (mansabdor shaxs)ning tashabbusi
bilan amalga oshiriladi. Tashabbuskor huquq subyekt – shaxs bo'lganda u
va organ o'rtasidagi huquqiy munosabat o'sha shaxs huquqini ro'yobga
chiqarish, zarur bo'lganda esa himoya qilish masalasi yuzasidan rasman
murojaat qilgandan so'ng (ishga qabul qilish to'g'risida ariza berish, pensiya
tayinlash, mehnat ta'tili, yetkazilgan zararni undirish to'g'risida ariza va
boshqalar) vujudga keladi. Bunday shakldagi arizalarning ijtimoiy-huquqiy
mazmuni turli bo'lsa-da, lekin ularning barchasi vakolatli subyekt muayyan
masalani amalda ko'rib chiqishi uchun asos yuridik faktlar hisoblanadi.
Bunda «murojaat» tushunchasi keng ma'noga ega. Bu tushuncha davlat
organining shaxsni qiziqtiruvchi masalani hal etish majburiyatini keltirib
chiqaruvchi shaxsga tegishli deyarli barcha ahamiyatli harakatlarni qamrab
oladi.

Hokimiyat vakolatlariga ega shaxs qonunda belgilangan tartibda va
muddatda kishining da'vo-talablariga munosabat bildirishi kerak. Ma'lum-
ki, kishining murojaati dastavval chiqariladigan qaror qanday mazmunda
bo'lishini oldindan belgilab berolmaydi. Lekin huquqni qo'llash subyekt
protsessual nuqtai nazardan shaxsning xohish-irodasiga bog'liq bo'lib, bu
unga murojaat predmetiga oid mavjud vakolatini ro'yobga chiqarish va bu
masalani asosli, qonuniy va adolatli hal etish yoki da'vogarga o'zining
salbiy xulosalarini qonuniy asoslagan holda chiqarib berish majburiyatini
yuklaydi. Bu esa, o'z navbatida, fuqaroga belgilangan tartibda o'zini qoniq-
tirmagan qaror ustidan shikoyat qilishiga imkon beradi. Albatta, bu fikrlar
fuqaroning ichki ishlar organlari bilan tegishli o'zaro munosabatlariga ham
bab-baravar tegishli.

Ayrim vaziyatlarda huquqdan foydalanuvchi shaxs va davlat organi
o'rtasidagi huquqiy munosabatlar vujudga kelishi, o'zgarishi yoki barham
topishi davlat organi yoki mansabdor shaxs tashabbusi bilan ro'y beradi.
Bunda chiqariladigan huquqni qo'llash hujjati subyektiv huquqni ro'yobga
chiqarish yoxud unga biror bir tajovuz bo'lganda, boshqa salbiy omillar
ta'sir ko'rsatganda uni himoya qilish tartibining uzviy yuridik «bosqichi»
vazifasini o'taydi. Masalan, saylov huquqidan foydalanishda fuqaroni
saylovchilar ro'yxatiga kiritish lozim. Bu ish qonunda belgilangan tartibda
amalga oshiriladi va odatda, fuqaroning alohida xohish-irodasini talab
qilmaydi. Xodimni xizmatiga yarasha rag'batlantirish, navbatdagi harbiy
unvon darajasi berish masalalari ham shu tartibda hal etiladi. Ko'pincha
inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklariga doir muhofaza choralari
ham vakolatli subyektlar, jumladan ichki ishlar organlari tashabbusi bilan

qabul qilinadi. Chunonchi, shaxs va uning huquqlariga qarshi jinoyat sodir etilganligi alomatlari aniqlansa, ushbu organlar bu haqda ariza bo'lmasa ham jinoyat ishi qo'zg'atishi mumkin.

Muayyan vakolatli shaxs tomonidan huquq normalarini qo'llash ma'lum bosqichlardan o'tgandan keyin tegishli hujjat chiqarish bilan nihoyasiga yetadi. Bu hujjat qabul qilingan qarorni ifodalaydi va qayd etadi hamda pirovardida ish taqdirini hal qiladi. Huquqni qo'llash hujjati ko'pincha inson hamda fuqaroning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish, shuningdek, himoya qilish jarayonida turli yoki butun bir huquqiy munosabatlar turkumi yuzaga chiqishiga bevosita asos bo'lib xizmat qiladi.

Ba'zan, hujjat huquqiy munosabatlar keltirib chiqarmasdan, ularning mavjudligini qayd etishi mumkin. Lekin bunday hujjatlar ham muayyan subyektiv huquqlarni ro'yobga chiqarish bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Albatta, muhimi shuki, shaxs va uning huquqiy holatiga oid ish bo'yicha chiqarilgan har qanday huquqni qo'llash xulosasi umumiy yuridik normalar ostida chiqarilgan rasmiy holatlardangina iborat emas. Huquqni qo'llash qarorlari u yoki bu darajada, lekin insonning hayot faoliyati, ko'pincha taqdiri uchun muhim hisoblanadi. Binobarin, bunday qarorlarni qabul qiluvchi shaxslar yuksak mas'uliyatni chuqur his qila oladigan bo'lishlari kerak.

Huquqni qo'llash hujjati qonunda maxsus belgilangan shaklda rasmiylashtirilishi, ma'lum tashqi belgilarga ega bo'lishi lozim. Shundagina qabul qilingan qarorlar o'z huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqaradigan manfaatdor fuqarolar keng guruhining, qimmatli mulki bo'lib qoladi. Odatda, huquqni qo'llash hujjati rasmiy yozma hujjat (buyruq, ajrim, hukm va h.k.) shaklida tuziladi. U yozma, og'zaki shaklda, ba'zan esa qayd (bayonnoma, rasmiy daftar) shaklida bo'lishi ham mumkin.

Huquqiy adabiyotlarda huquqni qo'llash jarayonining yakunlovchi bosqichi haqidagi masala munozarali bo'lib qolmoqda. Bir qator olimlar huquqni qo'llash hujjatini ro'yobga chiqarishning o'zini uning yakunlovchi bosqichi deb hisoblaydilar. Boshqalarining asosli fikriga ko'ra esa, huquqni qo'llashning xususiyati va mazmunini ochib beruvchi uning asosiy mantiqiy pog'onalarini (ishning asl holatlarini tiklash, ularni huquqiy tasniflash, qaror qabul qilish) hujjatni hayotga tatbiq etishga qaratilgan va mohiyatan uni qabul qilish natijasi bo'lgan bosqichlardan farqlash zarur.

Shaxsning hokimiyat qarorini ijro etish borasidagi chora-tadbirlarning qabul qilish jarayoni doirasidan chetga chiqishi bunday choralarni qo'llash qaror chiqaruvchi yoki boshqa vakolatli subyektning burchi bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, bunday choralar ahamiyatini zarracha kamaytirmaydi.

Huquqni qo'llash hujjatini amalda ijro etish borasidagi harakatlar shaxs huquqlarini ro'yobga chiqarish tizimida mustaqil o'rin tutadi, shu tizimga uzviy ravishda birikib ketadi, ham shaxsning, ham huquqni ta'minlash va himoya qilishni kafolatlovchilarning huquqni ro'yobga chiqarish harakatlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Bunda qabul qilingan qarorning tezkor, aniq va savodli ijro etilishi ko'p jihatdan shaxsning u yoki bu huquqdan samarali foydalanishini ta'minlaydi. Qabul qilingan qaror mazmunini manfaatdor shaxslar e'tiboriga havola etish juda muhim rol o'ynaydi. Ba'zan bu tadbir qaror chiqarilishi bilan darhol, boshqa holatlarda esa, keyinchalik amalga oshiriladi. Har holda rasmiy jihatdan to'g'ri qabul qilingan, lekin zarur darajada moddiylashtirilmagan har qanday huquqni qo'llash hujjati, o'z vazifasini «bajarmagach», subyektiv huquqni mantiqiy yakuniga yetkaza olmaydi.

Inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish tizimida u yoki bu davlat idoralari, shu jumladan, ichki ishlar organlari tomonidan turli huquqni qo'llash hujjatlari chiqariladi. Bu esa o'z navbatida ichki ishlar organlarining huquqni qo'llash hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlari ularning tasniflab qarab chiqishda to'la namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga qat'iy amal qilgan holda shaxs huquqlari va erkinliklarining jinoyatlar va ma'muriy huquqqa zid tajovuzlardan, ayniqsa, huquqbuzarlik sodir etilganidan keyin yuksak mahorat bilan himoya qilinishi ichki ishlar organlari faoliyatidagi qonuniylikning muhim ko'rsatkichidir. O'z navbatida, bu vazifaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatda huquq-tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi, aholining hokimiyat va qonun ta'sirchanligiga, o'z hayoti, salomatligi, mulki xavfsizligiga bo'lgan ishonch tuyg'usini, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda faollikka intilishini shakllantiradi.

FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari

1. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.1 – Т.: «Ўзбекистон», 1996. – Б. 364.
2. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. – Т.2 – Т.: «Ўзбекистон», 1996. – Б. 380.
3. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Т.3 – Т.: «Ўзбекистон», 1996. – Б. 366.
4. Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. – Т.4 – Т.: «Ўзбекистон», 1996. – Б.394.
5. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. – Т.5 – Т.: «Ўзбекистон», 1997. – Б. 384.
6. Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида: Т.6 –Т.: «Ўзбекистон», 1998. – Б.429.
7. Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. – Т.7 – Т.: «Ўзбекистон», 1999. – Б.410.
8. Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. – Т.8 – Т.: «Ўзбекистон», 2000. – Б. 528.
9. Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. – Т.9 – Т.: «Ўзбекистон», 2001. – Б. 564.
10. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10 – Т.: «Ўзбекистон», 2002– 432 б.
11. Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. – Т.11 – Т.: «Ўзбекистон», 2003. – 320 б.
12. Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. – Т.12 – Т.: «Ўзбекистон», 2004. – 400 б.
13. Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.13 – Т.: «Ўзбекистон», 2005. – 448 б.
14. Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. – Т.14 – Т.: «Ўзбекистон», 2006. – 280 б.
15. Каримов И. А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир – Т.15 – Т.: «Ўзбекистон», 2007. – 320 б.
16. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т.: Ўзбекистон, 2008.– 368 б.
17. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 278 б.
18. Каримов И. А. Жаҳон инқирознинг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – Б. 280.
19. Каримов И. А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б.360 .

20. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 440 .

О‘quv kurs bo‘yicha adabiyotlar Qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – Б.76.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги 2008 йил 7 январь қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2008. – № 1–2. – 1-м.; 2009. – №52. – 554-м.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида»ги 2010 йил 29 сентябрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2010. – №39. – 341-м.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги рухсат бериш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги 2012 йил 17 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2012. – № 51. – 575-м.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги (янги таҳрири) 2012 йил 24 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2012. – № 52. – 583-м.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги 2012 йил 25 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2012. – № 52. – 585-м.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги 2014 йил 5 май қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2014. – № 19. – 209-м.
8. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 май қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2014. – № 20. – 221-м.
9. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида»ги 2014 йил 3 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2014. – № 49. – 578-м.
10. Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 2015 йил 10 августдаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 32-сон, 425-модда.
11. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси (2015 йил 1 апрелгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: «Адолат», 2015. – 424 б.
12. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси (2015 йил 1 мартгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: «Адолат», 2015. – 736 б.
13. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодекси (2015 йил 1 февралгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: «Адолат», 2015. – Б. 200.
14. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси (2015 йил 1 апрелгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: «Адолат», 2015. – Б. 504 .

Darslik, monografiya, o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar

1. «Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунга шарҳлар / А.Х. Саидов ва бошқ.; Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, Т.: «Vektra-Press», 2009. – Б. 272 .
2. Xalqaro huquq. Ma'ruzalar kursi. /Saidov A.X., Isxakova L.F., Matchanov A.A. va boshq. T: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiysi. 2012. –B.279 .
3. Бола ҳуқуқлари мониторинги. Ўқув-услугий қўлланма / Масъул муҳаррир А.Х. Саидов Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2011. – Б. 134 .
4. Бола ҳуқуқлари тўғрисида конвенция; «Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни/ А.Х.Саидов.–Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2008. Б. 34 .
5. Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция ва унинг Факультатив протоколлари. / Ўзбекча нашр учун масъул муҳаррир А.Х. Саидов. – Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2009. – Б.72 .
6. Болалар ғайриижтимоий ҳаракатларининг олдини олиш борасидаги долзарб вазифалар ва устувор йўналишлар: (илмий-амалий конференция материаллари) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссия, БМТ Болалар фонди (UNICEF) Ўзбекистондаги ваколатхонаси, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Олий ўқув курслари; масъул муҳаррир Т.А. Умаров; тузувчилар А.Абдужабаров, У.Н. Мамажанов. – Т., 2010. – Б. 378 .
7. Всеобщая декларация прав человека и национальная система защиты прав человека в Узбекистане / Отв.ред. А.Х. Саидов. – Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2009. – 360 с.
8. Ғойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдизи, омиллари ва манбаи. – Т., 2009. – 296 б.
9. Европа Хавфсизлик ва Ҳамкорлик Ташкилотининг инсонийлик мезонлари. / Масъул муҳаррир, юридик фанлари доктори, профессор – Саидов А.Х. / Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази. Тошкент, 2002. – 166 б.
10. ЕХХТ минтақасида ўлим жазоси: Маълумотнома – 2009. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2010. – 43 б.
11. Жамиятни демократлаштириш ва инсон ҳуқуқларини таъминлаш – Ўзбекистон тажрибаси. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари 2008 йил 25–26 ноябрь. – Тошкент: Cashma Print, 2009. – 590 б.
12. Жиноятчиликка қарши курашда халқаро ҳамкорлик: Маърузалар курси/ Масъул муҳаррир юридик фанлар доктори, проф. А.Х. Саидов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – 133 б.
13. Журабоев О.А. Ички ишлар идоралари ходими – инсон ҳуқуқлари ҳимоячиси. Т., 2010. – 128 б.
14. Инсон ҳуқуқлари ва ички ишлар органлари фаолияти: Маърузалар курси /А.А. Матчанов ва бошқ. Масъул муҳаррир юрид. фан. доктори, проф. А.Х. Саидов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – 126 б.

15. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ва Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш миллий тизими / муаллифлар жамоаси: А.Х. Саидов ва бошқ.; масъул муҳаррир А.Х. Саидов; Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т., 2010. – 368 б.
16. Инсон ҳуқуқлари умумий назарияси: ИИВ тизимидаги таълим муассасалари тингловчи ва курсантлари, шунингдек ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари учун дарслик. – Т., 2012. – 304 б.
17. Инсон ҳуқуқларига оид асосий ҳужжатлар тўплами: Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир юридик фанлар доктори, проф. А.Х. Саидов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – 188 б.
18. Инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишда тергов органларнинг вазифалари: илмий амалий қўлланма. – Т.: «Yurist-media markazi» нашриёти, 2010. – 290 б.
19. Исмоилов З.М., Инсон ҳуқуқлари ва ҳозирги замон юриспруденцияси /Отв. Ред. А.Х. Саидов – Т.: «Fan va texnologiya», 2008, – 148 с.
20. Исхакова Л.Ф. Международная конвенция о ликвидации всех форм расовой дискриминации и ее реализация в Республике Узбекистан. – Т.: Изд-во ТГЮИ, 2009. – 32 с.
21. Исхакова Л.Ф. Международная конвенция о ликвидации всех форм расовой дискриминации и ее реализация в Республике Узбекистан.– Т.: Изд-во ТГЮИ, 2009. – 32 с.
22. Кудинов О.А. Международное публичное право: Курс лекций: Учебно-практическое пособие. –М., 2009. – 285 с.
23. Лукашук И.И. Международное право. Общая часть: Учебник для студентов юридических факультетов и вузов. – М., 2008. – 432 с.
24. Лукашук И.И. Международное право. Особенная часть: Учебник для студентов юридических факультетов и вузов. – М.; 2010. – 544 с.
25. Лукашук И.И., Саидов А.Х. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи назарияси асослари: Дарслик. – Тошкент: «Адолат», 2006. – 424 б.
26. Матчанов А.А. Бирлашган миллатлар ташкилотнинг коррупцияга қарши конвенциясининг аҳамияти ва коррупцияга қарши курашнинг жаҳон тажрибаси: Ўқув-амалий қўлланма – Т. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 27 б.
27. Матчанов А.А. Жиноятчиликка қарши курашда халқаро ҳамкорлик. Методик материал. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – 28 б.
28. Матчанов А.А. Международное уголовное право и международное сотрудничество в борьбе с преступностью. Учебное пособие.– Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2014. – 74 с.
29. Матчанов А.А. Международное гуманитарное право. Учебное пособие. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2014. – 44 с.
30. Матчанов А.А. Международное договорное право. Учебное пособие.– Т.: Академия МВД Республики Узбекистан. 2012. – 33 с.
31. Матчанов А.А. Международное право. Методические материалы для слушателей 2 курса., Методические материалы. – Т. Академия МВД Республики Узбекистан. 2014. – 27 с.
32. Матчанов А.А. Субъекты и источники современного международного права. Учебное пособие.– Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2012. – 45 с.

33. Матчанов А.А. Технология интерактивных методов обучения в области прав человека. Учебно-методическое пособие. Отв. Ред. Докт. Юрид. наук, проф. А.Х. Саидов. – Т.: «Fan va texnologiya», 2015. – 182 с.
34. Матчанов А.А., Ахмедов О.Т. Гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний муомаласига қарши кураш. Ўқув-амалий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2011. – 79 б.
35. Матчанов А.А., Исмоилов Н.Т., Гуламов В.Б. Деятельность ОВД по предупреждению и расследованию терроризма. Учебно-практическое пособие. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2013. – 72 с.
36. Матчанов А.А., Исмоилов Н.Т., Гуламов В.Б. Деятельность ОВД по противодействию и предупреждению торговли людьми. Учебно-практическое пособие. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2013. – 92 с.
37. Матчанов А.А., Исмоилов Н.Т., Гуламов В.Б. Деятельность ОВД по предупреждению преступлений, составляющих незаконный оборот наркотических средств и психотропных веществ. Учебно-практическое пособие. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2013. – 188 с.
38. Матчанов А.А., Исхакова Л.Ф. ва бошқ. Халқаро ҳуқуқ фанидан чизмалар альбомы / Масъул муҳаррир: юридик фанлар доктори, профессор А.Х. Саидов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 116 б.
39. Матчанов А.А., Қодиров У.А. Исхакова Л.Ф. Жинойтчиликка қарши курашда халқаро ҳамкорлик. Маърузалар курси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – 133 б.
40. Матчанов А.А., Саидов Б.А., Фозилов У.Э. Хорижий давлатларда ҳуқуқшунослик фанлари. Ўқув дастур. Катта илмий ходимлар-изланувчилар институти изланувчилар ва мустақил изланувчилари учун малакавий ўқув дастури. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – 16 б.
41. Матчанов А.А., Таджибаева Д.А. Соблюдение международных стандартов обращения с задержанными лицами в деятельности органов внутренних дел Республики Узбекистан. Учебно-практическое пособие. – Т.: «Fan va texnologiya», 2015. – 82 с.
42. Матчанов А.А., Таджибаева Д.А. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари фаолиятида ушланган шахслар билан муомаланинг халқаро минимал стандартларга риоя қилиш. Ўқув-амалий қўлланма. – Т.: «Fan va texnologiya», 2015. – 84 б.
43. Матчанов А.А., Қодиров У.А., Исхакова Л.Ф. Жинойтчиликка қарши курашда халқаро ҳамкорлик. – Т., 2012. – 23 б.
44. Маҳкумлар ҳуқуқлари: халқаро ва миллий стандартлар/ Ф.Х.Бакаева ва [бошқ.]; масъул А.Х.Саидов; Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази. – Т.: Tafakkur, 2011 й. – 220 б. Права осуждённых: международные и национальные стандарты / Отв.ред. А.Х. Саидов – Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2011 г. – 220 с.
45. Международное право. Курс лекций/Саидов А.Х., Исхакова Л.ф., Матчанов А.А. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2012. – 281 с.
46. Международное публичное право: Учебник. – Т., 2003.–552 с.
47. Международные стандарты и совершенствование национального законодательства о политических партиях и негосударственных некоммерческих

организациях (Материалы международного круглого стола, 15 июля 2010 г., г.Ташкент)/Отв.ред. А.Х. Саидов – Т.: Изд-во «Fan va texnologiya», 2011. –170 с.

48. Муаммоли ўсмир: мослашув, ташхис, коррекция усуллари. Услубий кўлланма /Муаллифлар: Н.Ғ. Комилова, Ф.И. Хайдарова – Тошкент: РБИММ, 2008.– 98 б.

49. Муҳаммаджонова Л. Аёл ва ҳуқуқ. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. № 3 (19), 2003. – Б. 19–23.

50. Научные исследования в сфере прав и свобод человека: состояние и перспективы /Отв. Ред. А.Х. Саидов – Т.: Изд-во «Fan va texnologiya», 2011, – 224 с.

51. Научный комментарий к закону Республики Узбекистан «О гарантиях прав ребёнка»/Отв.ред. А.Х. Саидов – Т.: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2008. – 126 с.

52. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека в 2010 году.– Т.: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2011. – 208 с.

53. Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт /Отв.ред. А.Х. Саидов. – Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, SMI-ASIA, 2011. – 200 с.

54. Одам савдосига қарши кураш соҳасидаги миллий ва халқаро ҳуқуқ нормалари / Тузувчилар Л. Исҳоқова, К. Ҳамроева. – Т.: «Yurist-media markazi», 2010. – 312 б.

55. Права осуждённых: международные и национальные стандарты / Отв.ред. А.Х. Саидов – Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2010 г. – 92 с.

56. Пулатов Ю.С. Роль органов внутренних дел в обеспечении и соблюдении международного гуманитарного права при вооруженных конфликтах и беспорядках // Имплементация норм международного гуманитарного права в законодательство Республики Узбекистан. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2000. – 63 с.

57. Ромашев Ю.С. Международное правоохранительное право. – М., 2010. – 368 с.

58. Руководство Международной Организации (МОМ) Прямая помощь жертвам торговли людьми международная организация по миграции. – М., 2010. – 353 с.

59. Саидов А.Х. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг ривожланиши: миллий ва умумбашарийликнинг уйғунлиги: ўзбек, француз ва рус тилларида. – Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2011. – 96 б.

60. Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ: Дарслик. – Т., «Адолат», 2001. – 360 б.

61. Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ: чизмалар ва таърифларда: Ўқув кўлланма. Т.2/ Масъул муҳаррир проф. У. Тожихонов. – Т., «Адолат», 2001. – 352 б.

62. Сборник международно-правовых документов ООН в области прав человека и борьбы с преступностью. Правление ООН по наркотикам и преступности. Региональное представительство в Центральной Азии. 2009. – 370 с.

63. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека.- Т.: Изд-во ТГЮИ, 2009. – 47 с.

64. Ўзбекистон ва инсон ҳуқуқлари бўйича Вена декларацияси ва Ҳаракат дастури. /Масъул муҳаррир: А.Х. Саидов. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2004. – 220 б.

65. Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. /Масъул муҳаррир – А.Х. Саидов, юридик фанлари доктори. Профессор. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, Тошкент, «Адолат», 2002. – 270 б.

66. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Инсон ҳуқуқлари бўйича вакилнинг (омбудсман)нинг 2009 йилдаги фаолияти тўғрисида ҲИСОБОТ. – Т., 2010. – 498 б.

67. Халқаро ҳуқуқ. Маърузалар курси./ Саидов А.Х., Исхакова Л.Ф., Матчанов А.А. ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – 279 б.

68. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид халқаро ҳужжатлар: тўплам/Масъул муҳаррир А.Х. Сидов. – Тошкент: «Адолат», 2004. – 212 б.

69. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид халқаро ҳужжатлар: тўплам / Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. – Т., 2004. – Б. 212.

70. Яшаш ҳуқуқи ва шахс дахлсизлиги кафолати (илмий-амалий қўлланма). // Масъул муҳаррир: юрид. фан. д-ри., проф. Ш.Х.Файзиев. – Т.: АҚХМИ. 2008. – 298 б.

Dissertatsiya va avtoreferatlar

1. Амирова М. А. Международное право прав человека в российском судопроизводстве: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2005. – 26 с.

2. Ахметшин Р. И. К проблеме третьего поколения прав человека: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1999. – 22 с.

3. Велиева Д. С. Конституционно-правовые вопросы реализации права человека и гражданина на благоприятную окружающую среду в России: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2001. – 27 с.

4. Гафуров А. Б. Взаимоотношение норм международного права и национального законодательства по правам человека (проблемы теории и практики): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т.: ТГЮИ, 2001. – 21 с.

5. Гельдибаев М. Х. Обеспечение прав и свобод человека и гражданина в сфере уголовно-процессуального принуждения: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – СПб., 2001. – 43 с.

6. Жавзандолгор Баттогтох. Международно-правовая защита прав детей: Международно-правовые аспекты: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2004. – 26 с.

7. Захаренко И. С. Международные стандарты прав человека и гражданина и современное российское законодательство: Конституционно-правовой аспект: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – СПб., 2005. – 23 с.

8. Корнилина А. А. Влияние постановлений Европейского Суда по правам человека на российское законодательство и правоприменительную практику: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2003. – 20 с.

9. Криволапов П. С. Новые тенденции международного сотрудничества в области прав человека: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2006. – С.34.
10. Лазарь Л. К. Роль и функции омбудсменов (комиссаров) в международной защите прав человека: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2004. – 26 с.
11. Морозова М. В. Конституционные правовые гарантии права человека и гражданина на благоприятную окружающую среду в современной России: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2007. – 22 с.
12. Овуор Морис Аджуанг. Африканская хартия прав человека и прав народов 1981 года и ее имплементационные механизмы: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2000. – 16 с.
13. Раджабов С. А. Имплементация норм международного гуманитарного права в Республике Таджикистан: Проблемы теории и практики: Автореф. дис. ... д-ра. юрид. наук. – М., 2008. – 50 с.
14. Тарасова Л. Н. Применение силы в международных отношениях и защита прав человека: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2007. -16 с.
15. Фаяд Насер Юсеф. Контрольный механизм по международным пактам о правах человека: Сравнительный анализ: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 1998. –13 с.
16. Шихаб Абдул Карим Али. Права человека в международном и мусульманском праве: Сравнительный анализ: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Казань, 2000. – 27 с.
17. Юй Лимэй. Пакты о правах человека и их имплементация в КНР: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2004. – 22 с.
18. Юркина Е. Е. Рассмотрение жалоб юридических лиц в Европейском Суде по правам человека: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2010. – 26 с.

Elektron ta'lim resurslari

- [http:// akadmvd.uz](http://akadmvd.uz) (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)
- [http:// lex.uz](http://lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)
- [http:// eduportal.uz](http://eduportal.uz) (Multimediya umumta'lim dasturlarni rivojlantirish markazi)
- [http:// www.connect.uz](http://www.connect.uz) (O'zbekiston umumta'lim portali)
- [http:// uzsci.net](http://uzsci.net) (Ilmiy ta'lim tarmog'i)
- [http:// www.ima.uz](http://www.ima.uz) (Intellectual mulk agentligi)
- [http:// www.academy.uz](http://www.academy.uz) (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)
- [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) (Axborot ta'lim tarmog'i)
- [http:// www.uzscience.uz](http://www.uzscience.uz) (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi)
- [http:// uzedu.uz](http://uzedu.uz) (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi)
- [http:// www.nuu.uz](http://www.nuu.uz) (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy Universiteti)
- [http:// www.tsil.uz](http://www.tsil.uz) (Toshkent Davlat Yuridik Universiteti)
- [http:// www.tuit.uz](http://www.tuit.uz) (Toshkent Axborot texnologiyalari Universiteti)

Ilova

XALQARO TASHKILOTLARNING QISQARTMA NOMLARI

- XSST** – Xalqaro Sogʻliqni Saqlash Tashkiloti
- XST** – Xalqaro Savdo Tashkiloti
- YETTB** – Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki
- YevrAzES** – Yevrosiyo iqtisodiy birlashmasi
- Yevratom** – Yevropa atom energiyasi birlashmasi
- YEMB** – Yevropa markaziy banki
- YEIB** – Yevropa iqtisodiy birlashmasi
- IKAO** – Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti
- IMO** – Xalqaro dengiz tashkiloti
- INMARSAT** – Xalqaro dengiz sunʼiy yoʻldosh aloqasi tashkiloti
- XHK** – BMT xalqaro huquq komissiyasi
- ADL** – Arab davlatlari ligasi
- MAGATE** – Atom energiyasi boʻyicha xalqaro agentlik
- XTRB** – Xalqaro Taraqqiyot va Rivojlanish Banki
- XVF** – Xalqaro Valuta Fondi
- XMT** – Xalqaro Mehnat Tashkiloti
- TTRQXI** – Tabiatni va tabiiy resurslarni himoya qilish xalqaro ittifoqi
- NATO** – Shimoliy atlantika shartnomasi
- ADT** – Amerika davlatlari tashkiloti
- AI** – Afrika ittifoqi
- IHT** – Islom hamkorligi tashkiloti
- YEXHT** – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti
- VSHT** – Varshava shartnomasi tashkiloti
- BMT** – Birlashgan Millatlar Tashkiloti
- IHRT** – Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti
- HSDP** – Hakamlik sudlari doimiy palatasi
- YEXHM** – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik boʻyicha majlis
- AITMQ** – Antarktikada ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish qoʻmitasi
- MDH** – Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi
- IOʻK** – Iqtisodiy oʻzaro hamkorlik kengashi
- FAO** – BMTning Oziq-ovqat va Qishloq Xoʻjaligi Tashkiloti
- EKOSOS** – BMTning iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi
- YUNEP** – BMTning Atrof Muhit Boʻyicha Dasturi
- YUNESKO** – BMTning Taʼlim, fan va madaniyat masalalari boʻyicha tashkiloti
- YUNIDO** – BMTning ishlab chiqarish taraqqiyoti boʻyicha tashkiloti
- YUNKTAD** – BMTning savdo va taraqqiyot boʻyicha konferensiyasi
- YUNSTRAL** – BMTning xalqaro savdo huquqi boʻyicha komissiyasi

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

1-Mavzu. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA YURIDIK TA'MINLASH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH O'QUV KURSINING PREDMETI, METODI, VAZIFALARI VA TUZILISHI

1.1. Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursining predmeti va vazifalari	5
1.2. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari rahbar xodimlari uchun ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursini o'rganishning ahamiyati	9
1.3. Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash faoliyatini tashkil etish o'quv kursining metodlari, tizimi va boshqa fanlar bilan aloqasi.....	16

2-Mavzu. INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO BILL

2.1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro Billning yuridik mazmuni va huquqiy tavsifi	19
2.2. «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning huquqiy mazmuni va ahamiyati.....	23
2.3. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro Paktlar	26

3-Mavzu. INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO STANDARTLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY QONUNCHILIGI VA AMALIYOTIGA IMPLEMENTATSIYA QILINISHI

3.1. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar tushunchasi	31
3.2. Adolatli sudlovni amalga oshirish sohasidagi xalqaro standartlar tushunchasi.....	34
3.3. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar implementatsiyasi	37
3.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklari xalqaro standartlarining mustahkamlanishi	40

4-Mavzu. INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING MILLIY VA XALQARO MEKANIZMLARI

4.1. Inson huquqlarini himoya qilish kafolatlari	44
4.2. O'zbekistonda inson huquqlari milliy mexanizmining shakllanishi	47
4.3. O'zbekiston Respublikasidagi inson huquqlari bo'yicha milliy tashkilotlarning o'ziga xos xususiyatlari	50
4.4. Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro mexanizmining umumiy tasnifi	54

4.5. Inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmi bo‘yicha BMT tarkibi ...	57
4.6. Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Yevropadagi va boshqa mintaqaviy xalqaro tashkilotlar	69
5-Mavzu. QIYNOQ HAMDA MUOMALA VA JAZOLASHNING QATTIQ, SHAFQATSIZ, INSONIYLIKKA ZID VA QADR-QIMMATNI KAMSITUVCHI TURLARIGA QARSHI KONVENSIYA VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI FAOLIYATI	
5.1. Qiynoqqa qarshi konvensiyaning umumiy tavsifi va mazmuni	78
5.2. Ichki ishlar organlari tomonidan Qiynoqqa qarshi konvensiya talablarining bajarilishi	82
5.3. O‘zbekiston Respublikasi davlat organlarining Qiynoqqa qarshi konvensiya talablarini amalga oshirish asoslari	85
6-Mavzu. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO HUQUQIY HUJJATLAR	
6.1. Tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlarning umumiy tavsifi va tasniflanishi	90
6.2. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalar – huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlar sifatida	94
6.3. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni amalga oshirish	98
6.4. Ichki ishlar organlari faoliyatida inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash	103
7-Mavzu. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA YURIDIK TA‘MINLASH FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI	
7.1. Ichki ishlar organlarining inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta‘minlash faoliyatining asosiy shakllari	111
7.2. Ichki ishlar organlarining inson huquqlarini himoya qilish mexanizmning huquqiy asoslari	117
FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR	125
Ilova	133

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA YURIDIK TA'MINLASH FAOLIYATI

Ma'ruzalar kursi

Muharrir: M. Sultonova
Texnik muharrir: **D. Djalilov**

Bosishga ruxsat etildi 13.06.2017 y. Nashriyot bosma tabag'i 8,5
Adadi 20 nusxa. Bosma № . Bahosi kelishilgan narxda

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68.